

ERTAKLAR – YAXSHILIKKA YETAKLAR

DUNYODA YO'Q
HUANAK

o'zbek xalq ertaklari



III

0+



ERTAKLAR YAXSHILIKKA YETAKLAR



O'zbek xalq ertaklari

«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»

Davlat ilmiy nashriyoti

Toshkent – 2018

UO'T: 398.21(=512.133)

KBT 82.3(5O')

D 88

D 88

Dunyoda yo‘q hunar: O‘zbek xalq ertaklari /

T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat
ilmiy nashriyoti, 2018. – 144 6er.

Tuzuvchi:
Hamdamova Mahbuba


Jajji do‘stim, keling, qo‘lingizdagи ushbu kitobni birgalikda mutolaa qilamiz.

Siz ertaklardagi dovyurak shahzoda-yu, go‘zal malikalar bilan suhbatlashishni istaysiz-a? Buning iloji bor. Ertak qahramonlariga qulog soling. Yaxshilab tinglasangiz ular siz bilan gaplashyotganini his qilasiz. Bu to‘plamdagи Kenja Botir, malika podachining aqli va go‘zal qizi sizga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishiga biz ham ishonamiz.

«O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti taqdim etayotgan ertaklarning sirlı olamiga marhabo!

UO'T: 398.21(=512.133)

KBT 82.3(5O')



ISBN 978-9943-07-649-5

© «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi»
Davlat ilmiy nashriyoti, 2018.

OPA-UKA

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir chol bor ekan. Uning xotini har ikki yilda ikitadan bola tug‘ar ekan. Oradan bir necha yil o‘tibdi, cholning bolalari juda ko‘payib ketibdi. Bu bolalarni boqish juda qiyin bo‘lib qolibdi.

O‘zlarining ham qorinlari hech to‘ymas ekan. Kunlardan bir kun chol xotiniga:

— Bolalarni uxlatgandan keyin bir qozon atala qil, bir to‘yib ichaylik, — debdi. Xotini yarim kechada o‘rnidan turib oshga harakat qilib tursa, bir qizi turib:

— Ona, men un elab beraymi? — debdi.

Yana biri turib:

— Suv keltirib beraymi? — debdi.

Yana biri:

— O‘tin keltirib beraymi? — debdi.

Yana biri:

— O‘t yoqib turaymi? — debdi.

Shunday qilib, bolalari uyg‘onib har tomondan turib kelaveribdilar. Chol buni ko‘rib, zarda qilib ko‘chaga chiqib ketibdi. Xotini atalani pishirib, suzish oldidan bolalariga:

— Otangizga ham biroz olib qo‘yay, — debdi-da, bir kosa atala olib qo‘yibdi. Atalani o‘choq boshida qoldiribdi. Bolalar

atalani ichib bo'lgach, yotib uxlabdilar. Bolalardan biri turib, o'choq boshidagi oshni topib ichib, o'rniga suv solib qo'yibdi. Yotib uxlabdi. Birozdan keyin chol uyga kirsa, hammasi uxlab qolgan ekan. O'choq boshiga borib qarasa, kosada bir narsa turgan emish. Qorong'ida atala deb o'ylab, ichib ko'rsa, suv ekan. Shundan chol qattiq xafa bo'libdi. Ertasi bolalariga:

— Bolalarim, men bilan birga yuringlar. Bugun tog'ga borib, do'lana teramiz, — debdi. U bolalarini ergashtirib, bir tog'ga olib chiqibdi. Do'lanani qoqib, bolalariga:

— Men daraxtga chiqib, do'lana qoqaman. Yuqoriga qaramanglar, zo'r berib tera beringlar, — debdi. Bolalar do'lanani teraveribdilar. Chol sekin daraxtdan tushib, uyiga qarab ketaveribdi. Do'lanani terib, yeb bo'lgan bolalar:

— Dada, yana qoqing! — deb yuqoriga qarashsa, hech kim yo'q. Bolalar yig'lashib, har tomonga tarqalib ketibdilar. Shu bolalar orasidan bir qiz bilan bir o'g'il tog'ning bir tarafiga qarab ketibdi. U yerda suv yo'q ekan. O'g'il bola opasiga:

— Opajon, juda chanqadim, — debdi. Shunda bir joyda ko'lmak suv ko'rinishi. Bola suvni ichay degan ekan, opasi:

— Ichma, bu ayiqning ichadigan suvi, — debdi. Yana biroz yurgandan keyin bir suv ko'rinishi.

Bola:

— Opa, suv ichaman, — debdi.

Opasi:

— Ichma, bu kiyikning ichadigan suvi, — debdi.

Bola:

— Ichsam nima bo'ladi? — debdi.

Opasi:

— Ichsang kiyik bo'lib qolasan, — debdi. Ukasi opasining so'ziga kirmay, shu suvdan ichgan ekan, kiyik suratiga kirib qolibdi. Qiz hayron bo'lib, yig'lab-yig'lab kiyik bo'lib qolgan ukasini yetaklab yuribdi. Ular borib-borib, bir ko'priknинг tagiga kirib yotibdilar.

O'sha yurtning podshosi ovga chiqqan ekan. U ko'pri oldiga kelganda oti hürkib, ko'prikdan o'tmay qolibdi.

Podsho:

— Kimsan, ko'pri tagidan bu yoqqa chiq! — debdi. Qiz kiyikni yetaklab chiqib kelibdi. Podsho qizni ko'rib yoqtirib qolibdi. Podsho navkarlariga

— Bu qizni o'rdaga olib boringlar! Kechqurun ovdan qaytib boraman. Shungacha tursin! — debdi. Navkarlari qizni o'rdaga olib boribdi. Kechqurun podsho ovdan qaytibdi. Qizdan hol-ahvol so'rab, uni parvarish qilish to'g'risida buyruq beribdi. Podsho avvalgi xotinlaridan bola ko'rmagan ekan. Bir necha kundan keyin xalqqa katta to'y-tomosha qilib beribdi va qizni o'z nikohiga olibdi. Qiz homilador bo'libdi.

Podshoning katta xotinlari yosh xotinning homilador bo'lganini bilib, uni yo'qotish payiga tushibdilar. Kunlardan bir kun podsho ovga ketganda, kundoshlar kenja xotinini yo'qotmoqchi bo'libdilar.

Kenja xotin podshoning ovdan qaytish kunlari yaqinlashganda hovuz bo'yida sochlarini yoyib o'tirgan ekan. Kanizaklaridan biri kelib kenja xotinni to'satdan hovuzga itarib yuboribdi. Qiz cho'kib ketibdi.

Kanizakning o‘zi esa kenja xotinning kiyimlarini kiyib, unga o‘xshagan bo‘lib o‘tiribdi. Podsho ovdan qaytib, to‘ppato‘g‘ri kenja xotinning uyiga kiribdi. Qarasa, xotini boshqa ahvolda.

— Ey, xotin, senga nima bo‘ldi? — debdi.

Kanizak aytibdi.

— Sizni o‘ylayverib shu ko‘yga tushdim, — debdi. Podsho hayron bo‘lib, shu kecha u bilan qolibdi.

Xotin ertalab turib:

— Mening boshim qorong‘i bo‘ldi, menga o‘sha kiyikni so‘yib bersangiz, — debdi.

Podsho:

— Sen bu kiyikni mening ukam, suv ichib kiyik bo‘lib qolgan demabmiding? — debdi.

Kanizak:

— Yolg‘on aytgan edim, — debdi.

Podsho navkarlariga:

— Kiyikni so‘yinglar! — deb buyruq beribdi.

Navkarlar darrov mis qozonlarni osib, oshpichoqlarni qayrab turganlarida, birdan kiyik hovuz atrofida aylanib, tilga kelibdi:

*Mis qozonlar osildi,
Oshpichoqlar qayraldi,
Chiqmaysizmi, opajon,
Hovuzingiz tagidan, —*

debdi.

Opasi:

*O'ng yoqda oltin beshik,
Chap yoqda kumush beshik,
Tagimda zarvar gilam,
Qanday chiqay, ukajon?! —*

debdi.

Podsho bu so'zni eshitib, darhol hovuzning suvini chiqarib tashlab, quritishga buyruq beribdi. Hovuzning suvini chiqarib, tagiga qarashsa, bir darcha ko'rinishdi, darchani ochib qarashsa, bir gumbaz ko'rinishdi. Bu gumbazning ichiga kirib ko'risha, gumbaz o'tasida podshoning kichik xotini o'tirgan-emish. Uning tagida zarvar gilam, o'ng va chap taraflarida beshik. Podsho xotinining oldiga borib so'rabdi:

- Seni kim bu yerga keltirdi?
- Meni bir kanizak hovuzga itarib yubordi. Hovuzga tushgandan keyin ko'zimni ochib qarasam, shu uyda o'tiribman. O'sha onda tug'dim. Bu ilonlarning makoni ekan. Ular menga yordam qildi. Bu yerda salomat o'tiribman, — debdi xotini.

Qiz ikki o'g'il tug'gan ekan. Podsho xotini bilan bolalarini hovuz tagidagi gumbazdan chiqarib, el-yurtga katta to'y qilib beribdi. Kanizakni esa bir baytal otning dumiga bog'lab, orqasidan ayg'ir qo'yib yuboribdi.

Kiyik bo'lib qolgan bolani esa hakimlarga ko'rsatib, davolatibdilar. Keyin bola o'z holiga kelibdi. Opa-uka, podsho va uning ikki o'g'li birga umr kechirishib, murodlariga yetibdilar.

CHO'LOQ BO'RI

Bir boyning uch o'g'li bor ekan. Boyning katta bog'i ham bor ekan. Bog'ida bir tup chinori bor ekan. Bu chinor tilladan ekan. Har kuni bir bargi yo'qolib qolar ekan. Boy g'azablanib, katta o'g'lini poylatibdi. Ertasiga o'rtanchasini poylatibdi. Uchinchi kuni eng kichkinasini qo'yibdi. O'sha kuni bir tilla qush kelib, chinorning bitta bargini uzib ketibdi.

Kichik o'g'li:

— Ota, bir tilla qush kelib, bargini uzib ketdi. Otishga ko'zim qiymadi, — debdi.

Otasi uch o'g'liga g'azab qilibdi:

— Topsalaring topganing, topmasalaring boshlarining olimda, — debdi. Ikki o'g'li kulcha-ko'machini g'amlab, yo'lga ketibdi. Eng kichigi hech narsa olmasdan yig'lab ketibdi.

Uch ayrilish yo'lga borishibdi. U yerda bir tosh bor ekan, u toshga: „borsa kelmas“, „borsa kelar“, „borsa xatar“ deb yozib qo'yilgan ekan. Eng kattasi „borsa kelar“ga, o'rtanchasi „borsa kelmas“ga, kichigi „borsa xatar“ga ketibdi. Kichigi bir suvning bo'yiga borib, bir dona nonni suvgaga tekkizib yeb o'tirgan ekan, bir cho'loq bo'ri kelib qolibdi. Qo'rqqanidan nonning yarmini bo'riga beribdi. O'rnidan turgan vaqtida:

— Qayoqqa borasan? — deb so'rabdi bo'ri.

— „Borsa xatar“ga boraman, — debdi u.

Bo'ri:

— „Borsa xatar“ olti oylik yo'l, yetolmassan. Ustimga mingin, ko'zingni yumgin, olti hatlab yetkazay, — debdi. Bola shunday qilibdi.

Bo'ri:

— Ko'zingni och, — debdi. Bola ko'rsa, taxt tagida turibdi. Bo'ri:

— Qirq pog'onali shotiga chiqasan, qushni olsang, chakkasini¹ olma, — debdi. Bola qushni olibdi. „Uzoq yo'lda yerga qo'yamanmi“, debdi-da, chakkasini ham olibdi. Chakkasida qo'ng'iroqlar bor ekan, jarang-jurung qilibdi. Vazirlar bolani qo'lga tushirib olib, podshohning oldiga olib kiribdilar.

Podshoh:

— Sen qaysi eldan kelding? — debdi.

— Bog'bondan keldim, — debdi bola.

— Nima uchun kelding? — debdi podshoh.

— Qush uchun keldim, — debdi bola.

— Qush uchun kelgan bolsang, Mag'ribda bir podshohning qizi bor, olib kelib bergen, qushimni beraman, — debdi podshoh.

Bola qaytib pastga tushibdi.

Cholq bo'ri:

— Kallasi katta boyvachcha, nima ish qilding? — debdi. Bola bo'lgan voqealarni aytib beribdi. „U qizning shahri sakkiz oylik yo'dir. Ustimga min, ko'zingni yum!“ debdi

¹ Chakka — qafas.

bo'ri va sakkiz hatlab bolani yetkazibdi. Bola o'zini taxt tagida ko'ribdi.

— Qizni olsang, ro'molini olma, ro'molini olsang, qizni olma, — deb gap o'rgatibdi bo'ri. Bola chiqib, qizni uxbab yotgan yeridan olibdi.

„Uzoq yo'lda boshyalang olib ketamanmi“, deb ro'molini ham olibdi.

Tag'in qo'lga tushibdi. Uni podshohning oldiga olib kirishibdi. Podshoh: „Falon joyda yalmog'iz kampirning bir oti bor, shuni olib kelib bersang, so'ng qizimni beraman“, debdi. Bola bo'rining oldiga chiqib:

— To'rt oylik yo'lda bir ot bor, shuni olib kelib bersang, qutulasan, deydi, — debdi.

— Ustimga min, ko'zingni yum! — debdi bo'ri.

To'rt hatlab unga ham olib boribdi. Ko'zini ochsa, o'zini bir Changalimozandaronda ko'ribdi. Bo'ri:

— Yer tagidan teshib kirasan, oxurning yonidan chiqasan. Bosh chiqargan vaqtingda ot bir kishnaydi. Kampir yotgan yeridan bezovta bo'lib chiqib, otini uradi. „Haromgina o'lgur, sen nimaga kishnay berasan, nimani bilding“, deb urib-urib kirib ketadi, — debdi.

Bola shularning hammasini aytganidek bajaribdi. Otni olib chiqibdi. Cho'loq bo'ri ikkalasi podshohning oldiga jo'nabdi. Yo'lda bo'ri:

— Ey, kallasi katta boyvachcha, shu otni podshohga berasanmi? — debdi.

— Nima qilamiz? — debdi bola. Bo'ri:

— Bir yumalab bundan ham yaxshi ot bo'laman. „Bitta ot deb edingiz, ikkita qilib keldim“, deysan. „Tanlab oling“, deganingda, meni tanlab oladi. Sen qizni mingashtirib olib ketasan. Orqangdan men ko'k kaptar bo'lib uchib, yetib ola-man, — debdi.

Bola bo'ri aytganini bajo keltiribdi. Podshohning oldiga kiribdi.

— Ikki otdan bittasini tanlab oling, — debdi. Podshoh cho'loq bo'rini tanlab olibdi. Yigit qizni olib ketibdi. Orqasi-dan ko'k kaptar bo'lib bo'ri yetib olibdi.

— E, kallasi katta boyvachcha, shu qizni podshohga be-rasanmi? — debdi.

— Nima qilamiz bo'lmasa?

— Men bir yumalab bir qiz bo'lay. Podshoh meni tan-laydi. Sen qizni ham, qushni ham olib keta berasan. Men orqangdan ko'k kaptar bo'lib uchib boraman, — debdi.

Bola shunday qilibdi. Bola:

— Bitta qiz deb edingiz, ikki qiz keltirdim, tanlab oling, — debdi.

Podshoh cho'loq bo'rini tanlab olibdi. Uchalasini olib yigit jo'nab keta beribdi. Bola qush, qiz va otni olib, boyagi yeriga — non yegan joyiga yetibdi. Bo'ri ham yetib kelibdi. Cho'loq bo'ri:

— Bir qush deb eding, shuncha narsali qilib qo'ydim, bergen yarimta noningga rozi bo'lgin, — deb ko'zdan g'oyib bo'libdi.


Bola akalarini istab, „borsa kelar“, „borsa kelmas“ yo'llari-ga kiribdi. Ularni topibdi. Biri oshpazga o't yoqar, biri hammomda go'loh ekan. Akalarini chaqirib:

— Endi ketaylik, — debdi.

Yo'lga tushibdi. Yo'lda ikkala akasi ukasini o'ldirishga maslahat qilibdi. Ukasining ko'zini o'yib, bir chuqurga tashlabdilar. Bari narsalarini olib jo'nabdilar. Otalarining oldiga boribdilar. Otasi kichik o'g'lidan bexabar, to'y-tomoshalarni qilib beribdi. Qiz, qush, otlar ovqat yemay, yig'lasharmish.

— Nimaga bunaqa qilasizlar? — deb so'rabdi boy. Bilsaki, bularni kichkina o'g'li olib kelgan ekan. Akalari uning ko'zini o'yib, chuqurga tashlab kelgan ekanlar. Qiz ularni boyning kichik o'g'li yotgan joyga boshlab olib boribdi. Qarasalar, bola chala o'lik bo'lib yotgan ekan. Olib kelibdilar, tabibga ko'rsatib davolagandan so'ng, boy ikkala katta o'g'lini jazolashga buyuribdi. Boy qizni kichik o'g'liga beribdi. Xiyonat qilganlar jazolarini tortibdilar. Bular murod-u maqsadiга yetibdilar.

O'TINCHI CHOL



tgan zamonda sakson yashar bir o'tinchi chol bor ekan. Daladan bir ko'tarim o'tin terib kelib, uni sotib, xotini bilan tirikchilik o'tkazar ekan. Bir kuni o'tinini sota olmasdan bozorga tashlab qaytib kelibdi. Chol eshikdan kirishi bilan, xotini:

— Nima olib keldingiz? Kechadan beri hech narsa yeganim yo'q, — debdi.

— O'tinimni sotolmay, quruq qaytdim, — debdi chol.

— Ha, to'g'ri, qachon o'tin sota olsangiz ovqat olib kelasizza, bo'lmasa yo'q. Mana shunday vaqtida uyda biror narsa bo'lsa, pishirib-kuydirib yerdik. Endi ertaga ikki qo'shnini hasharga aytsangiz, ular ikki ko'tarim o'tin olib kelsa, uni yoqarmiz, siz olib kelgan o'tinni sotsangiz ovqat bo'lar, — debdi.

Kambag'al xotinining so'zini ma'qullab, kosiblarni hasharga chaqiribdi. Ular ham rozi bo'lishibdi. Erta bilan ikki kosib cholning eshigiga kelib chaqiribdi. Uchovi uchta arqon olib, o'tin terishga chiqib ketishibdi. Daladan o'tin terib, uchovi uch ko'tarim o'tinni orqalayotganda sh'amol turib, o'tinlarini uchirib ketibdi. Chol: „Er-xotin kecha och yotgan edik, endi bugun ham och qolamizmi?“ deb yig'labdi. Kosiblar cholni yupatib:

— Ey ota, yig‘lamang, bugun er-xotin ikkovingizga ovqat topib berarmiz. Ertaga shamol tingandan keyin yana kelib o‘tin terib ketamiz, — debdi. Ular qaytib kelayotganlarida bir chinorning tagida chuqur ko‘rishibdi. Qarashsa, ular tergan o‘tinlarni shamol kelib shu chuqurga tashlagan ekan. Kosiblar:

— Ota, mana bizning tergan o‘tinimiz, siz tushib olib berib turing, biz taxlaymiz, — deyishibdi. Chol uch ko‘tarim o‘tinni olib bergandan keyin oyog‘ining tagiga qarasa, uch xum oltin turgan emish. Chol bu oltinlarni sheriklaridan yashirmay, chuqurdan olib chiqib, uch bog‘ o‘tinning orasiga bir xumdan bog‘labdi.

Chol kosiblarga:

— O‘zingiz ko‘targan xumdag‘i oltinlar o‘zingizga, ammo o‘tinni uyimga olib borasizlar, — debdi. Ikki kosib bir-biriga imo-ishora qilib, cholni o‘ldirib, uning ham oltinini olmoqchi bo‘lishibdi.

Kosiblardan biri:

— Sen cholning o‘tinini bog‘la, men qo‘lini bog‘layman, so‘ng chohning bo‘yiga olib borib so‘yib tashlaymiz-da, ustiga tegirmon toshini bostirib ketamiz. Ammo o‘tinni uyiga eltib beramiz, — debdi. Ikkovi cholni sudray boshlaganda chol ulardan:

— Nimaga meni azoblaysizlar? — deb so‘rabdi. Biri turib:

— Sizni o‘ldirib oltinning hammasini o‘zimiz olmoqchimiz, — deb javob beribdi. Chol:

— Bolalarim, meni o'ldirmanglar; mening oyog'imni go'r tortib qolgan qari cholman, buning ustiga xotinimning yetti oylik gumonasi bor. Qizmi, o'g'ilmi shuni bir ko'rsam, undan keyin o'sam armonim yo'q, — debdi. Ular cholga qulinq solmay:

— Yo'q, o'ldiramiz, — deyishibdi. Chol yalinib:

— Men bu voqeani hech kimga aytmayman, ishoning. Faqat o'tinimni uyga olib borib bersangiz bo'lgani, — debdi.

Ular:

— Yo'q, so'yamiz, — deyishibdi. Chol turib:

— Bo'lmasa, xotinimga bir vasiyatim bor. Shuni borib aytinglar: „Chol yo'lda o'tin ko'tarib kela turib, uch joyda shamoldan yiqilib tushganiga achchiqlanib, boshini olib boshqa bir shaharga ketdi. Agar xotinim o'g'il tug'sa, otini Dod qo'ysin, qiz tug'sa, o'zi bilib ot qo'ysin, deb aytdi“, deng.

Ular cholni o'ldirib, o'ligini chohga tashlab, tegrimon toshini bostirib qo'yishibdi. Uch ko'tarim o'tinni oltin bilan ko'tarib uylariga qarab ketishibdi. Haligi uch ko'tarim o'tinni o'tinchining uyiga keltirib, cholning xotiniga:

— Eringizning fe'li qursin, bizni ham xafa qildi, o'zi ham uch joyda yiqilib tushib, achchig'idan boshqa bir shaharga boshini olib ketdi. Keta turib: „Xotinimga aytinglar: bo'yida gumonasi bor edi. Agar o'g'il tug'sa, otini Dod qo'ysin, qiz tug'sa o'zi bilib ot qo'ysin“, dedi, — debdilar.

Xotini yig'lay-yig'lay o'tinni olib kirib ketibdi. Kosiblar yarim xumdan oltinni sarf qilib, naqshin saroy solishibdi.

Ular har shahardan gumashta orttirib, katta boy bo'lib, yetti qiron podshohlarga e'tiborli bo'lib ketibdilar. Adras kiyimlar kiyib, po'ta belbog'lar bog'lashib, kumushdan hassa ushlab yuradigan bo'lishibdi.

Endi bir kalima so'zni o'tinchining xotinidan eshiting. Vaqt-soati yetib xotin bir o'g'il tug'ibdi, otini Dod qo'yibdi. Dod kunda bir yashab, oyda bir yashab yettiga qadam qo'yibdi. Onasi Dodni ko'chaga chiqarmay, eshikka qulf solib qo'yib, o'zi charx yigirib kun o'tkazar ekan. Bir kun Dod ko'chada o'z tengqurlarining ovozini eshitib yig'lab, onasiga:

— E ona, men ham chiqib bolalar bilan o'ynab kelay, — debdi. Onasi:

— Mening gapimga kirsang chiqaraman; betingga niqob tortib qo'yaman, shu niqobing bilan o'ynaysan. Bolalar niqobbingni och desa „Ochmayman“ degin, — debdi. Dod yuziga niqob tortib chiqib, kechgacha bolalar bilan o'ynabdi. So'ngra qorni ochib uyga kiribdi:

— Ona, non bering, — debdi.

Onasi:

— E bolam, sening tashvishingni tortib o'tirgan edim, uyda bir burda non yo'q. Endi otangning hunarini qilmasang bo'lmaydi. Otang o'tinchi edi. Endi ikkimiz dalaga borib ikki ko'tarim o'tin olib kelsak, birimizniki ovqat bo'lsa, birimizniki qo'r bo'ladi, — debdi.

Ona-bola maslahatlashib, ikkovi arqon olib dalaga borishibdi. O'tin terib yurib, onasining beli og'rib qolibdi.

Onasi:

— Men birpas yotib dam olay, sen o'ynab tur, — deb bir daraxt tagida yotib uxlab qolibdi. Uyqusidan uyg'onib qara-sa, bolasi yo'q.

Bolasini qidirib, „Dod“ deb to'qayga kirib ketibdi. To'qaydan chiqib „Dod“ deb tog‘ orasiga qarab izlab ketib-di. Tog‘ orasidan chiqib, „Dod“ deb daryo yoqalab ketibdi. Undan cho'lga qarab „Dod“ deb ketibdi. O'g'lini topa olmay, bolasining dog‘ida cho'lda zor-zor yig‘lab ketayotgan ekan, oldidan sakkiz yuz askari bilan kiyik oviga chiqqan bir pod-shoh chiqib qolibdi. Podshoh xotinning dodini eshitib ikkita yasovulga: „U xotinni chayon chaqqanmi yo ilon zahar sol-ganmi, o'zidan o'zi „dod“ deb yig‘lab yuribdi, uni olib keling-lar!“ deb buyuribdi. Yasovullar xotinni podshohning oldiga olib kelishibdi. Podshoh xotindan:

— Nima uchun dod deb yig‘laysan, ilon chaqdimi, chayon chaqdimi? — deb so‘rabdi. Xotin:

— Bolamni yo'qotdim, oti Dod edi. Otini aytib yig‘lab ketayotib edim, — debdi. Podshoh:

— Boshqa ot qurib ketdimi, shu otni qo‘ysanmi, — debdi. Xotin erining ikki qo‘shnisi bilan o‘tin olib kelishga ket-ganda bo‘lgan voqeani va erining vasiyatini aytibdi. So‘ngra bolam bilan o‘tin terishga chiqqan edim, belim qotib birpas yotdim, uxlab qolibman. O‘rnimdan turib qarasam, bolam yo‘q, — debdi. Podshoh:

— Ering bilan o‘tin terish uchun hasharga chiqqan qo‘shnilaring hozir bormi? — deb so‘rabdi

Xotin:

— Bor, ular boy bo'lib ketgan. Bozor chorsida naqshli saroymda turadigan, kumush kursida o'tiradigan ikki boy o'sha qo'shnilarimizdir.

Podshoh: „Cholni o'sha qo'shnilar o'ldirgan bo'lsa kerak“, deb o'ylab, uchta yasovulni chaqirib:

— Uchoving „Dod“ deb shaharga uch tomondan kiringlar. Shahar ichida qaysi bola „Ha“ desa, tutib, otga mindirib olib kelinglar, — debdi. Uchta yasovul „Dod“ deb shaharga kirishibdi. Shaharda kabobpazning do'konida kabob yeb o'tirgan bir bola „Ha“ debdi. Yasovul boladan: „Oting nima?“ deb so'rabdi. Bola:

— Dod, — debdi. Yasovul:

— Dod bo'lmay o'l. Cho'llarda onang „Dod“ deb yig'lab yuribdi, — debdi-da, Dodni otga mindirib podshohnining oldiga olib kelishibdi.

Podshoh niqobdor bolani ko'rishi bilanoq:

— Betingdagi niqobingni och, — debdi. Bola:

— Ey podshohi olam, betimdagi pardani ochtirib nima qilasiz? Qanday gapingiz bo'lsa, ayta bering, — debdi. Podshoh:

— Agar otang bilan o'tinga chiqqan kishilarni chaqirib, otangning o'ligini toptirib bersam, niqobingni ochasanmi? — debdi.

— Niqobimni ochish ixtiyori menda emas, onamda, — debdi bola.

Podshoh onasini chaqirib:

— Bolangning niqobini ochish ixtiyor sonda ekan, niqobini ochsin! — debdi. Onasi podshohga:

— Bu yosh bola bo'lsa, buning yuzini ko'rib nima qilasiz? — debdi.

Podshoh ikki yasovuliga boylarni olib kelishni buyuribdi. Yasovullar boylar oldiga boribdi, ularga siyosat qilib „Podshoh sizni chaqirdi“, deb ikki boyning qo'llarini orqasiga bog'lab, otga mindirib podshohning oldiga olib kelibdi. Podshoh ularning oyoq-qo'llarini yechtirib yerga tushirtiridi. Podshoh ikki boydan:

— Shu bolaning otasini qayerda o'ldirdinglar? Rostini aytsangiz, sizga zulm yo'q, — debdi. Boylar:

„Bizga zulm yo'q ekan“, deb cholni o'ldirganlariga iqror bo'lishibdi:

— Chinor tagida o'ldirdik, chohga tashladik, — deyishibdi. Podshoh:

— Nima sababdan o'ldirdinglar? — deb so'rabdi. Boylardan biri bo'lgan voqeani birma-bir aytib, chuqurda topilgan oltinning hammasini olmoqchi bo'lib, cholni o'ldirmoqchi bo'lganlarini, oxirida cholning: „Meni o'ldiradigan bo'lsalaring, bir vasiyatim bor, borib xotinimga shunday deb aytinlar: eringizning fe'li qursin, bizni ham xafa qildi, o'zini ham xafa qildi. Uch joyda shamoldan yiqilib tushdi. Achchig'idan boshini olib boshqa shaharga ketdi. Keta turib, agar xotinim o'g'il tug'sa, otini Dod qo'ysin, qiz tug'sa otini o'zi bilib qo'ysin“ dedi. Biz „vasiyating shumi“ deb uni o'ldirib, chi-

nor tagidagi chohga ko‘mib, ustiga tegirmon toshi bostirib ketdik. Oltinni uyimizga olib borib, bir yarim xumdan bo‘lib oldik. Cholning xotiniga o‘tinni olib borib berib, cholning vasiyatini aytdik. Shu bilan biz boyib ketdik! — debdi. Ikkinchchi boy:

— Ey podshohi olam, sultoni bokaram, dunyo shirin ekan. Shu ishlarni qildik. Nima zulm qilsangiz, mana, oldingizda turibmiz, — debdi. Podshoh:

— Ikki xum oltin turibdimi? — debdi. „Turibdi“, deyishibdi boylar.

Podshoh:


— Ikki xum tillani olib kelinglar, — deb ikki yasovulga buyuribdi. Yasovullar ikki xum oltinni olib kelishibdi. Podshoh Dodni chaqirib:

— Mana bu bir xum oltin otangning o‘ldirilgani uchun, mana bu bir xum oltin otangning o‘z haqi, ol, rozimisan? — debdi. Dod:

— Men otamning xunidan kechdim. Otamning o‘z haqi — bir xum oltinni bering, boshqasi kerak emas, — debdi. Dod bir xum oltinni ko‘tarib onasining oldiga olib boribdi. Podshoh bir xum oltinni boylarning o‘ziga bo‘lib beribdi. Podshoh Dodni chaqirtirib:

— Otangning o‘ligini topib berdim. Endi yuzingdan pardangni och, ko‘ray! — debdi. Dod:

— Qanday podshohsiz, men yetti yashar bola bo‘lsam, yuzimni ko‘rib nima qilasiz? — debdi. Podshoh „Niqobingni ochmaysanmi?“ — deb qilichini sug‘urib, Dodga hamla



qilibdi. Bola qilichdan qo'rqib, yuzini ochib yuboribdi. Podshoh bolaning yuzini ko'rib otning tagiga yiqilibdi. Bola sarkardalarni chaqirib:

— Ulug'laring behush bo'lib yiqildi. Daryo bo'yiga olib borib hushiga keltiringlar, — debdi. Sarkardalar kelib, podshohni yelpib hushiga keltirishibdi. Podshoh „Dod qayerda?“ deb so'rabdi. Dodni keltirishibdi. Podshoh:

— Ey bolam, qaysi bog'ning gulisan, devmisan, parizodmisan, qanday gavhar donadan paydo bo'lding? — debdi. Dod:

— Mana shu kampirdan bino bo'lganman, — debdi. Podshoh:

— Yetti iqlim podshosi bo'lib, sendek husndorni Ko'hiqofdan ham topmadim. Mening o'g'lim ham yo'q, qizim ham yo'q. Sen menga o'g'il bo'l, olib ketay. Avg'on bog'larimda, saltanat taxtlarimda o'tir, seni podshoh qilay, — debdi. Dod turib:

— Men yetti yashar bolaman, ena sutim og'zimdan ketgani yo'q, o'rdaga loyiq emasman, odamning sarasini ajrata olmayman. Menga shu cho'llarning ixtiyorini bersangiz, men ariq chiqartirib, imorat soldirib, beva-bechoralarga bersam, ming tanob yerni bog' qilib, yetti yilda obod qilsam. O'n to'rt yoshga kirganimdan keyin kelib olib ketarsiz, — debdi.

Podshoh Dodga bir sanoch oltin berib „endi ota-bola bo'ldik“, deb askarlarini, vazir-sarkardalarini, yasovul-yuzboshilarini olib tog'ga kiyik oviga ketibdi.

Dod enasiga qarab:

— Ey onayi mehribonim, sizga shu yerga bir tol yo'g'ochdan kapa qilib beray, siz shu yerda istiqomat qilib turing. Men bir-ikki ming mardikor olib kelay, — debdi. Ertasi bir qancha mardikor olib kelib Qo'qon viloyatidan ariq chiqartiribdi; imorat qildirib beva-bechoralarga beribdi. Yetti yilda ming tanob yerga bog' qildiribdi. Bu bog' Dodning bog'i deb mashhur bo'libdi.

Bog'ni tayyor qilib o'tirganda, podshoh qirqta sarkardasini yuborib Dodni tilla qafasga, enasini kajava savatga solib oldirib kelibdi. Dodning onasiga qirqta zinasi sangi-marvarid toshdan yasalgan ravoq beribdi. Enaga xotin, qirqta kaniz, qirqta cho'ri, qirqta qul uning xizmatini qilibdi. Har kun Dodning enasiga qirqta qo'yning iligidan osh qilib beribdi.

Podshoh Dodga:

— Endi qo'limga tushding, ota-bola bo'ldik, betingdagi niqobingni olib, taxtimga o'tir! — debdi.

Dod:

— Menga onamdan javob olib kelishga ruxsat bering, undan keyin niqobimni ochay, — debdi. Podshoh ruxsat beribdi. Dod onasining yoniga yugurib borib:

— E onam, mehribonim, podshoh „yuzingni och“, dedi. Unda donolar, vazirlar, qirqta sandalnishinlar¹, yasovullar, ponsodlar², yuzboshi-sarkardalar o'tiribdi. Ular oldida yuzimni ochsam, podshohning yana hushi ketib qolsa, biror

¹ Sandalnishinlar — kursida o'tiruvchilar, ya'ni vazirlar.

² Ponsodlar — beshyuzboshilar, amaldorlar.

dushman chiqib podshohni o'ldirib ketsa, men javobgar bo'lib qolmay tag'in, — debdi.

Shunda onasi:

— Ey, Dod bolam, og'zingni och bo'lmasa, — debdi. Dod og'zini ochibdi.

Enasi bir tuflabdi:

— Bor bolam, endi borib niqobingni ochib o'tira ber, — debdi. Dod podshohning sultanat taxtiga chiqib podshohning o'ng tomoniga borib, niqobini yuzidan olib o'tiribdi. Shunda odamlar Dodning husn-jamolini ko'rib tahsin-ofarin o'qib, podshohga: „O'g'lingiz qutlug' bo'lsin“, deyishibdi. Podshoh bular ustidan dur sochibdi. Dod Avg'on bog'iga ov qilish uchun kiribdi. Dodning husnini o'rdaklar, churraqlar tomosha qilib, ketidan yurishibdi. O'rdak, churraqdan qochib tuyaxonaga kiribdi, unda ham karvonlar Dodning husnini tomosha qilishibdi. Undan chiqib ichkari o'rdaga kiribdi, undagi qizlar Dodning husnini ko'rib, uni quvlab ketishibdi. U yerdan ko'cha darvozasiga chiqqan ekan, eshikdagi qirqta shotir uning husnini tomosha qilib quva beribdi. Undan podshohning chillaxonasiga kirib qutulibdi. Chillaxonada bag'rini zaxga berib yotib uxlab qolibdi. Tushida Ko'hiqofdan bir parizod bir qo'lida kabob, bir qo'lida sharob ushlab uchib kelib, sharobni ichirib, kabobni yedirib ketibdi. Podshohzoda cho'chib uyg'onib o'ng tomoniga, so'l tomoniga qarasa, yonida parizod yo'q emish. Dod shikastalik bilan o'rnidan turib qushxonaga kirib, podshohning qushini qo'liga qo'ndiribdi. Chakasni beliga qistirib, kamon, o'q-yoylar-

ni beliga taqibdi, podshohning otxonasiga kiribdi. Tulpor ot ni yetaklab chiqibdi. Unga minib, yor ishqida tog' ichiga kirib ketibdi. Tog'ma-tog', cho'lma-cho'l, ko'lma-ko'l yurib bir tilsimli tog'ga kirib qolibdi. Unda uch kecha-yu uch kunduz yuribdi. Oxirida tog' orasidan bir kiyik chiqib cho'lga qochibdi. Dod kiyik orqasidan quvlab, u ham cho'lga chiqib qolibdi, kiyikni topa olmay yo'l yuribdi. Yolg'iz o'zi cho'lma-cho'l, ko'lma-ko'l, yetti kecha-yu yetti kunduz yo'l yurib, bir daryoning bo'yiga yetibdi. Belidagi chakasni yerga suqib, qushni qo'ndiribdi. Daryo bo'yida dam olib o'tirsa, ro'parasi da sallasining pechi yelkasiga, soqoli ko'ksiga tushgan, qo'li da hassa ushlagan malla to'nli, betidan nur yog'ilib turgan bir mo'ysafid chol paydo bo'libdi. Dod mo'ysafidga salom beribdi. Mo'ysafid:

— O'g'lim Dod, bu tilsim daryosi oldida turmang, bunda devlar bor. Siz oshiqlikning ishqida kelgan ekansiz. Sevgan qizingiz parilardan. Lekin buni olib chiqishning iloji yo'q, — debdi. Dod cholga qarab yig'lab bayt o'qibdi. Cholning rahmi kelib:

— Men topib beray. Ko'zingni yum, yetti damdan keyin och, — debdi.

Dod ko'zini yumib, yetti damdan keyin ochib qarasa, o'zini daryoning narigi tomonida ko'ribdi. Chol:

— O'g'lim, hoy o'sha ko'ringan tanasi zumraddan, shoxi la'l-yoqutdan, bargi zabarjaddan bo'lgan daraxt yonidagi qo'rg'onning ichiga kirsang, unda jami devlar-parilar uxlاب yotganini ko'rasan. Oyog'ing tagida gavhar shamchiroqlar

bo'ladi, unga nazar ko'zingni solmay, undan o'tganingdan keyin, qirq bir hujra bor, unda ham gavhar shamchiroqlar bor, bunga ham qarama. Oxirgi hujraga kirsang, tokchada uchta qovoq turibdi. O'rtadagi qovoqni menga olib kelib ber,— debdi.

Dod cholning aytganiday borib oxirgi hujraga kiribdi, o'rtadagi qovoqni olib kelib cholga beribdi. Chol:

— Ey bolam, sening tushingda ko'rgan yoring shu. Endi ko'zingni yum, — debdi. Birozdan keyin „ko'zingni och!“ debdi. Dod ko'zini ochib qarasa, o'zini oti oldida ko'ribdi. Chol yana: „Sen o'n to'rt kunlik yo'lni bosib kelding, endi men senga bir duo o'rgatay, tez yetasan“, deb unga duo o'rgatibdi. Dod qovoqni qo'llig'iga qisib otiga minibdi. Chol: „O'g'lim, olgin — oldirma, to'lgin — to'kilma, yo'lda hargiz qovoqqa hazil qilma, yana o'z boshingga jabr-u jafoni orttirma“, debdi. Dod yo'lda chol o'rgatgan duoni o'qibdi, bir qancha yo'l bosgach, otining boshini to'xtatib: „Men tushimda parizodni ko'rgan edim. Jodugarga uchrabman. Quruq qovoqni nima qilaman“, deb yerga tashlamoqchi bo'lib ushlaganda, qovoqning ichidan „Voy, nozik badanim“ degan tovush eshitilibdi. Dod darrov tilla qilichini sug'urib olib qovoqni bandidan ochibdi. Qarasa: oy desa og'zi bor, kun desa ko'zi bor, shirindan shakar so'zi bor, o'ng betida chaparasta xoli bor, necha alvonlar kiygan, qirq kokiliga durri javohirlar taqilgan bir parizod qiz o'tiribdi. Yigit parini ko'rib, hushidan ketib yiqilibdi. Parizod uni yelpib hushiga keltiribdi. Dod:

— Bo'yingdan aylanib ketay gavharim, topilmas qimatbaho durri g'altonim.¹ Qaysi bog'ning gulisan, qaysi-chamanning bulbulisan, devmisan, parimisan, ins-jinsmisan, qaysi gavhar donadan paydo bo'lgansan? — deb so'rabdi. Parizod:

— Cholning so'zini qulog'ingizga olmay o'zingizga jabr-jafo orttirdingiz. Endi meni uch xil yo'l bilan uyingizga olib borasiz, — debdi. Dod:

— Zarvaraq to'nimni yopib, zarrin ro'molni parda qilib, otga mindirib olib ketaman, — debdi. Qiz:

— Men otga minishga munosib emasman, soyabon aravaga munosibman, — debdi. Yigit:

— Bo'yingdan aylanay, gavharim. Shahar yaqin qoldi. Shaharga yetganda sizni bir tomga chiqarib qo'yib, otam saroyidan qirqta qiz-juvonlarni aravaga solib kelib, karnay chaldirib olib ketaman. Sakson zinali ravvoqqa qo'yaman. Ravvoqning zinalari marmar toshdan, tepasi qizil marjondan, kunguralari la'l-yog'utdan, — debdi. Malika rozi bo'lib, otning orqasiga mingashib shaharga jo'nashibdi. Shaharga yaqin qolganda bir tomga qizni qo'yib, o'zi shaharga arava olib kelishga ketibdi. Parizod betidagi pardasini ochib atrofga tabassum bilan qarabdi. Bu joyning ro'parasidagi uyda bir kampir turar ekan. U jodugar ekan. Bir yeganda qirqta qo'yning go'shtini yeb, har suv ichganda bir mesh suv ichar, nafasiga bir juvoz aylanar ekan. Shu kampirning

¹ G'alton — yumaloq, katta dur.

uyiga bir yorug‘ shu’la tushibdi. Kampir, „Bu qanday shu’la ekan, bilay-chi“, deb suv oladigan ko‘zasini ko‘tarib, ko‘chaga chiqibdi. Jodugar kampirning ko‘zi parizodga tushibdi. Qiz kampirga salom beribdi. Kampir:

— Ha, onang aylansin, pastga tushib shu ko‘zada ariqdan suv olib ber, — debdi. Qizning achchig‘i kelib:

— Men sizning cho‘ringiz emasman, — debdi. Kampir:

— Sen menga suv olib bergani buloq boshiga borsang shu’lang suvga urib qolsa, men shu shu’lang yorug‘ida charx yigirib, ovqat qilarman, degan edim, — debdi. Parizod kampirga:

— Men parizodman, bir dumalayman ilon bo‘laman, bir dumalayman kaptar bo‘laman, bir dumalayman kampir bo‘laman, — debdi.

Kampir:

— Bunchalik hunaring bo‘lsa, qani kaptar bo‘l-chi, — debdi. Parizod bir yumalab oyog‘i qizil marjondan, qanoti la‘l-yoqutdan, tumshug‘i zabarjaddan bir kaptar bo‘libdi, yana yumalab qadimgi asl holiga kelib, parizod bo‘libdi.

— Meni Dod qancha mashaqqatlar bilan topib olib keldi. Siz menga suv olib ber, deysiz, — debdi.

Kampir, „Qo‘y, olib bermasang o‘zim olaman“, deb zarda bilan ko‘zasini ko‘tarib buloq boshiga ketibdi. Malikaning kampirga rahmi kelib:

— To‘xtang, ona, men o‘zim olib beray, — deb kampirning orqasidan boribdi. Kampirning qo‘lidan ko‘zasini olib,

buloqdan suv olayotganda, kampir kelib qizning orqasidan bir tepibdi. Qiz suvgaga tushib, g'oyib bo'libdi. Kampir ko'zasi ni yerga urib sindirib tomga chiqibdi. Qizning zarrin ro'molini yuziga parda qilib o'tiribdi. Birozdan keyin Dod besh yuz sarkarda, qirq qiz-juvon bilan har xil o'yinlar qilib kelib qolibdi. Kelib qarasa, qizning ornida ko'zi chaksa guruch damlaydigan qozonday bir kampir o'n to'rt kishilik joyni egallab o'tirgan emish. Yigit yuzini ochib qarabdi, qo'rqqandan o'zini pastga tashlab yuboribdi.

Sarkardalar Dodning yuziga suv purkab hushiga keltirishibdi. „Ey podshohzoda, sizga nima bo'ldi?“ deb so'rashibdi. Dod ularga kampirning ta'rifini aytishga nomus qilib, o'rnidan irg'ib turib, kampir oldiga borib:

— Sen o'sha parizodmisan yo o'zgamisan? — debdi.
Kampir:

— Men o'sha siz olib kelgan parizodman, — debdi.
— Bo'lmasa, yana yuzingni ko'ray, — debdi. Kampir:
— Men sizga hozir yuzimni ko'rsatmayman, qachon meni nikohingizga olasiz, mendan bir o'g'il ko'rasiz, shu o'g'il yetti yoshga kirganda otangiz to'y qilib beradi, shu kuni yuzimni ko'rsataman. Ungacha yuzimni ko'rsatmaslikka qasam ichganman. Menda hali hunar ko'p: bir yumalayman kaptar bo'laman, bir yumalayman ilon bo'laman, bir yumalayman kampir bo'laman, bir yumalayman tag'in parizod bo'laman, mana, hozir bir yumalab kampir bo'ldim, — debdi. Dod:

— Bir yumalab ilgarigi parizod bo'ling, men sizni podshoh saroyiga olib boraman, — debdi. Kampir:

- Xohlasangiz shu, xohlamasangiz ko'k kaptar bo'lib Ko'hiqofga uchib ketaman, — debdi. Dod o'yab turib:
 — Yetti yil kutish yigit kishiga nima gap, aravaga tu-shing! — debdi.

Kampir:

— Aravaga o'zingiz ko'tarib soling! — debdi. U kampirni ko'taraman deb yetti yumalab ag'darilib tushibdi. Enaga xotinlar ko'plashib podshohzodani ko'tarib olishibdi. Kampir podshohzodaga: — Otni o'zingiz minib oling, — debdi. Dod otga minib „chuv“ deb bir qamchi urishi bilan, quduqning ichidan bir qora ot chiqib, uning oldiga kelib gir-gir aylana beribdi. Shu yerdagi odamlar otni ko'rib ofarin qilibdi. Dod o'zi mingan otdan tushib, quduqdan chiqqan otning bo'yini dan quchoqlab silay beribdi. Kampir buni ko'rib:

— Bu otni chiqarib, quduqdan chiqqan qora otni arava-ga qo'shing! — debdi. Enagalar qora otga tilla yuganlar kiy-gizib, aravaga qo'shibdi. Podshohzoda otga minib bir qam-chi urib o'rdaga ketibdi. Har qirq odimni bir odim qilib o'rdaga yetibdi. Podshoh bularga durri gavharlar sochibdi. Qiz-juvonlar o'lan aytishib kelishib, kelinni ravoqning te-pasiga olib chiqib ketishibdi. Kampir zarrin ro'molni yuziga parda qilib, chimildiqning ichida yuzini ko'rsatmay o'tiribdi. Dod quduqning ichidan chiqqan otni yakka qoziqqa boylab qo'yibdi. Ot suvlig'ini chaynab turibdi.

Podshohzoda ot oldidan keta olmay otning betidan, ot Dodning betidan yarim kechagacha silab chiqibdi. Kampir

kanizaklarga aytib podshohzodani chaqirtiribdi. Dod kam-pirning oldiga salom berib kiribdi. Kampir turib:

— Ey podshohzoda, yo o'sha qora otni deng, yo meni deng. Bo'lmasa ko'k kaptar bo'lib uchib ketaman, meni de-sangiz vaqtliroq nikohingizga oling, farzand ko'rishning or-zusini qiling, — debdi.

Podshohzoda kampirdan bu so'zni eshitib, qo'liga zarrin ro'molcha olib zor-zor yig'lab, otasining sultanat taxtiga chiqibdi.

Podshoh o'g'lining holini ko'rib:

— Sizga kim zulm, alam yetkazdi. Zulm yetkazganlarni olib kelib kallasini olib, kallani minoraga uraman, — debdi.

Podshohzoda:

— E podshoh, men Ko'hiqofdan bir qovoq olib kelayotib, yo'lda ochdim. Ichidan bir qiz chiqdi. Shaharga kirganda uni bir tomga qo'yib o'zim o'rdadan soyabon arava olib kelgu-nimcha, qizning ornida bir kampir paydo bo'lib qolibdi. Ke-lib yuzini ochib qarasam, ko'zi chaksa guruch damlaydigan qozonday bir kampir o'n to'rt kishilik joyni egallab o'tiribdi; bu kampir bir yumalayman kampir bo'laman, bir yumalay-man ilon bo'laman, bir yumalayman ko'k kaptar bo'lib, o'n sakkiz ming olamni aylanib kelaman, bir yumalayman pari-zod bo'laman, deydi. Men kampirga: „Yana parizod bo'ling, do'st-dushmanning oldida men sizni qanday qilib shu holim-gizda o'rdaga olib boraman“, dedim. Kampir: „Men huşnimni ko'rsatmaslikka qasamyod qilganman, meni shu holim-

cha nikohingizga olasiz, o'g'lingiz yetti yashar bo'lib, otangiz to'y qilib bergen kuni asli husnimni ko'rsataman. Xohlama-sangiz bir yumalab ko'k kaptar bo'lib, Ko'hiqofga uchib keta-man“, deydi. Endi men yig'lamay kim yig'lasin. Uni asli parizodligida yaxshi ko'rib qolgan edim. Yo'lda bir quduqdan qora ot chiqib gir-gir aylanib turdi. Otdan tushib qora otni quchoqlab silay berdim. Jami odamlar otni ko'rib tahsin qilishdi. Shunda kampir ilgarigi otni aravadan chiqarib quduqdan chiqqan otni aravaga qo'shtirdi. Ot qirq odimni bir odim qilib o'rdaga yetkazdi. Kelgandan keyin ham ot bilan o'ynab tursam, kampir chaqirib „Tezda nikohingizga oling“, dedi. Men qanday qilib bu kampirni nikohimga olaman, har kim sevganini oladi-da, — debdi.

32

Podshoh aytibdi:

— Ko'p xafa bo'lman, bir ilojini qilarmiz. Rasmi parizodlar duo o'qib har turga kira beradi, o'g'lim. Bir iloj qilib o'g'il ko'rishga harakat qiling! — debdi. Podshoh qirq kecha-yu qirq kunduz to'y-tomosha qilib nikoh o'qitibdi.

Podshohzodani mast qilib kampirning oldiga kirgizishibdi. Podshohzoda ertasiga yana qora ot yoniga chiqib, bo'ynidan quchoqlab silay beribdi. Bir oxurga sharbat, bir oxurga shakar to'kib beribdi. Oylardan oy o'tib kampirning haligi qora otga bosh'i qorong'i bo'lib qolibdi. Podshohzodani chaqirib:

— Qassobni olib kelib, shu qora otni so'ydirib bering. Go'shtini kabob qilib yeyman, — debdi.

Podshohzoda noiloj, qassobni chaqirtirib kelib:

— Shu otni so‘yib bering, — deyishi bilan qassobning qo‘lidan pichog‘i bilan boltasi tushib ketibdi. Qassobning ko‘ziga ot parizod bo‘lib ko‘rinibdi.

— Taqsiri olam, bu ot emas, parizod-ku. Men bu otni so‘ya olmayman, men o‘z jonimdan qo‘rqaman, — deb qassob qaytib ketibdi. Xizmatchilar yana boshqa qassobni olib kelishibdi. Podshohzoda qassobga:

— Shu otni so‘yib bering! — debdi. Otni ko‘rishi bilan bu qassobning ham qo‘lidagi pichog‘i bilan boltasi tushib ketibdi, o‘zi behush bo‘lib yiqilibdi.

Qassob o‘rnidan turib:

— O‘rdangizda shunday bir parizod yursa, shuni so‘y-dirmoqchisiz, jinni bo‘ldingizmi? — debdi. Podshohzoda: „Bu nima gap, mening oldimga jinni qassoblar keladi. Ikkovi ham bu otni parizod deb so‘ymadi“, deb qassobga qarab:

— Shu otni qanday qilib bo‘lsa ham so‘yasiz! — debdi.
Qassob podshohzodadan qo‘rqib:

— Men otni so‘ysam, boshimga kelgan balolarga balogardon bo‘lasizmi? — debdi.

Podshohzoda:

— Albatta, balogardondirman, — debdi. Qassob „Qanday qilay, hukmi podshoh vojib ekan“, deb otning oyog‘iga arqon solishi bilan ot o‘zi beozor yiqilibdi. Qassob otning bo‘yniga pichoq tortibdi. Otning bo‘ynidan uch joyga uch tomchi qon sachrabdi. Shu uch tomchi qon o‘rnidan uch tup terak ko‘karib chiqib, har biri besh qulochdan bo‘libdi.

Kampirning oldidan bir kaniz chiqib:

— Otning jigaridan berar ekansiz, — debdi. Qassob jigarni olib beribdi. Qassob bir yon nimtasini teridan ajratayotganda yana bir kaniz chiqib:

— Otning bir sonini berar ekansiz, — debdi. Shunday qilib kampir otning go'shtini yeb tamom qilibdi.

Podshohzoda otidan ajralganiga xafa bo'lib, yig'lab taxtiga chiqibdi. Oylardan oy o'tib, to'qqiz oy, to'qqiz kun, to'qqiz soat, to'qqiz daqiqadan keyin bir o'g'il tug'ilibdi. Bolani beshikka belaydigan bo'lishibdi. Kampir podshohzodani charqirib:

— Bolangizni beshikka belashadi. Shu teraklarni kesib, mana bu ravoqning to'rt tarafidan to'rt eshik va bir beshik qilib bering, — debdi. Podshohzoda daraxtni kestirib eshik ham, beshik ham qildirmoqchi bo'lib usta chaqiribdi. Usta kelib, daraxtlarni ko'rishi bilan arra, teshasi qo'lidan tushib ketibdi.

— Ey podshohzoda, bular parizod-ku, o'rdangizda shu uch parizod yashasa nima qiladi? — debdi. Podshohzoda:

— Kessangiz ham kesasiz, kesmasangiz ham kesasiz! — debdi.

Usta turib:

— Boshimga tushgan balolarga giriftor bo'lsang kесай, — debdi. Podshohzoda qabul qilibdi. Shunda oltita arrakash uch terakka arra qo'yibdi. Teraklar beozor o'zлari yiqila beribdi. Daraxtlardan taxta tilibdi; beshik yasaydigan beshik yasabdi, duradgorlar eshik yasabdi, eshikni kampirning ravog'iga olib chiqib qurib beribdi. Duradgorlarga bir

dona gavhar beribdi, ular chiqib ketibdi. Beshikni olib kelib, bolani yo'rgaklab, beshikka solib, ustidan durlar sochibdi. Bolani beshik siqib o'ldiribdi. Kampir dod deb yig'lab, qo-chib chiqmoqchi bolganda, eshik kampirni siqib qolibdi. Dod kelib kampirni ajratib olibdi. Dod beshikdan bolani ko'tarib chiqib kelayotganda enagalar unga:

— Ey podshohzoda, hali yoshsiz, ko'p bola ko'rasiz, olikni ko'targaningiz bilan tiriladimi? Qora kigizni yuvgan bilan oqaradimi? — deb bolani qo'lidan tortib olishibdi.

Dod ko'z yoshini oqizib, tashqariga chiqib ketibdi. Eshikdan chiqsa, bir qalandar turgan emish. U qalandar ga chontagidan bir dona dur olib uzatibdi. Qalandar durni olmay aytibdi:

— Ey, podshohi a'zam, shu tarasha, shox-shabbalarni menga bersangiz, men uni yoqib, haqingizga duo qilsam, — debdi. Dod:

— Ol, yoqaver, — deb qalandarga besh arava shox-shabba, tarashalarni in'om qilibdi. Qalandar ularni yig'ishtir-moqchi bo'lib turganda shox-shabba, tarashalar osmonga ko'tarilib uchib ketibdi. Podshohzoda bilan qalandar hayron bo'lib qolibdi. Qalandar o'z yo'liga ketibdi. Uyiga kelsa, o'zining chaldivori o'rniда qirq zinali katta saroy paydo bo'lib qolibdi. Qalandar saroyni ko'rib, hushidan ketibdi; yana hushiga kelib o'z uyini aniqlash uchun qo'shnilarinikiga kiribdi.

Qo'shnisining uyida besh kishi o'tirgan ekan. Qo'shnisi qalandarni ko'rib:

— Uying boshingni yesin. Uyingni dev-parilar bosib ketdi, — jonomizni hovuchlab o'tiribmiz, — debdi. Qalandar uyidan xabar olay deb ichkariga oyoq uchi bilan kiribdi. Qarasa, ravoqning tepasidan bir parizod ikki dev bilan tushib kelyapti. Parizod uyning egasi qo'rqib kira olmay turganini ko'rib, devlarga javob berib yuboribdi. Parizod qalandarni uyg'a taklif qilib:

— Ey mehribon ota, kiravering, shu joy, shu davlatlar sizniki, endi shunga loyiq ust-bosh kiying, — deb bir bo'xcha zarrin kiyimlar berib kiyintiribdi. Qalandar davlatli bo'libdi.

Kunlardan bir kun qiz qalandarga:

— Ey ota, ichkari kirib sandiqni oching, undagi durrigavharlardan olib sarf qilib mamlakatga osh bering. Podshohlarni ham chaqiring, podshohzoda Dodni ham chaqiring. Har qaysisiga zarvaraq to'nlar kiygizib yuboramiz, — debdi.

Qalandar qirq kunlik xarajatni uch kunda tayyor qilibdi. Qirqta doshqozon quribdi. Avg'on bog'da qirq kecha-yu qirq kunduz tuynugidan tutun chiqarmaydigan kambag'algacha osh beribdi. Podshoh „gadoynikiga boramanmi?“ deb kelmay, qirqta sarkardasi bilan podshohzoda Dodni yuboribdi. Podshohzoda zar-saltanat bilan kelibdi. Qalandar qiz oldiga kirib:

— Qizim, podshohning o'zi kelmadi, shahzoda qirqta sarkardasi bilan keldi, — debdi.

Qiz:

— Podshoh kelmasa ham mayli. Ziyofatni katta qiling. Mehmonlarga yetti iqlimga arziyidigan kiyimlar kiygizing. Podshohzodaga shohona libos kiygizing, chiqib ketish oldida imoratlarni tomosha qildiring, keyin podshohzodani mening ravog‘imga olib chiqing, — debdi.

Qalandar podshohzodaga imoratlarni tomosha qildirib-di. Qizning ravog‘iga olib chiqibdi. Parizod necha alvon kiyimlar kiyib, o‘ziga oro berib o‘tirgan ekan.

Podshohzoda bilan parizod bir-birlariga salom berib, ik-kisi ham hushlaridan ketib qolibdi. Podshohzoda hushiga kelib parizodga qarab, uni sevib, sahrolarda kezib yurganlanini, yuragi zardobga to‘lganini aytib bayt o‘qibdi.

Parizod:

— Ha, podshohzoda, kalla deb qovoqni kiyib olgan ekansiz-da. Bitta jodugar kampirning so‘ziga kirib, bola qilganingizga rahmat. Quduqning ichidan chiqqan qora ot men bo‘laman, bilmay aravaga qo‘sdingiz. Qirq odimni bir odim qildim. Qora otni jodugarga so‘yib bergenningizda uch terak bo‘lib ko‘karib chiqdim. Beshik bilan eshik qildirdingiz, beshikdagi bolani qisib o‘ldirdim, eshikda kampirni siqqanimda ajratib oldingiz — bilmadingiz, uyalganimdan qo‘yib yubordim. Bolaning dog‘ini tortib, ko‘zdan yosh oqizib tashqariga chiqdingiz. Qalandar keldi, shox-shabbani unga in’om qildingiz. Shox-shabba o‘zicha yig‘ishtirilib osmon-ga chiqib ketib, qalandarning hovlisiga tushdi, — deganda, Podshohzoda:


— To'xtang, malikam, bundan ortiq menga gap yo'q, — deb o'qday otilib pastga tushibdi. Otiga minib o'rda ga kelibdi. Kampirning oldiga kirib:

Ha, jodugar, qani, hunaringni ko'rsat, kaptar bo'lib ko'r-chi, — debdi. Kampir:

— Men hali hunarimni ko'rsatmayman. Hali tag'in o'g'il ko'raman, shuning to'yida ko'rsataman, — debdi. Podshohzoda kampirning bosh yuvib o'tirgan joyidan sochidan burab pastga olib tushibdi. Jallodlarni keltirib kampirni bir enlikdan qirqib tashlatibdi. Podshohzoda otasi oldiga chiqib:

— E ota, mehribonim, suyunchi bering, yorimni topdim, — debdi. Podshoh darhol karnay-surnay chaldiribdi. Dod qirqta soyabon aravaga qiz-juvonlarni solib, o'yin-kulgilar bilan yorini olib kelibdi. Qirq kecha-kunduz to'y qilib, Dod parizodga uylanibdi. Podshoh Dodni o'z o'rniga podshoh qilibdi. Murod-maqsadga yetibdi.

BOLA — PODSHODIR



tgan zamonda bir podsho:

— Dunyoda mendan ham zo'r odam bor-mi? — deb Jiyroncha chechan nomli kishiga ay-tibdi. Jiyroncha:

— Ey, taqsir, dunyoda sizdan ham zo'r odam bor, men topib beraman, — debdi. Podsho:

— Topib bera olmaysiz, dunyoda mendan zo'r odam yo'q. Istagan odamimni o'ldiraman, zindon qilaman, — debdi. Shunda Jiyroncha chechan podshoning kichik o'g'lini ko'tarib otasining oldiga qo'yibdi. Bola otasiga:

— Ota, suv! — debdi. Podsho tura solib suv olib kelib beribdi.

Jiyroncha chechan kulib o'tiraveribdi. Bir vaqt bola:

— Ota, sut bering! — debdi. Sut keltiribdilar. Bola:

— Ota, aralashtirib bering! — debdi. Podsho suvni sutga aralashtirib beribdi. Bola:

— Ota, suvni sutdan ajratib bering! — debdi. Shunda podshoning jahli chiqib:

— Sutni suvdan qanday ajratib bo'ladi? — debdi. Bola yig'lab, xarxasha qila beribdi. Shunda Jiyroncha podshoga qarabdi. Podsho:

— Haqiqatan, bola mendan ham zo'r podsho ekan! — debdi.

PODACHINING QIZI

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonda uzoq yurtda bir podachi bor ekan. Uning xotini ancha vaqt kasal yotib, axiri o‘libdi-da, yolg‘izgina bir qizi yetim qolibdi.

Podachi bir tul xotinga uylanibdi, ikkinchi xotin bir qiz ergashtirib kelibdi. Yetim qizga o‘gay ona hadeb zulm qilaveribdi, yetim qizning rang-ro‘yi za‘faronday sarg‘ayib ketibdi. Ona o‘z qiziga kunda yog‘liq non berar ekan-da, o‘gay qizga qotgan non berib, og‘ir-o‘g‘ir ishlarni buyurar ekan.

Yetim qizga onasidan bir sigir, bir xo‘roz va bir tovuq qolgan ekan.

O‘gay ona har kuni: „Bir savat paxtani yigirib, sigirni boqib kel!“ deb qizni dalaga haydab yuborar ekan. Qiz charxni oldiga olib, qattiq nonni sovuq suvga ivitib yeb, o‘gay ona aytgan ipning yarmisini ham yigirolmay kelar ekan. O‘gay ona qiz sho‘rlikning sochlardan tortib urar ekan, a’zoyi badanini o‘ymalab, ko‘kartirib yuborar ekan. Otasi ham keyingi xotining gapiga kirar ekan. Qiz bir kun dalada sigirini o‘tlatib qo‘yib, o‘zi charx yigirib o‘tirsa, birdan qattiq shamol turibdi-yu, paxtasini uchirib ketibdi. Qiz uni ushlab olaman deb yugurib ketaveribdi, lekin tutolmabdi. Oxiri paxtani shamol tog‘ bag‘ridagi bir g‘orga olib kirib ketibdi. Qiz g‘orning



ichiga kirsa, oppoq sochli kampir o'tirgan emish. Qiz darhol ikki qo'lini ko'ksiga qo'yib:

— Assalomu alaykum, buvijon! — debdi.

— Vaalaykum assalom, kel, qizim, kel! Xo'sh, nima kulfat tushdi boshingga? — deb so'rabdi kampir.

Qiz boshidan kechirgan hamma voqeani kampirga birma-bir aytib beribdi.

Shunda kampir:

— Ey, bolam, xafa bo'lma, o'gay onangning bergen paxtasini sigirga yedir, keyin sigirning yelinidan iplarni tortib o'rib olaver! — debdi va qizning boshini silab turib:

— Agar boshingga biror kulfat tushsa menga kel, mushkulingni o'zim oson qilaman, — debdi.

Qiz sevinchini ichiga sig'dirolmay, tezda sigir oldiga boribdi, paxtani sigirga yedirib, yelinidan sut sog'ganday ipni tortib olaveribdi. Bir tekis ingichka ip chiqaveribdi. Bir nafasda bir necha kalava ip sog'ib, o'gay onaning oldiga kelsa, u:

— Muncha kech kelding?! Bor, sigirning tagini tozala, hovlini supur! — deb o'dag'aylabdi.

O'gay ona kunda-kunda necha savat paxta bersa ham, qiz bechora hammasini silliq qilib, ipga aylantirib kelaveribdi. O'gay ona bunga chidayolmay poylabdi, qarasaki, voqeal haligidek emish.

Bir kuni kechqurun eri ishdan kelganda:

— Adasi, hademay qish kiradi, mening mol go'shti yegim kelyapti, iloji bo'lsa sigirni so'yib bersangiz, — debdi.

Laqma eri „Xo‘p“ deb sigirni so‘yib, go‘sht-yog‘ini saran-jomlabdi. Yetim qiz sho‘rlik yig‘lab-yig‘lab g‘ordagi kampir oldiga yana boribdi. Shunda kampir qizning boshini silab turib:

— Yig‘lama, bolam, hechqisi yo‘q! Uyingga borib sigiringning suyaklarini, terisini, dum va shoxlarini yig‘ib, bir joyga ko‘m. Payti kelganida kuningga yaraydi, — debdi.

Qiz kampirning aytganlarini qilibdi. Bir kun o‘gay ona o‘z qizini rosa yasatib, mehmonga olib ketibdi. O‘gay qizning oldiga bir xalta guruch bilan bir xalta moshni aralashtirib:

„Men kelguncha mana shu mosh bilan guruchni bir-biridan ajratib qo‘y“, deb qizning boshiga bir musht urib, eshikni ustidan qulflab ketibdi. Qizning onasidan qolgan haligi bitta tovug‘i bilan bitta xo‘rozi kelib, yig‘lab o‘tirgan qizga yordam beribdi: bir nafasda moshni moshga, guruchni guruchga ajratibdi. Qiz quvona-quvona kampir oldiga boribdi. Kampir qizning boshini silab:

— Bolam, qizlarimdan to‘rttasini senga qo‘shib beray. Sen ular bilan yurt podshosining to‘yiga borgin, ko‘mib qo‘ygan suyak, teri, dum va shoxlarni ochib qara-chi, nima sir ko‘rar ekansan, — debdi. O‘sha onda to‘rtta qiz paydo bo‘lib, kampirga salom beribdi. Podachining qizi ular bilan birga uyi-ga borib, ko‘mib qo‘ygan narsalarini ochib qarasa, sigirning terisi bir libos bo‘libdiki, tilla tugmalar qadalgan, yalt-yalt tovlanarmish. Sigirning tuyoqlari bir g‘alati kavush bo‘libdiki, xuddi qoshiqqa o‘xsharmish; suyaklari esa dўr, gavhar, marjon bo‘lib qolibdi. Haligi qizlar olib kelgan ko‘ylaklarni,

libos, kavushlarni qizga kiydirib, ro'mol o'ratib, gulob bilan yuzini yuvganlarida qiz o'n to'rt kunlik oydek bo'lib, uning husn-jamoli haligi qizlar husnidan yuz chandon oshib ketibdi. U qizlar podachining qiziga cho'ri bo'lishib, to'yga bori-shibdi.

To'y egasi „Allaqaysi yurt podshosining qizi keldi“, deb o'ylab, qizni uyning to'riga o'tkazibdi. Qizning o'gay onasi ham to'yga borgan ekan, poygakda qolib ketibdi. Ziyofat juda quyuq bo'libdi, qand o'rniliga novvot, suv o'rniliga sharbat tortilibdi. Ziyofat o'tgandan keyin qiz dasturxonadagi meva-chevalarni o'gay onasiga uzatibdi. O'gay ona, qizni tanimay, suyuna-suyuna ovqatlarni olib qaytibdi. Qiz ko'p izzat-hurmat bilan to'ydan chiqibdi, uyiga tez borish uchun shoshilibdi, shoshilganligi sababli oyog'idan bir poy kavushi tushib qolibdi. O'gay onasi borguncha, hech narsani ko'rma-gandek, uyga kelib o'tiribdi.

Bir vaqt o'gay ona o'z qizi bilan uyga kelib, o'gay qiziga maqtanibdi:

— Biz ajoyib tomoshalarni ko'rdik, quyuq ziyofatda bo'ldik, bir podshoning qizi keldi, oy desa og'zi bor, kun desa ko'zi bor, shirin-shakar so'zi bor, o'z oldidagi xilma-xil ovqatlarni bizga berdi. Sen nima qilib o'tiribsan, qo'yib ketgan mosh-guruchlarni nima qilding?

Qiz bir xalta mosh, bir xalta guruchni onasi oldiga olib chiqib qo'yibdi. Buni ko'rgan o'gay onasining dami ichiga tushib ketibdi.

Podshoning to'yini o'tkazib kelayotgan kampirlardan bittasi yo'lda botqoqqa botib qolgan chiroyli kavushning bir poyini topib olibdi.

„Bu qanaqa kavush bo'ldi, umrimda bunday chiroyli, bejirim kavushni ko'rmagan edim“, deb to'ppa-to'g'ri podshoning oldiga oboribdi.

Podshoning ko'ziga kavush yaxshi ko'rinish:

— Shu kavushning egasi juda chiroyli qiz bo'lsa kerak. Kim bo'lsa ham o'shani olaman, yurt-u olamni qidirib, shu kavushning egasini topinglar! — debdi.

Ikki kampir uyma-uy yurib, haligi kavushni har bir qizga kiygizib ko'ribdi: hech qaysisining oyog'iga to'g'ri kelmiabdi.
Podsho „Endi kimning uyi qoldi“, deganda „Falon podachining uyi qoldi“, deyishibdi.

Podsho:

— Podachining uyiga boringlar! — debdi. Kampirlar podachining uyiga kelishi bilan o'gay ona yetim qizni tandirga qamab, tandir og'zini berkitib qo'yibdi. O'z qizini yasatib kampirlarga ro'para qilibdi. Kavushni qizga kiygizmoqchi bo'lishsa, oyog'inining uchi ham sig'masmish. Buni ko'rgan onasi kalovlab qolibdi.

Kampirlar endi ketaylik deb turganda, tovuq bilan xo'roz tandir boshiga chiqib: „Bibi, bibi, munda“, dermish. Kampirlardan bittasi „Tavba, tovuq ham gapiradimi? Tandirda bir gap borga o'xshaydi“, deb uni ochib qarashsa, bir qiz o'tirgan emishki, go'yo hur-paridek. So'ngra uni tandirdan chi-

qarib olib, kavushni kiygizib ko'rishsa, oyog'iga loppa-loyiq kelibdi.

Kampirlar podsho oldiga borib: „Suyunchi, suyunchi!“ deyishibdi va „Shunaqa bo'yи tolma, ikki yuzi olma, og'zi angishvonadek mahpora qizga loyiқ keldi“, deb qizni ta'rif qilishibdi. Podsho har ikkala kampirga bosh-oyoq sarpo beribdi, to'y harakatiga tushibdi. O'gay onaning joni halqumiga kelib, xo'roz bilan tovuqning boshlarini uzib tashlabdi.

To'y yaqinlashgan sari o'z qizini parvarish qilaveribdi. O'gay qizning ikki ko'zini o'yib, o'zini qamishzor to'qayga tashlabdi va uning o'rнига o'z qizini uzatib boribdi. Podsho qarasa, qiz judayam xunuk emish.

Bir bo'zchi chol to'tilarga naycha qilish uchun to'qayga borsa, bir qiz muk tushib yig'lab yotgan emish. Chol borib:

— E, bolam, nima bo'ldi senga, nega yig'laysan? — deb so'rabdi. Shunda qiz voqeani birma-bir aytib beribdi.

Cholning qizga rahmi kelib:

— Bolam, menda na og'il, na qiz bor. Uyda birgina kampirim bor, u boyaqish charx yigirib ip qilib beradi, men bo'z to'qiymen, shu bilan kun ko'ramiz. Endi sen menga qiz bo'lgin, yolg'izlik kampirning ham joniga tekkan, — debdi.

Qiz rozi bo'libdi. Keyin chol qizni yetaklab uyga olib boribdi, kampir xursand bo'libdi. Qiz kulta og'zidan guldasta, yig'lasa ko'zidan dur to'kilar ekan.

Kunlardan bir kun kampir bir qiziq narsa gapirgan ekan, qiz qah-qah urib kulib yuboribdi, shunda og'zidan guldastalar to'kilibdi.

Qiz cholga qarab:

— Otajon, mana shu gullarni savatga terib, podsho qasri oldidan o'tavering. „Gul keldi!“ „Gul keldi!“ deng. Agar podsho xotini chiqib, „Gulingizni sotasizmi?“ desa, „Ko'zga alishaman!“ deng, — debdi.

Chol qiz aytganiday qilib, „Gul kelde-e-e! Gul kelde-e-e!“ deb o'taversa, podshoning xotini uni chaqirtirib so'rabdi:

— Guling necha pul?

— Gulimni pulga sotmayman, ko'zga alishaman, — debdi chol.

Podshoning xotini yetim qizning sandiqda saqlagan ikki ko'zini cholga chiqarib beribdi. Kechasi qiz ko'zlarini o'rniga solib uxbab yotsa, g'or ichidagi kampir kelib, qizning ko'zlarini tuzatibdi. Qiz uyg'onsa, ko'zi chiröqdek ochilib ketibdi, hamma yoqni dur bosibdi. Kulgan sari og'zidan gul-dasta to'kilarmish.

Chol kunda savat-savat gullarni, durlarni sotaverib, bo'yib ketibdi. Oltindan qo'rg'onlar yasab, cho'l-biyobonlarga suv chiqaribdi. To'qaylarni gulistoniga aylantirib yuboribdi.

Bir kuni o'sha yurtning podshosi ovga chiqibdi. Qaras, cho'l-biyobonlar obod bo'lib, tog' tepasida mustahkam qo'rg'onlar paydo bo'lgan emish. Ilgarigi oy joylarida bulbular, to'tilar, qumrilar sayrashayotgan emish. Podsho odamlardan:

— Bu yerni kim obod qildi? —deb so'ragan ekan, kishilar:

— Bo'zchi cholning qizi obod qildi, — deb javob berishibdi.

Podsho „Shu qizni bir ko'rsam, o'lsam ham armonim yo'q edi“, deb kecha-kunduz orzuda bo'libdi.

Qiz bir kun dugonalari bilan ovga chiqibdi. Shu kuni podsho ham yolg'iz ovga chiqqan ekan. Ular daryo yoqasida uchrashib qolibdilar. Shu payt shamol kelib qizning yuzidan pardani ko'taribdi. Podsho qizni ko'rishi bilan hushidan ketib, otdan yiqilibdi. Qizlar podshoni saroyga olib boribdilar. Qiz podshoga:

— E, podsho, agar loyiq ko'rsangiz, vazirlaringiz, qirqta yigitningiz va uy ichingiz bilan biznikiga mehmon bo'lib kelsangiz, — debdi.

48 Podsho rozi bo'libdi. Oradan ko'p o'tmay vazir-u vuzarolari va navkarlari bilan qiznikiga mehmon bo'lib kelibdi. Qiz ularning tagiga yetti qavat ko'rpacha solibdi. Qirq qo'yni so'ydirib, turli noz-ne'mat bilan ularni kutib olibdi. Yarim kecha bo'lganda yuziga yetti qavat parda tutib, dutor chalib, boshidan o'tganlarni birma-bir aytib beribdi. Keyin yuzidan pardani olib tashlabdi. Podsho bu gaplarni eshitib voqeaga tushunibdi, berahm qaynonasi bilan xotinini o'limga buyuribdi.

El-yurtga to'y berib, podachining qiziga uylanibdi. Yaxshi yashab, yaxshi oshab, murod-maqsadlariga yetishibdi.

TO'QQIZ DANGASA

B

ir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda o'nta aka-uka qarindoshlar bor ekan. Ularning to'qqiztasi dangasa, bittasi abjir, hammasining kasbi aravasoz ekan.

To'qqiz dangasa shahar bozorining o'rtasida, bir abjir bo'lsa shaharning bir chetida yashar ekan. Shahar o'rtasida yashovchi dangasalar kamhafsalalikdan bir kunda bir aravani zo'rg'a yasar ekanlar. Shahar chetida yashovchi bir abjir bo'lsa, bir kunda to'qqizta arava yasar ekan.

Kunlar o'taveribdi. Bozordagi xalq to'qqiz dangasa yasa-gan arava yomon, deb, bir abjir yasagan aravalarni juda yaxshi, deb maqtar ekanlar. Bu maqtov og'izdan og'izga ko'chib, birga ikki qo'shilib, abjir aravalalarining narxini oshirib, dangasalarning aravalari narxini pasaytiribdi. Borib-borib oxiri dangasalarning aravasiga xaridor topilmay qolibdi.

To'qqiz aravasozning boshi qotibdi. Ular xayolga cho'mib-dilar. Kunlarning birida dangasalar boshlarini quyi solib, bellarini bukib arava sozlayotganlarida, ulardan biri sheriklari-ga qarab:

— Topdim!.. — deb qichqirib yuboribdi. To'rt dangasa mix qoqqancha, uchtasi g'ildirakni, bittasi to'qmoqni ko'targanicha qotib qolibdi.

— Hozir borib abjirni ishga solaman, ishimizni maqtayman, — debdi haligi. — Har birimiz kuniga to'qqiz aravadan, to'qqizovimiz sakson bir arava yasaymiz, deyman, pulimiz ko'pligidan nima qilishimizni bilmay qoldik, seni sherik qilishni lozim topdik, yur biznikiga, bu yerda ter to'kib, kulfat tortib yurma, ukamizsan, bizning uyga borib oyog'ingni uzatib yot, deb aytaman. U ko'nadi, o'zim bilan birga olib kelaman, bir necha kun bizda turadi. Bu vaqt ichida aravalarimizni pullab olamiz.

— To'g'ri aytasan, — debdi ikkinchi dangasa, — abjir yasagan aravalarni ham o'zimiz chiqarib sotamiz.

Bu maslahat dangasalarga ma'qul tushibdi. Shundan keyin ularning biri abjirnikiga boribdi.

— Abjir uka, biz senga achinyapmiz. O'ylab qara, bir non bilan qorning to'yadi-yu, sen bo'sang ertadan kechgacha tinmay ter to'kasani. Nima azob? Qo'y bularni. Biznikiga yur. O'zing bilasan, to'qqiz aravasozmiz, kuniga sakson bir arava qilamiz, aravalarimizning narxi joyida. Yur, biz bilan birga bo'l.

Dangasa u deb, bu deb, xullas, ko'ndiribdi.

— Borsam bora qolay, — debdi abjir.

O'zi yasagan to'qqiz aravaga mol-mulkini ortib, dangasalarning uyiga ko'chib boribdi. Dangasalar unga alohida uy ajratib beribdilar. Shundan keyin abjirning uyiga har kun mehmonlar kela boshlabdi, akalar ham ziyofatning quyug'ini yer ekanlar.

Oradan ancha vaqt o'tgach, abjirning puli tugab qolibdi.

U ko'p o'ylab turmay, uyida arava tuzatmoqchi bo'libdi. Ammo abjirni kuzatib yurgan dangasalardan biri uni o'zlarini bilan birga ishlashga ko'ndiribdi. Birga ishlay boshlabdilar.

Yozning issiq kunlari ekan. Dangasalar issiqni vaj qilib, o'zlarini salqinga uribdilar. Ish boshida abjirning yolg'iz o'zi qolibdi, ammo u tinch turmay, peshanasini tang'ib olib, ishini davom ettiraveribdi.

Kechqurun aravalarni sanab chiqibdi. Bir o'zi yasagan arava to'qqizta, dangasalar yasagan arava bitta, hammasi o'nta emish. U ajablanibdi, lekin indamabdi. Bozorda dangasalarning aravalalarini hech kim olmabdi. Abjir yasagan aravalalar esa qo'l-qo'lg'a tegmay, birpasda tamom bo'libdi.

Abjir avval achchiqlanibdi, keyin dangasalarni yaxshiroq ishslashga o'rgata boshlabdi, ammo dangasalarning bo'yinlari ishga yor bermas ekan.

Abjir ishyoqmaslarni tashlab ketibdi. Dangasalar: „Endi nima qilsak ekan?“ deb ko'p o'ylashibdi.

Biri yana hiyla topib, nari-beri ishlayotgan sheriklariga qarabdi:

— Topdim! — deb baqiribdi. Dangasalarning biri mix qoqqancha, oltiasi arava o'qini g'ildirakka solmoqchi bo'lancha ya bittasi to'qmoqni ko'targanicha qotib qolibdi.

— Bugun kechasi abjir yasagan aravalarga o't qo'yamiz, ertaga bozorda bizning aravalardan boshqa arava bo'lmaydi, narxi ham oshadi! — debdi haligi dangasa.

Ular kechasi abjirning aravalariiga o't qo'yib yuborishibdi.

Abjir uyida yo‘q, arava pullarini yig‘gani qishloqqa ketgan ekan. Ertalab eshagiga minib, bir xurjun tilla bilan uyga qaytayotsa, yo‘lda tanish yo‘lovchi uchrab qolibdi. U, achnib, aravalarning yonib kul bo‘lganini aytibdi.

— O‘tgan ishga salavot! — debdi abjir va hech narsa bo‘lmaganday yo‘lida davom etibdi. U dangasalarning ulari oldidan o‘tayotganda, juda xursand kishiday, ashula ham ayta boshlabdi.

Dangasalar bu vaqtda aravalarni bozorga olib chiqmoqchi bo‘lib turgan ekanlar. Abjirning ashulasi eshitilganda, ular hayron bo‘lishibdi.

— Salom, abjirvoy, ahvollar qalay? Tinchlikmi?
— Tinchlik, — debdi abjir.
— Aravalaring yonibdi, deb eshitdik, rostmi?
— Rost, aravalarni ko‘zim qiymagandan yondirolmay yurardim, baxtinga allaqanday insofli odamlar topilib, aravalarni yondirishibdi. Menga arava kuli zarur edi, juda xursand bo‘ldim.

— Arava kuli zarur edi, deysanmi?
— Ha, asti so‘rama, bozorda arava kulini tillaga almashyaptilar. Mana, ko‘rib turibsan, — abjir tagidagi xurjunini ko‘rsatibdi, — kulni tillaga alishtirib kelyapman. Dangasalar hayron qolishibdi. Abjir boshqa hech so‘z aytmay jo‘nab ketibdi.

Dangasalarning boshlari qotib, avval ko‘p tortishibdilar, keyin o‘z aravalariiga o‘t qo‘yibdilar. Aravalar yonib kul bo‘libdi.

Keyin dangasalar aravalalarining kulini xurjunga solib, bozorga jo'nashibdi.

Bozorda odam ko'p ekan. To'qqiz dangasa eshaklariga ikki ko'zi to'la kul xurjunlarni ortib, bozorga kirib kelishibdi.

- Arava kuli oladigan bormi?
- Yaxshi aravalarning kuli!
- Bir xurjun kulning bahosi bir xurjun tilla. Kep qoling, opqoling, ho-hoy...

Hamma hayron bo'libdi. To'qqiz dangasa baravar baqiraveribdi.

Avval odamlar ichaklari uzilib kulishibdi, keyin kaltak olib-dangasalarni bozordan haydab chiqaribdilar.

Bu dangasalarga juda alam qilibdi. Shunday jahllari chiqibdiki, abjirdan qasos olmoqchi bo'libdilar. Yarim kechada abjirning uyiga boribdilar. Devordan oshib, hovliga tushibdilar. Abjir uyida yo'q ekan. Nima qilishni bilmay, abjirning eshagini kaltaklabdilar, eshak yiqilib, o'lib qolibdi.

Dangasalar qo'rqib, uylariga qarab qochibdilar.

Ertasiga ertalab abjir uyiga kelsa, eshagi o'lib yotgan emish. Ko'p xafa bo'libdi, eshagini aravaga ortib jo'nabdi.

Dangasalar poylashsa, abjir eshakni aravaga ortib qishloqdan chiqib ketyapti, ishning oxiri nima bo'lishini kutib turishibdi.

Abjir dalada katta bir xirmonga ro'para kelibdi. Bu xirmon sudxo'r Salimboyniki bo'lib, xirmon boshida xuddi Salimboyning o'zi nonushta qilib o'tirgan ekan.

Abjir dam olmoqchi bo'libdi. Eshakni xirmonga to'g'rilab turg'izib qo'yibdi. Uzoqdan qaralsa, eshak kappalab bug'doy yeayotganday ko'rinar emish.

Buni ko'rib Salimboy juda g'azablanibdi, eshakka qarab do'q urib baqiribdi.

Eshak bo'lsa, uning nazarida, bug'doyni kappalab yeyaveribdi. Salimboy hech nimaga qaramay, eshakka yaqin kelib tayoq bilan bir uribdi.

Eshak yiqlibdi, bu choq uzoqdan abjirning dod-faryodi eshitilibdi.

— Eshagimni o'ldirib qo'yding, boy!

Boyning quti o'chib ketibdi. Yalina boshlabdi.

— Jon abjirjon, dodlama. Eshagingning ajali yetgan ekan.

Endi o'zingdan o'tar gap yo'q, bo'lar ish bo'ldi. Qo'y, hech kim bilmay qo'ya qolsin.

— Yo'q, eshagimning xunini to'laysan. Bo'lmasa seni omon qo'ymayman, — debdi abjir qo'liga katta tayoq olib.

— To'xta, eshagingning xunini to'layman, nima talab qilasan?

— Oltin, — debdi abjir.

— Qancha?

— Bir xurjun.

Boy rozi bo'libdi.

Abjir tillani olib, uyiga qaytibdi. Yo'lda dangasalarga duch kelibdi.

— Salom berdik, abjirvoy!

— Alik oldik, dangasalar!

— Ahvollar qalay? Qanaqa yangiliklar bor?
— Yangiliklar ko'p, — debdi abjir, — shu kechasi esha-gim o'lib qolgan edi, o'ligini bir xurjun tillaga almashtirib kelyapman.

Dangasalar uning xurjunini titib ko'rishibdi. Xurjun to'la tillani ko'rib, ko'zları kosasidan chiqib ketayozibdi.

Abjir xayrashib, jo'nab qolibdi.

Dangasalarning rosa ichlari kuyibdi. Bir yo'la boy bo'l-moqchi ekanlar, bittadan eshakni o'ldirib, jasadini ortib bo-zorga jo'nashibdi.

— O'lgan eshak oladigan bormi? Tillaga alishtiramiz!

Xalq rosa kulibdi, keyin g'azabga kelibdi:

— Bu qanday noma'qulchilik! O'likni ham sotadimi!

Xalq ularni urib-urib bozordan haydabdi.

Yalqovlar juda ham g'azablanibdilar. Abjirning uyiga qarab yo'l olibdilar.

Abjir uyda yotar ekan, birdan tapir-tupur oyoq tovushi eshitilibdi. Qarasa, to'qqiz dangasa uning uyiga bostirib kelayotganmish. Abjir qochibdi, dangasalar quvib ketibdi.

Dalada abjir qo'y haydab kelayotgan qo'ychi boyga uchrabdi.

— Hoy, qayoqqa qochayotibsang? — deb so'rabdi boy.

— Ey, xabaringiz yo'qmi, meni podsho qilib ko'tar-moqchilar.

— Podsho qilib ko'tarmoqchi bo'lganlariga qochyapsanmi? O'lma, oshqovoq. Meni podsho qilib ko'tara qolsin-lar, — debdi.

— Unday bo'lsa kiyimlaringizni yeching. Mana mening kiyimlarim, kiying, — debdi abjir. Ikkovi kiyim-boshni almashtiribdilar. Keyin qo'ychi boy asta-sekin yugurib, abjirdan uzoqlashibdi.

↑ Bu vaqt hansirashib dangasalar kelib qolishibdi, qo'ychi boy kiyimidagi abjirdan so'rashibdi:

— Shu yerdan bir qochoq o'tdimi?

— O'tdi, — debdi abjir.

— Ko'p bo'ldimi?

— Yo'q, hozirgina o'tdi, — abjir bir qo'lini peshanasiga qo'yib, — huv ana, qochib ketyapti, — debdi. Dangasalar qochoqni ushlab, qo'l-oyog'ini boylashibdi, qopga solib daryoga otishibdi.

O'z ishlaridan xursand bo'lib, uylariga qaytishibdi. Oradan ko'p o'tmay, qo'ychi boyning mingdan ortiq qo'ylarini haydab, abjir o'z uyiga qaytib kela boshlabdi. Abjirni tirik ko'rgan dangasalar o'zlarini yo'qotib qo'yishibdi.

— Ha, — debdi bir shum dangasa, — qayerdan kelyapsan?

— Hech so'ramang, — debdi abjir uh tortib. — Dilkash odamligimni o'zingiz bilasiz, lekin ko'rolmaydiganlar ko'p, ularning yordami bilan davlatmand bo'ldim.

— Qanday qilib? — deb so'rashibdi dangasalar. Abjir voqeani so'zlay boshlabdi:

— Bugun ertalab allakimlar uyimdan to dalagacha quvib borishdi, keyin ushlab, qo'l-oyog'imni boylab daryoga tashlashdi. Daryoga cho'kib ketdim. Voy-voy... Daryo tagida qo'ylar shuncha ko'p ekanki, asti so'ramang, hayron qoladi kishi...

Daryo tagiga tushganimda qo'ylar menga yalina boshladilar, „Bizga xo'jayin kerak, agar sen xo'jayin bo'lsang, qancha istasang, shunchamiz seniki bo'lamiz, sen bilan yer yuziga chiqamiz“, dedilar. Shunda men: „Menga mingtangiz kifoya“, deb aytdim. Darrov mingta qo'y qator bo'lib, men bilan birga daryoning labiga chiqdi. Mana ko'rib turibsizlar, — deb qo'ylarni ko'rsatibdi, — o'sha qo'ylar — shular.

Dangasalarga toza alam qilibdi.

— Birodarimiz abjirvoy. Biz senga doim yaxshilik qilib kelamiz, bizni daryoga elt, bizga ham qo'ylardan olib ber, — deyishibdi.

— Vaqtim yo'q, bo'lmaydi, — debdi abjir. Dangasalar ko'p yalinishibdi. Shundan keyingina abjir:

— Bo'lmasa, mayli, yuringlar, — debdi. Daryo labiga borishibdi. Abjirning qo'ylari daryo labida o'tlab yurishgan ekan. Dangasalar qo'ylarning suvdagi aksini ko'rib yanayam sevinishibdi.

— Voy-voy, anavi semiz qo'ylarni ko'ring-a. Munchayam ko'p ekan.

— Voy, bu hali bir qismi, — debdi abjir. Dangasalar shoshib qolibdi. Har qaysisi suvga oldinroq tushib, badavlat bo'lishga intilarkan.

Abjir ularga: „Qoplarga tushinglar“, debdi. Xash-pash deguncha dangasalar to'qqiz qopga kirib olib, qoplarning og'zini mahkam bog'lattirishibdi. Dangasalar o'zlari yumalab, daryoga tushib, cho'kib ketishibdi.

Shu bilan Abjir yigit murod-maqsadiga yetibdi.

DUNYODA YO'Q HUNAR



6 tgan zamonda bir podshoning go'zal qizi bor ekan. Shu mamlakatda bir kambag'al dehqon bo'lib, uning ham yolg'iz o'g'li bor ekan. U podshoning qiziga oshiq bo'lib qolibdi-da, sovchi jo'natibdi.

Podsho unga:

— Dunyoda yo'q hunarni o'rgansa, qizimni beraman, — debdi.

Endi dehqon o'g'lini turli hunarlarga o'rgatmoqchi bo'libdi va uni bir kashmirining uyiga olib boribdi, unga shogird qilib beribdi. Kashmiri kishi o'z hunarini birovga o'rgatmas ekan, shogirdlarini o'n kun och qo'yib o'ldirar ekan. Bu yigitni qamayotganda kashmirining qizi ko'rib qolibdi va yigitga otasidan yashirincha yordam berib, otasi bilgan hunarlarning hammasini unga o'rgata boshlabdi.

O'n kun o'tgach, dehqon kelib o'g'lini olib ketibdi. Kashmiri yigitning o'lmanagini ko'rib hayron bo'libdi. Yigitning payiga tushibdi. Yigit qizdan shunday bir duo o'rgangan ekanki, uni o'qib bir dumalab, xohlagan narsasining qiyofasi-ga kira olar ekan.

Bir kuni yigit ajoyib tulpor ot bo'libdi, otasi uni bozorga olib borib sotibdi, chol uyiga kelsa, o'g'li ham otasining orqa-

sidan yetib kelibdi. Otasi hayron bo'libdi. Kelgusi bozor kuni yigit katta bir nor tuya bo'libdi, otasi uni yana bozorga olib boribdi, bu safar tuyani bozorda kashmiri kishi ko'rib, yigit ekanini bilibdi-da, uni darrov sotib olibdi, uyiga olib borib so'ymoqchi bo'libdi.

U qizga:

— Pichoq olib chiq! — debdi. Qiz ham yigitni tanibdi. Uyga kirib pichoqlarni bekitibdi-da:

— Topolmadim, — debdi. Otasi qiziga tuyani berib, o'zi pichoqqa kirib ketibdi. Qiz otasining yo'qligidan foydalanib, tuyani qo'yib yuboribdi. Tuya kaptar bo'lib uchib ketibdi. Qizning otasi bir dumalab burgut bo'libdi-da, uning orqasidan quvlabdi.


Ular quvlashib bir-biriga yetay deganda, yigit baqa bo'lib suv ostiga yashirinibdi, kashmiri laylak bo'lib uni axtaribdi, ushlab olay degan ekan, yigit bedana bo'lib uchibdi. Chol qirg'iy bo'lib quvibdi.


Nihoyat, unga yetay deganda yigit podshoning bog'idagi ochilib turgan gullari orasiga kirib gul bo'lib olibdi, chol qaysi gul yigit ekanini ajrata olmay, bulbul bo'lib sayray beribdi, shu vaqtda podshoning qizi kelib haligi gulni uzib olibdi-da, otasiga beribdi. Kashmiri darrov musiqachi bo'lib yaxshi kuylarni chala boshlabdi, podsho juda miriqib, bu kuyni tinglabdi.

U kishi shohdan gulni so'rabdi, podsho bermabdi, yana so'rabdi, shoh yana bermabdi. Kashmiri xiralik qilib so'ray

bergan ekan, podsho g'azablanib gulni yerga uribdi, gul qo'noq bo'lib sochilib ketibdi, kashmiri jo'jali tovuq bo'lib, qo'noqni yeya beribdi va yeb tamom qilibdi. Podsho kavushining ichida bir dona qo'noq qolgan ekan, u qo'noq katta olg'ir mushuk bo'libdi-da, haligi jo'jali tovuqni bir chekkadan yeb bitiribdi va bir dumalab odam bo'lib, podshoga ta'zim qilibdi.

Podsho yigitning o'rgangan hunariga qoyil qolibdi-da, qirq kecha-yu qirq kunduz to'y-tomosha qilib haligi yigitga qizini beribdi, shunday qilib yigit murod-maqsadiga yetgan ekan.





OIRO KUYOV

Bir podshohning qirq o'g'li bor ekan. Bir kuni podshoh katta o'g'lini uylantirmoqchi bo'libdi. Buni eshitgan boshqa o'g'illari, „Bizlarni ham uylantiring“, deyishibdi. Podshoh qirqta o'g'liga qirqta qizlik odamni qidirtira boshlabdi. Bir necha yillar qidirgandan keyin, o'z mamlakatidan olti oylik yo'lda bo'lgan bir podshohning qirqta qizi borligini eshitib, shu podshohning dargohiga bir tuya bilan maston kampirni sovchilikka yuboribdi. Kampir olti oylik yo'lni ilamon tuya bilan olti kunda bosib boribdi. Podshohning o'rdafiga kelib, eshik oldini supuribdi. Podshohning xizmatkorlari kampirni ushlab podshohning oldiga olib kirishibdi. Podshoh kampirdan nimaga kelganini so'rabdi.

Kampir:

— Ey podshohim, sizning qirqta qizingiz bor ekan. Shu qizlariningga sovchilikka keldim, — debdi.

Podshoh:

— Haqiqatan, mening qirqta qizim bor. Ularning hammasini tug'ishgan qirqta yigitga beraman, — debdi. Kampir ham o'z podshohnining qirqta o'g'li borligini aytibdi. Podshoh:

— Men qizlarimni berishga roziman, lekin bir shartim bor: podshohingiz o'z mamlakatidan mening mamlakatim-

gacha bo'lgan olti oylik yo'lga ariq qazdirib, o'z suvini mening suvimga qo'shsin,— debdi.

Maston kampir o'z mamlakatiga qaytib podshohga:

— Ey, podshohi olam, shu olti oylik yo'lga ariq qazib, o'z suvingizni ul podshoh suvlariga qo'shsangiz, qizlarini berar ekan,— debdi.

Podshoh bu shartga rozi bo'libdi.

Podshoh shahardagi hamma fuqarolarni yig'dirib, ariq kovlata boshlabdi. Xalq bir oyda uch-to'rt toshlik yo'lgacha ariq kovlabdi. Podshohning o'g'illari ariqni tezroq kovlatish uchun navbat bilan mehnat qilayotgan odamlar ustidan xo'jayinlik qilib turishibdi. Bir qancha odamlar uylaridan, bola-chaqalaridan ajralib, podshohning zulmiga chiday olmay, bu ishdan norozi bola boshlashibdi. Bir kun odamlarning: „Podshohning o'g'illari xotin olmay ketsin, hammamizni uy-joyimizdan, bola-chaqamizdan judo qildi“, deb gaplashganlarini podshohning kichik o'g'li eshitib, ariq kovlayotgan odamlarning hammasiga javob berib yuboribdi. Akalari buni ko'rib, „Bizni xotinsiz qoldirding“ deb bir mushtdan uring ketibdi. Kichik ukasi yig'lab-yig'lab ariq yonida yotib, uqlab qolibdi. Sahar vaqtি bir chol kelib, bolani uyg'otib:

— Ha, o'g'lim, nima uchun bu yerda yotibsан? — debdi. Bola bo'lgan voqeani cholga gapirib beribdi. Chol:

— O'g'lim, xafa bo'lma, bu ariqni kovlash qiyin emas. Lekin senga bir nasihatim bor, shuni bajarasan. Kovlagan arig'ingizning bir tomoni yoz, bir tomoni qish bo'ladi. Akalaring to'yga borganda sen o'zing bormay, pichog'ingni berib

yuborgin. Akalaring kelnlarni olib yo'lning yarmiga kelganda yomg'ir yog'adi, yomg'irdan keyin qor yog'adi, qordan keyin tosh-yog'adi.

Shu vaqtda bir oq uy ko'rindi. Zinhor-bazinhor shu oq uyga kirishmasin. Tez orada havo ochilib ketadi. Otangga shu gaplarni tayinla, — debdi-da, tayog'ini ot qilib minib, „Ko'zingni yum“ debdi. Bir pasdan keyin „Och!“ debdi. Bola ko'zini yumib-ochsa, shu olti oylik yo'lga ariq kovlanib, ikki podshohning suvi bir-biriga qo'shilibdi. Chol bolaga yana „Ko'zingni yum!“ debdi. Bola ko'zini yumibdi. „Ko'zingni och!“ debdi. Bola ko'zini ochib qarasa, o'zini yig'lab yotib qolgan ariq bo'yida ko'ribdi. Chol g'oyib bo'libdi. Bola yana ariq bo'yida avvalgiday qilib yotibdi. Ertasi akalari ariq boshiga kelib qarashsa, suv oqib yotibdi, suvning boshi ko'rinnmaydi. Akalari bolani uyg'otib otalari oldiga olib borishibdi. Bola otasiga:

— Ariqni men kovlab, ikki suvni bir-biriga qo'shdim, — debdi.

Podshoh o'g'lidan xursand bo'lib, kelnlarni olib kelishga tayyorgarlik ko'rib, bir qancha askarlari bilan jo'nabdi. Bir necha oy yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, suvsiz sahro cho'l yurib, qizlar yashaydigan mamlakatga yetib borishibdi. Podshoh bularning kelayotganini eshitib, yo'llariga poyandozlar tashlab kutib olish uchun bir qancha askarlari bilan peshvoz chiqibdi. Qirq kecha-yu qirq kunduz to'y-tomosha qilib, bir kam qirq yigitga qizlarini nikoh qilibdi. Kichkina kelinni esa pichoqqa nikoh qilishibdi. Yigitlar bir qancha

askarlar bilan kelinlarni olib yo'lga tushibdilar. Bir necha kun yo'l yurib, yo'lning yarmiga kelganda yomg'ir yog'a boshlabdi. Yomg'irdan keyin qor yog'a boshlabdi, qordan keyin tosh yog'a boshlabdi. Shu payt oq ravot ko'rinishibdi. Podshohning katta o'g'illari shu ravotga kirishga ijozat so'rabdi. Podshoh: „Ukangizning nasihatni bor, kirmangiz“ deb rayotga kirishga rozilik bermabdi. Akalari otasini koyib: „Siz bitta o'g'lingiz deb bizlarni o'ldirasizmi“, deb qulqoq solmasdan qo'rg'onga kirishibdi. Podshoh ham noiloj orqalaridan kiribdi. Bular hammasi qo'rg'onga kirishi bilan havo charaqlab ochilib ketibdi. Qo'rg'onning to'rt burchagidagi to'rt quduqdan suv otilib chiqib, pastga tushib turibdi, qozonlarda palovlar pishgan, dasturxonlar yozilgan, shirin sharbatlar, turli taomlar qo'yilgan, ko'rpachalar solingan. Otlar uchun har biriga y akka mixlar qoqilgan, oxurlarga yemlar solingan. Lekin hech kim yo'q ekan. Ravotga kirgan odamlarning hammasi taomlardan yeb, bu oqshom shu joyda yotibdilar. Ertalab turib, yo'lga tayyorlanib darvozadan chiqayotganlarida bir ajdarho kelib darvozaning og'zini to'sibdi. Tilga kirib:

— Qani, buning haqini berib ketinglar! — debdi.

Podshoh:

— Pul kerakmi, dunyo kerakmi, ot kerakmi? Ol! — debdi. Ajdarho:

— Menga pul ham, dunyo ham kerak emas, kichik o'g'lingni bersang bo'ladi, boshqa hech narsa olmayman, — debdi. Podshoh xafa bo'libdi.

Lekin katta o'g'illari otalariga:

— Mayli, beraman deb ayting, yo'l uzoq, borib ololmaydi, — deb podshohni ko'ndirishibdi. Podshoh kichik o'g'lini ajdarhoga berishga rozi bo'lib jo'nab ketishibdi.

O'n kun yo'l yurganlaridan keyin uzoqdan bir narsaning uchib ketayotganini ko'rishibdi. Uchib ketayotgan narsa tez vaqt ichida yaqinlashibdi. Qarasalar, kichik ukasini ajdarho domiga tortayotgan ekan. Bola podshoh yoniga yaqinlashganda „Ota, olib kelayotgan keliningizni kimga bersangiz bering“ deb o'tib ketibdi-da, ravotning oldida turgan ajdarhoning oldiga boribdi. Ajdarho bola kelishi bilan bolaning beliga ikki marta aylanib betini betiga qo'yib:

— Bir kunlik umringdan kechasanmi, qirq kunlik umringdan kechasanmi? — debdi. Bola o'ylab turib:

— Qirq kunlik umrimdan kechaman, — debdi.

— Bo'lmasa, falon mamlakatda bir podshohning qizi bor. Shu qizni qirq kun ichida menga keltirib berasan, keltirmasang o'zingni yeyman, — debdi.

Bola ajdarhodan qirq kunlik javobni olib, yo'lga ravona bo'libdi. Bir necha kun yo'l yurib bir joyga kelsa, yo'lda juda ko'p chumolilar yurgan emish. Bola ularni bosib o'ta olmay, kechgacha chumolilarning o'tib bo'lishini kutib o'tiribdi. Kechqurun chumolilar o'tib bo'lgandan keyin oxirida chumolilarning podshohi bolaning oldiga kelib:

— Ha, yigit, nima uchun bu yerda o'tiribsiz? — deb so'rabdi.

— Men chumolilarni bosmay deb ularning o'tib ketishini kutib o'tiribman, — debdi bola. Chumoli:

— Senga rahmat, balki biz ham bir kuningga yaramiz, — debdi-da, bolaga bir hovuch somon beribdi. Bola somonni olib, yana bir necha kun yo'l yurgandan keyin ikkita sherning olishayotgani ustiga borib qolibdi. Qarasa, sherlar bir quyonni ushlab olib, qanday qilib bo'lib yeishni bilmasdan olishayotgan ekan. Bola shershordan quyonni so'rab olib, quyonni yonidagi pichog'i bilan ikki bo'lib beribdi.

Sherlar:

— Rahmat, odamzod o'g'li, shu quyonni bo'lib yeya olmasdan uch kundan beri ovora edik, — deb boladan xursand bo'lib:

— Mana ol, bir kuningga yararmiz, — deb ustlaridagi yunglaridan uzib beribdilar. Bola yana yurib-yurib, kechqurun bir qishloqqa boribdi. Kechasi yotish uchun bir kampirdan joy so'rabdi. Kampir joy berib:

— Ha, o'g'lim, qayerdan kelayotibsang, nima ish qilib yuribsan? — debdi. Bola oldin nimaga kelganini kampirga aytmabdi. Kampir qistagandan keyin podshoh qizini olishga kelganini aytibdi. Kampir xafa bo'lib:

— O'g'lim, bu ishni qo'y. Juda og'ir ish, buni bajarish juda qiyin. Yosh yigit ekansan, bekorga o'lib ketasan. Bir necha qiyin shartlari bor, ularni bajara olmaysan. Mana, qara, yettita yakka mixda yetti ot turibdi. Mana shu yetti ot ni yetti o'g'lim minib yurar edi.

O‘g‘illarim shu podshohning qizini olamiz deb podshohning shartlarini bajara olmasdan, birin-ketin o‘lib ketishdi. Bir o‘zim shu hovlida qoldim. Qo‘y, o‘g‘lim, podshohning qizidan boshqa qizlar ko‘p. Shulardan biriga seni uylantiraman, seni o‘zimga o‘g‘il qilib olaman, — debdi.

Bola kampirga:

— Hay ona, nima bo‘lsa ham men shu podshoh qizining shartlarini bajarishga bel bog‘laganman, shu shartlarni bajarishga majburman, — debdi.

Ertalab, kampirning yig‘lab-yalinishiga qaramay, podshoh dargohiga borib, dovulini chalibdi. Podshohning odamlari kelib, bolani shoh oldiga olib boribdilar.

Podshoh boladan:

— Sen mening qizimni olishga kelgan bo‘lsang, uchta shartim bor.

Shu shartlarni bajara olmasang, kallangni olaman. Qo‘y, urinma, yo‘lingdan qolmay ketaver, — debdi. Bola podshohga:

— Shartingizni ayting, bajaraman, — debdi. Podshoh:

— Uchta shartdan biri — qirq qop tariqni yerga septirib beraman, bittalab terib berasan; ikkinchi shartim — otamdan qolgan ikkita bo‘rdoqi ho‘kizim bor. Shularning go‘shtini ertalabgacha yeb, suyagini keltirib berasan; uchinchi shartim — darvozaga yaqin joyda otamdan qolgan to‘rt pudlik ko‘za yerga ko‘milgan, og‘zi ochiq, ichida hech narsa yo‘q. Shuning oldidan o‘tib, qaytguninggacha ichida tilla qaynab tursin. Mana shu shartlarimni bajarsang, qizimni bera man, — debdi.

Birinchi shartni bajarish uchun qirq tuyaga qirq qop tariqni orttirib yuborib bir xavar¹ yerga septiribdi. Xizmatchilar bolani qoldirib, o'zlari qaytibdi. Bola shuncha tariqni qanday terib tamomlash ilojini topa olmay, o'ylay-o'ylay qo'li bilan tera boshlabdi. Peshingacha yonkap² tariq teribdi. Peshin vaqtida, bir joyga o'tirib, yana o'ylay boshlabdi. Birdan chumolilar bergan somon esiga tushib qolibdi. Yonidagi chaqmog'ini olib chaqib somonni tutatibdi. Somonning tutuni chumolilarning burniga kirib, hamma chumolilar yig'ilib bolaning oldiga kelib:

- Nima xizmat, buyuring, — debdi.
- Ey jonivorlar, mening boshimga mushkul ish tushdi.

Mana shu xavarga sepilgan qirq qop tariqni terib beringlar,
— debdi.

Bola qopning og'zini ochib turibdi, chumolilar tariqni terib qopga sola boshlabdi. Kechgacha qirq qopga tariqni to'lg'azib, chumolilar o'z joylariga ketishibdi. Bola qirq qop tariqni tuyalarga ortib, podshoh o'r dasiga olib kelibdi. Bolaning bu ishidan hamma xursand bo'libdi. Ikkinci kuni, ikkinchi shartni bajarish uchun podshoh otasidan qolgan ikkita novvosni chiqarib:

— Mana shu novvoslarning go'shtini ertagacha yeb, suyaklarini qopga solib keltirib ber! — debdi.

Bola ho'kizlarni yetaklab, bir joyga olib borib bog'lab qo'yibdi. Kechasi ho'kizlar yoniga kelib qanday yeb tamom-

¹ **Xavar** — tekis.

² **Yonkap** — yarim hovuch.

lashni bilmay xafa bo'lib, o'ylab o'tirib sherlarni eslabdi. Sherlarning yungini tutatibdi. Sherlar „Labbay, xizmatingga tayyormiz“ deb bolaning oldiga yetib kelishibdi. Tong otguncha ikki sher ikki ho'kizning go'shtini tamomlabdi. Bola suyaklarni qopga to'ldirib saharda podshoh o'rdasiga kelib: „Qornim ochib ketdi, qani yana yeyishga biror narsa bormi?“ deb chaqiribdi. Xizmatkorlar bolani podshoh oldiga olib kiribdi. Bola suyaklarni podshoh oldiga qo'yibdi. Odamlar buni ko'rib „Bu devmi yoki boshqa biror narsami?“ deb hayron qolishibdi.

Podshohning buyrug'i bilan bolaga bir tog'ora qatiq bilan sakkizta non keltirib beribdilar. Bolaning haqiqatan qorni och ekan, ana-mana deguncha bir tog'ora qatiq bilan sakkizta nonni yeb qo'yibdi. Podshoh bolaga uchinchi shartni buyuribdi. Malika esa, bu yigitning ikkita shartni bajar-ganidan juda xursand bo'lib, yo'liga chiqib turibdi. Yigit podshohning uchinchi shartini qanday bajarishni bilmay, xafa bo'lib, o'ylanib chiqib kelayotsa, podshohning qizi uchrabdi. Qiz qo'lidagi gavhar uzukni yigitga berib:

— Ey yigit, mana shu uzukni darvoza yonidagi ko'zaning oldidan o'tayotganingizda uning ichiga tashlang, lekin orqaga qaramay, ketavering. Siz qaytib kelguningizcha tilla qaynab chiqaveradi, — debdi. Yigit uzukni olib ketibdi. Ko'za yoniga borib uzukni tashlab, qiz aytgancha orqasiga qayrilib qaramasdan darvozadan chiqib ketibdi. Podshohning xizmatchilari ko'zadan oltin qaynab chiqqanini ko'rib, yigitning

orqasidan borib uni bardor-bardor qilib ko'tarib, podshoh oldiga olib kelishibdi. Xizmatkorlar podshohga:

— Podshohi olam, qizingiz ana shu yigitniki, — deyishibdi.

Podshoh butun shahar xalqini yig'ib, to'y-u tomoshalar qilib, qizini yigitga nikohlاب beribdi. Ajdarhoga bergen va'dasi to'lishiga bir kun qolganda, yigit bir oh tortibdi. Qiz yigitga:

— Ey yigit, nega bunchalik qattiq oh tortasiz? — debdi. Yigit ajdarhoga bergen va'dasini qizga aytmasdan:

— Ota-onam esimga tushdi, — debdi. Erta bilan, tong otgandan keyin yigit qizga:

— Meni desang birga ketasan, bo'lmasa ixtiyoring, — debdi. Qiz ham ketishga rozi bo'libdi. Ikkovi podshohdan javob olib, yo'lga tushishibdi. Bir qancha yo'l yurgandan keyin, yigitning juda holi tang bo'lib, rangi qop-qora bo'lib ketaveribdi. Qiz yigitning holini ko'rib:

— Nimaga bunchalik qattiq pakar¹ bo'lib ketyapsiz? — debdi.

Shunda yigit chidamay, o'zlarining ajdarho oldiga ketylganlarini aytibdi:

— Tez yetib bormasak, ajdarho ikkovimizni ham yeb qo'yadi, — debdi. Qiz yigitdan juda xafa bo'lib:

— Ey yigit, nega shu vaqtgacha bu gaplarni menga ayt madingiz, uning iloji qo'limizda edi, hali ham kech emas. Endi siz chopib borib otamning kichik hujrasini ochasiz,

¹ Pakar — xafa.


hujraning ichida bir sandiq bor, sandiqning ichida bir kaptar bor. Shu kaptarning kallasini kesasiz. Tomog‘idan bir qurt chiqadi, qurtni o‘ldirasiz. Ana shundagina ajdarho o‘aldi, bo‘lmasa ikkimizni ham yeysi, — debdi.

Shu gapni aytib bo‘lishi bilan ajdarho qizni domiga tor-ta boshlabdi. Yigit esa kuchining boricha podshoh o‘rdasi tomon chopibdi. O‘rdadan hujraning kalitini topib, hujranning qulfini ochibdi. Hujraning ichiga kirib, tokchada turgan sandiqni ochib, kaptarni ushlay deganda, kaptar uchib ketibdi, yigit darrov hujraning eshigini bekitib qo‘yib, kaptarni zo‘rg‘a ushlab olib, kallasini kesibdi, tomog‘idan qurtni olib o‘ldiribdi. Hujradan chiqib o‘rdada turgan otga minib qiz yoniga ketibdi. Yo‘lda kelayotib „Qizga nima bo‘ldi ekan, ajdarho yutdimi, o‘likmi, tirikmi“ deb o‘ylab, xafa bo‘lib qiz oldiga kelib qarasa, qiz bilan ajdarhoning orasi uch qadam qolganda ajdarho o‘libdi. Qiz esa hushidan ketib qolibdi. Yigit yugurib kelib, qizni ko‘tarib olib o‘tirsa ham hushiga kelmagandan keyin, ko‘zidan yosh oqib qizning yuziga to-mishi bilan, qiz ko‘zini ochib, yigitni ko‘rib xursand bo‘libdi. Yigit:

— Ajdarho o‘libdi, jonimiz foydaga qoldi, ajdarhodan qutuldik, ajdarhoning makoni bizga kerak emas, o‘z yurtimizga ketamiz, — debdi.

Bir necha kun yo‘l yurib, otasining mamlakatiga kelibdi. Podshoh o‘g‘lining kelayotganini eshitib xursand bo‘lib, kutib olibdi. Qayta boshdan qirq kecha-yu qirq kunduz to‘y berib murod-maqsadiga yetibdi.

O'YNANG, KUCHUGIM, O'YNANG!



tgan zamonda bir cholning uchta qizi bo'lib, o'g'li yo'q ekan. Kunlardan bir kuni, chol juda og'ir kasal bo'lib qolibdi.

Cholning kasalini biron ta tabib ham tuzata olmabdi. Nihoyat, tabiblar cholga olmurut shoxini qaynatib ichganidagina sog'ayib ketishini aytishibdi. Olmurut shoxini olib kelish uchun cholning katta qizi yo'lga chiqibdi. U yigit-larning kiyim-boshini kiyib, qora sochini qalpog'i tagiga bostirib olib, otni minib yo'lda ketaveribdi. Qiz yo'lda uzoq yurgandan so'ng, katta bir cho'l-biyobondan chiqib qolibdi. Cho'lda bahaybat bir sher bor ekan, qiz unga duch kelibdi. Qiz undan qo'rqib uyiga qaytib kelibdi.

Buni ko'rgan o'ttancha singlisi „Men boraman“, deb otasining so'ziga kirmay, safar taraddudiga tushibdi. O'ttancha qiziga yo'lda katta bir ajdaho duch kelibdi, u ham qo'rqqanidan orqasiga qaytibdi. Cholning uchinchi kenja qizi, „Dada, endi men boraman“, debdi. Dadasi unamabdi. Biroq kenja qiz otasining gapiga qulq solmasdan jo'nabdi. Bu qiz ham qop-qora sochini qalpog'i ostiga bostirib olib, uzun to'n kiyib, uning ustidan shohi belbog'ni beliga mahkam bog'lab, navqiron sho'x yigitlar kabi ot minib, kuchukchasini er-gashtirib, yo'lga ravona bo'libdi.

Yo'lda ko'p qiyinchiliklarga uchrabdi. Ajdarho va sherlar-dan ham qo'rqlay, ularning qarshisiga dadillik bilan borib, o'tkir qilichi bilan ularni chopib o'ldiribdi.

Kenja qiz yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yurib, bir sha-harga yetib boribdi. Bu shaharning yigitlari har kuni meh-monxonada gap yeyishar ekan.

Qiz kishining suqi kiradigan darajada suluv, go'zal ekan. Qiz shaharga yetib kelgach, uch-to'rt yigit bilan tanishib qolibdi. Ular yigitning musofirligini bilib, uni mehmonxo-naga taklif qilibdilar. U:

— Men bu yerga bir zarur ish bilan kelganman, agar o'sha narsa topilsa, tezroq olib ketsam: mening otam og'ir kasal. Unga faqat olmurut shoxini qaynatib ichirsak, dori bo'lar ekan. Shunga kelgan edim, topib bersalaringiz, olib ketardim, — debdi.

Mehmonxonadagi barcha yigitlar uning o'g'il bola ekan-ligiga shubha bilan qarabdilar. Ular qizga javob bermabdilar, mehmonxonaga uni boshlab kiribdilar. Yigitlar undan qizmi yoki o'g'il ekanligini so'ramoqchi bo'libdilar, lekin meh-mon xafa bo'lmasin, deb uning qiz ekanini turli yo'llar bilan aniqlamoqchi bo'libdilar. Biroq qiz sir boy bermay, yigitlar bilan birga bir hafta yashabdi.

Shunda yigitlarning biri:

— Hammamiz cho'milgani boramiz, uning o'g'il yoki qizligini o'shanda bilib olamiz, — debdi. Yigitlar bu masla-hatga ko'nishibdi. Bularning gaplarini qizning kuchugi eshi-

tib turgan ekan. Kuchuk qizning oldiga kelib, bu gaplarning hammasini unga aytib beribdi.

Qiz juda xavotir bo'lib turganda, kuchuk:

— E, opa, sen hech xafa bo'lma, men sizlar cho'milgani borib, yechingan vaqlaringizda bir vovullayman, shu paytda hamma tomonni qora tuman bosadi, sen shu vaqtning o'zida cho'milib chiqasan, ular bilolmay qoladilar, — debdi.

Qiz bu maslahatga ko'nibdi. Ertasi tong otishi bilan yigitlarning hammasi non-choy ichishib bo'lib, qizga:

— O'rtoq, bir cho'milib kelmaymizmi, o'ynab ham kelamiz, — deyishibdi. Qiz rozi bo'libdi. So'ng hammasi cho'milgani borishibdi. Daryoning qirg'og'ida hammasi yechinibdi. Qiz yechinmay turibdi. Qizning kuchugi daryoning narigi qirg'og'ida turib bir uvullabdi. Hech kimni ko'rib bo'lmaydigan tuman tushibdi. Qiz ham darrov yechinib, o'zini suvga tashlabdi, bir sho'ng'ib suvdan chiqib, tezda kiyim-boshini kiyib olibdi. Yigitlar qizni bиринчи sinovda bilolmabdilar, uni o'g'il bola ekan, deb shaharga qaytib kelidilar. Ertasi kuni yana yigitlar:

— Bu yigit emas, yigit bo'lsa, bunchalik go'zal bo'lmaydi, buni yana sinab ko'rmoq kerak, — deyishibdi.

Shunda bir yigit o'rnidan turib:

— Biz bir dona egar, bir dona qo'g'irchoqni chiroyli qilib yasab, eshikning ikki tomoniga qo'yaylik, agar u egarni olsa o'g'il bola, qo'g'irchoqni olsa qiz bola bo'ladi, — debdi. Bu maslahat ham ularga ma'qul kelibdi. Ular juda chiroyli bit-

ta mag'or egar bilan bitta qo'g'irchoqni topib olib kelishibdi. Bularning bu harakatidan qizning kuchugi xabardor ekan, buni darrov qizga aytibdi.

Qiz ertasi kuni ichkari uyning eshigi orqasida egar bilan qo'g'irchoq turganini ko'ribdi, lekin qo'g'irchoqning behad chiroyliliga qaramasdan, darrov egarga qarabdi va yigitlarga qarab:

— Zap egar ekanmi, bizga bersalarlingiz bo'lar ekan, sotmaysizlarmi? — debdi.

Yigitlar bir-birlariga qarashib, o'g'il bola ekan, deb o'ylashibdi.

— Mayli, sizga egar kerak bo'lsa beraylik, — deyishibdi-da, egarni qizga berishibdi. Qiz egarni olib, ichkariga kirib o'tiribdi.

Yigitlar uning o'g'il bola ekaniga ishonmasdan yana sinamoqchi bo'lishibdi.

— Endi qanday qilib sinaymiz? — deyishibdi.

Yigitlardan biri turib:

— Endi buni shunday qilib sinaymiz: hammamiz bog'da bittadan gul olib kelib, tunda o'rnimizga qo'yib yotamiz, qani, uning o'rnidagi gul so'lib qoladimi, yo'qmi? Agar gul so'lмаган bo'lsa, o'g'il, so'lib qolgan bo'lsa, qiz bola bo'lib chiqadi, — debdi. Qizning kuchugi ularning bu maslahatini ham eshitib olib, darrov qizga aytibdi:

— Opa, seni yigitlar yana sinashmoqchi, ular sen yotganingda tagingga gul tashlab qo'yib, sinashmoqchi bo'lish-yapti. Gul tunda so'lib qoladi, o'sha vaqtida darrov menga

gulni tashlaysan, men u gulni tashlab, ular qayerdan olgan bo'salar, o'sha yerdan senga boshqa yangi yashnab turgan gul olib kelib beraman.

Yigitlar kech kirgandan keyin bog'ga kirib har bittasi bit-tadan gul uzib kelibdi. Yigitlar bilan kuchuk ham ergashib kirib, gulni qayerdan olganlarini bilib olibdi. Kechqurun hammasi tagiga gul tashlab yotibdi. Qiz sahar uyg'onib gulni qarasa, gul so'lib qolgan mish, u gulni darrov kuchukka tashlabdi. Kuchuk gulni tishlab olib, o'sha gulzorga borib, yangi ochilgan guldan olib kelib beribdi. Qiz gulni o'zining tagiga tashlab yotibdi. Tong otib, yerga yorug' tushgach, yigitlarning har qaysisi o'z gullarini ko'rishibdi. Ular qarasha, hammalarining guli sal-pal-so'lib-qolibdi-yu, qizning guli kechqurun qanday bo'lsa, erta bilan ham o'shanday yashnab turgan emish. Yigitlar uning og'il bola ekaniga ishonishibdi.

Shunday qilib, qiz bu yerda bir necha kun turgandan keyin yigitlardan javob so'rabdi. Yigitlar qizga olmurut shoxini topib berib, shundan keyingina unga javob berishibdi. Qiz esa olmurut shoxini olib, otini minib, kuchugini ergashtirib yo'lga tushibdi. Yo'lda bir necha kun yuribdi. Qiz o'zining Zimzim shahriga borib, sog'-salomat qaytib kelayotganiga suyunibdi. O'zining yonida ergashib kelayotgan kuchugiga qarab:

*O'ynang, kuchugim, o'ynang,
Zimzim shahriga borib,
Qiz bordim-u, qiz qaytdim.
O'ynang, kuchugim, o'ynang —*


deb kuchugini o'ynatib ketayotganida, yo'lda bir chol uch-rabdi. U Zimzim shahriga ketayotgan ekan. Qizning bu so'zlarini eshitib, hayron bo'libdi. Chol shaharga yetganda, yigitlar hali uylariga kirib ketmagan ekanlar. Chol: bir otliq odam ketyapti, yonida kuchugi bor, kuchugiga:

*O'ynang, kuchugim, o'ynang,
Zimzim shahriga borib,
Qiz bordim-u, qiz qaytdim.
O'ynang, kuchugim, o'ynang —*

deb, kuchugini o'ynatib ketayotibdi, — debdi. Yigitlar esa uni sinab bilisha olmaganiga juda pushaymon bo'libdilar.

Qiz esa yurtiga yetib boribdi. Borsa, otasi hali ham kasal ekan. Olmurut shoxini qaynatib, otasiga ichkizgandan keyin otasi tuzalib ketibdi. Shundan keyin ota-oná, opa-singil, hammasi sog'-salomat yashab, murod-maqsadlariga yetgan ekanlar.

NURILLA BOYVACHCHA



tgan zamonda Samarqandda bir katta boy o'tgan ekan. Uning Nurilla degan yolg'iz o'g'li bo'lgan ekan. Kunlarning birida boy:

— Ey o'g'lim, men o'lib ketaman, mening uch yerda dunyoyim bor, — deb hammasini ko'rsatibdi. — Yotib yesang bu dunyo hech narsa bo'lmaydi. Yotib yeishiga tog' ham chidamaydi, deganlar, — debdi.

Boy o'g'lining qo'liga ming tanga pul berib:

— Shunga mol olib kelib sotgin, — debdi. Bola pulni olib jo'nab ketibdi. Yo'lda bir devonaga uchrabdi. Devona odamlarni yig'ib:

— Bir so'zim bor, kimda-kim ming tanga bersa, aytam, — deb turgan ekan. Shunda odamlar:

— Ming tangani senga mana Nurilla boyvachcha bera-di, — debdi.

Nurilla boyvachcha:

— Men boyvachcha ekanman, — deb cho'ntagidan ming tangani chiqarib beribdi. Shunda devona unga:

— O'g'lim, uyingga borsang, xotiningni uyg'otib yot-gin! — debdi. Nurilla kechqurun uyga kelibdi, otasiga:

— Ota, ming tangaga loyiq mol olib qo'ydim, yana ming tanga bersangiz, molning hammasini bitta qilib olib kelar-

man, — debdi. Otasi yana ming tanga beribdi. Nurilla yana yo'nga tushibdi. Avvalgi ko'chani qo'yib, boshqa ko'cha bilan yursa, yana haligi devona oldidan chiqibdi. Odamlar uni ko'rib guvullashib: „Ana, ana, Nurilla boyvachcha bu so'zinga ming tanga beradi“, deyishibdi.

Nurilla boyvachcha esa, bu ming tangani ham devonaga beribdi. Shunda devona aytibdi:

— O'g'lim, oshiq ma'shuqqa yaxshi, har kimning sevgani o'ziga yaxshi.

Nurilla yana uyiga qaytib kelib:

— Ota, ikki ming tangaga mol oldim, yana bir ming tanga berasiz. Uch ming tangalik mol keltiraman, — debdi. Otasi yana bir ming tanga beribdi.

Nurilla yana boshqa ko'cha bilan ketibdi. Bu gal ham uning oldidan haligi devona chiqib qolibdi. Odamlar Nurillani ko'rib:

— Ana, Nurilla boyvachcha kelib qoldi, undan boshqa hech kim bu pulni topib berolmaydi, — deyishibdi. Nurilla yana ming tangani devonaga beribdi.

— Endi, o'g'lim, ertalabki nasibadan qaytma, — debdi devona. Hamma pulidan ajralgan Nurilla boyvachcha uyiga kelmasdan bir joyga borib, hovuz bo'yida yotibdi. Birov uning oldiga kelib:

— Otangiz kasal, sizni tez kelsin, dedilar, — debdi. Shunda Nurilla „Xo'p, boraman“, deb u kishini jo'natib yuboribdi. Ertasiga yana birov kelib:



— Otangiz qattiq o'sal bo'lib qoldi, tezda yetib borar ekansiz, — desa, Nurilla „Xo'p-xo'p“, deb yana bormabdi. Yana bir kishi ertasiga kelib:

— Otangiz o'ldi, — debdi. Nurilla bu so'zni eshitib borib, otasining o'ligini ko'mib, ma'rakalarini o'tkazibdi.

Kunlardan bir kuni Nurillaning uyiga o'g'ri kirib:

— Ming tanga berasan! — debdi. Nurilla ming tangani berib yuboribdi. Bir kuni o'g'rilar yana ming tanga so'rabdi. Yana beribdi.

O'g'rilar har kuni ming tangadan pul olib ketaveribdi. Otasining dunyosi tamom bo'libdi. O'g'rilaraga: „Endi nima beraman?“ — desa, „Nima bo'lsa-da, topib berasan“, deyishibdi. Nurilla hovli-joyini sotib beribdi.

O'ziga faqat bitta uy qolibdi.

— Bitta uy o'zimga qoldi, boshqa hech narsa qolmadni, — debdi.

O'g'rilar uni urib-urib darvozasi oldiga tashlab ketibdilar. Nurilla bechora bir vaqt o'ziga kelib qarasa, darvoza ostida yotgan emish. U sudralib uyga kirib boribdi. Xotini yig'lab:

— Sizga nima bo'ldi, nima gunoh qilgan edingiz? — debdi. Nurilla ikki-uch kun yotib tuzalibdi. Nurilla mardikor bozoriga boribdi, kechgacha hech kim mardikor so'ramabdi. Ertasiga ham borib o'tiraveribdi, yana hech kim so'ramabdi.

Nurilla uchinchi kuni mardikor bozorining bir chekkasida o'tirgan ekan, bir mo'ysafid kelib:

— O'g'lim, mardikor ishlaysizmi? — debdi. — Ha, ota, ishlayman, — debdi. U:

- Kuniga necha pul berayin, o'g'lim? — debdi.
- Necha pul bersangiz o'zingiz bilasiz, — debdi Nurilla. — Meni och qo'ysangiz ham mayli, ammo uyimga ketishimda qo'limga bitta non bersangiz, o'g'limga olib borar edim.

Chol rozi bo'libdi. Uni olib borib ishgaga solibdi. Chol kechqurun Nurillani to'yg'azib, qo'liga 10 ta non tugib beribdi. Nurilla uyiga yugurib kelibdi. Borsa xotini „Hozir otang non olib keladi“, deb o'g'lini ovutib o'tirgan ekan. Nurilla nonni olib kelib qolibdi. Bolaning xursandchiligi ularning ham ko'nglini ochibdi. Ertasiga ertalabdan kelib Nurilla ishlay beribdi. Yigirma kun ishlabdi. Bir kun boy:

- Biz ertaga savdogarchilikka Qa'l'a degan shaharga jo'nab ketayotirmiz. Biz bilan birga boruvchi boylarning quli bor, menda yo'q, shunga sen borsang, qancha pul beray? — debdi. Nurilla:

- Nima bersangiz o'zingiz bilasiz, — debdi. Boy:
- Haqing uchun o'zingga yuz tanga; bolalariga uchun oziq-ovqat va yuz tanga pul beray, — debdi. Nurilla rozi bo'libdi. Bularni olib, eshakka yuklab uyiga kelibdi.

Bolalariga:

- Men olti oyda kelaman. Shungacha bu ovqatlarni yeb turasizlar, — debdi.

Nurilla ertasiga jo'nab ketibdi. Xotini esa uydagi narsalarni asrab qo'yib har kimning ishini qilib kun kechiraveribdi. Nurilla boylar bilan Qa'laga yo'l tortibdi. Bir cho'lga borganda suv va ovqatlari tugabdi. U yerda bir g'or bor ekan.

Savdogarlarning maqsadi shu g'orga yetib olish ekan. Ular yetib ham kelishibdi, ammo u yerda suv qurib qolgan ekan.

Savdogarlar suv olib chiqish uchun qullarini g'orning ichiga kirgizib yuboribdilar. Kirgan qul qaytib chiqmabdi. Endi navbat Nurillaga kelibdi. Nurillaning xo'jayini:

— Bu bola mening qulim emas, mardikorim bo'ladi, shuning uchun buning rizoligini o'zidan so'rayman, — debdi. Nurilla rozi bo'libdi.

G'orga kirib ketibdi. Bir yerga borsa, bir dev suvning boshini boylab o'tirgan ekan. Kirgan odamlarning hammasini shu dev quritayotgan ekan. Nurilla devning oldiga kelib salom beribdi. Dev undan nima uchun kelganini so'rabdi. Nurilla suvga kelganini va ko'pchilik odamlar suvsizlikdan o'lib ketayotganini aytibdi. Dev Nurillaga:

— Mening bir savolim bor. Shu savolimga javob berolsang, suv beraman, — debdi. Dev oldidagi suvning ichida bir qurbaqa, uning yonida esa, bir pari bor ekan. Pari devga qarab kulsa, dev hech qaramas, qurbaqa vaqillasa, dev xursand bo'lib kular ekan. Dev Nurilladan bularning qaysisi yaxshi ekanligini so'rabdi. Nurilla devonadan sotib olgan gapining birini aytibdi:

— „Oshiq ma'shuqqa yaxshi, har kimning suygani o'ziga yaxshi“. Dev bu javobdan xursand bo'lib, unga mukofot uchun bir shamchiroq beribdi. Nurilla eson-omon chiqib kelibdi. Orqasidan suv ham sharillab oqib chiqibdi. Hamma savdogarlar xursand bo'lishib, Nurillaga sovg'alar berishibdi. Shu yerda Nurilla o'ziga yettiya tuya sotib olibdi. Dev Nu-

rilla bilan gaplashganda „Hamma savdogarlar turli narsalar olishsa, sen faqat qora murch olgin, chunki sizlar borayotgan shaharda vabo bor, odamlar shu murchdan bir-bir yalashsa tuzaladi“, degan ekan. Karvon yana yo'lga ravona bo'libdi. Bir shaharga borishsa, bir yosh bola mushukni ushlab o'tirgan ekan. Nurilla „Bu nima?“ deb so'rabdi. Bola: „Bu yo'lbars bo'ladi“, debdi. Nurilla buni bir tangaga sotib olib jo'nabdi. Bir necha kun yurib savdogarlar bir qo'riqqa borib qo'nishibdi. U yerda sichqon shunday ko'p ekanki, bularning hamma qoplarini teshib tashlabdi. Nurilla „yo'lbars“ ni qo'yib yuboribdi. Hamma sichqonlar qochib ketibdi. Savdogarlar suyunganlaridan Nurillaga in'omlar berishibdi. Nurilla savdogarlar qatorida qirqta tuya qilib olibdi. Shaharga yetib borgandan keyin u hamma mollarini sota boshlabdi. Nurilla dev bergen gavhar shamchiroqni sotmoqchi bo'libdi. Hech xaridor chiqmabdi, chunki bu gavharning bahosi juda ham qimmat ekan. Odamlar:

— Buni podshoga olib bor! — deyishibdi. Nurilla podshoga boribdi. Podsho qancha berishni so'rabdi. Nurilla „Nima bersangiz o'zingiz bilasiz“, debdi. Gavharning bahosi nihoyatda qimmat bo'lgani uchun vazirlardan biri podshoga Nurillani o'ldirib yuborishni maslahat beribdi. Podsho „Qanday qilib o'ldiramiz?“ debdi.

Vazir:

— Ertalab biz buni bog'ga yuboramiz. Bog'bonga: „Kim ertalab birinchi bo'lib kelsa o'ldiring“, deymiz. Shu bilan o'ldirib yuboramiz, — debdi. Ertalab tong otibdi. Podsho

Nurillaga bog'dan bir savat uzum olib kelishni buyuribdi. Nurilla ketayotgan ekan, shu shahardan orttirgan o'rtoqlari choy ichishga taklif qilishibdi. Nurilla xizmat uchun ketayotganini aytsa ham o'rtoqlari hech qo'yishmabdi.

Nurillaning esiga boyagi devonaning „Ertalabki nasi-badan qaytma“ degan gapi tushibdi va o'rtoqlarining oldiga kelib choy ichibdi. Shu orada podshoning o'z odamlaridan biri bog'ga kelibdi. Bog'bon bu kelgan odamning boshini shartta kesibdi. Uning orqasidan Nurilla borgan ekan, bir savat uzum berib yuboribdi.

Nurilla xizmatni bajarib podshoning oldiga kelibdi. Pod-sho bunga hayron bo'lib, „Biz qasd qilgan bilan xudo qasd qilmasa bekor ekan“, deb juda ko'p pand yebdi.

Nurilla sheriklarining oldiga kelibdi. Hamma molni sotib bo'libdi.

Shu yerdan hamma savdogarlar o'z ellariga qaytishibdi. Nurilla esa, o'z xo'jayiniga boyagi boy bergen ming tillani va mushukni berib yuboribdi. O'zi esa qirq tuyaga yukni ortib boshqa shaharga jo'nab ketibdi.

Savdogarlar olti oy yo'l yurib, o'z yurtlariga yetib kelibdi-lar. Boy ming tillani Nurillaning xotiniga berib, mushukni uning o'g'liga beribdi. Nurillaning qirq tuyaga murch ortib boshqa shaharga ketganini, yana sakkiz yildan keyin kelishi-ni aytibdi. Shu yili bularning shahrini sichqon bosib ketgan ekan. Tegirm'onlardagi hamma don va qanorlarni nobud qil-gan ekan. Odamlar Nurillaning o'g'lidagi „yo'lbars“ni ishga

solib, har bir tegirmondan kuniga besh puddan g'alla olib beribdilar. Bularning unlari juda ko'payib ketibdi.

Bir kuni podshoning o'tirgan taxtini ham sichqon bosib ketibdi. Podsho Nurillaning o'g'li bilan bitim tuzib, har kuniga mushuk haqi uchun ming tangadan berib turadigan bo'libdi. Ona-bola juda boy bo'lib ketishibdi. Juda katta uy qurib, atrofini qo'rg'on qilib olishibdi.

Endi gapni Nurilladan eshititing:

U shu yurgancha to'g'ri mo'ljallagan shahriga yetibdi. Haqiqatan ham u yerda vabo kasali bor ekan. Odamlar Nurillaning yuki nimaligini so'rashibdi. Nurilla vaboning dorisi ekanini aytibdi. Murchning har bir donasini bir tilladan soitibdi.

Odamlar butunlay vabodan qutulishibdi. Nurilla qirq tuya tilla qilibdi, bir yil turib o'nta qul sotib olib o'z eliga jo'nabdi. Yana to'rt yil yurib yarim kechada o'z uyiga kelibdi. Uyini hech taniy olmabdi. Juda o'zgarib ketgan ekan. Bir to'p qayrag'och bor ekan, shundan tanibdi. Qayrag'ochdan os-hib tushsa, xotini oldida bir yigit uxlab yotganmish. Nurilla bu yigitni oldirmoqchi bo'libdi, ammo bir so'rab ko'ray, deb xotinini uyg'otibdi. Bu yigit Nurillaning o'g'li ekan. U ham uyg'onibdi. Nurilla xotini va bolasi bilan so'rashibdi. Xotini tuyaxona ham solib qo'ygan ekan, tuyalarni shu yerga kel-tirishib, yuklarini tushirib olishibdi. Shu bilan tinch yashab, murod-maqsadlariga yetishibdi.

YETTI AHMOQ

Bir kuni yetti ahmoq bozorga chiqishibdi. Yurib-yurib qornilari olibdi. Ular pul yig'ishib, yetti-ta xurmacha qatiq va yettita non olishibdi. Endi olgan narsalarini yeish uchun joy izlashib, bir chekkaga o'tishibdi. Ular atrofga qarasalar, qo'llarini yuvish uchun suv ko'rinnabdi. Shunda ularning eng kattasi bosh-qalariga suv keltirishni buyuribdi. Ular bir-birlariga sansolarlik qilib, hech qaysisi unamabdi.

Shunda ahmoqlar bir-biriga shart qo'yishibdi. „Agarda kim gapirsa, o'sha qo'lga suv olib kelib quysin“, deyishibdi. Shunday qilib, ahmoqlar indamasdan o'tiraverishibdi.

Shu payt, bir gadoy kelib tilanibdi. Unga hech kim javob bermabdi. U nonni olib yeb, qatiqni ichib idishning yuqini ahmoqlar betiga surkab ketibdi.

Birozdan keyin bir it kelib, qolgan non ushoqlarini yesa ham ular indamay o'tiraverishibdi. It non ushoqlarini, idish yuqlarini yalabdi. Oxiri itning qorni to'ymay qolib, bir chekkadan ahmoqlarning betidagi gadoy surkab ketgan qatiqlarini yalay boshlabdi. It oltita ahmoqning betini yalab yettin-chisini yalayotganda, itning tili og'ziga kirib ketibdi. Shunda haligi ahmoq: „Ket!“ deb yuboribdi. Oltita ahmoq birdaniga: „Tur, qo'lga suv keltir!“ deb qichqiribdi. Qarashsaki, oldilari-da na non bor va na qatiq.

SUNBUL BILAN GUL



adim zamonda bir boy bor ekan. U xotini bilan juda ham ahil va xushvaqt umr kechirar ekan. Boyning ikki o'g'li bor ekan. Kattasining ismi — Sunbul, kichigining ismi — Gul ekan. Bolalar mактабга borib, yaxshi o'qishibdi.

Kunlarning birida Sunbul bilan Gulning onasi o'libdi. Ik-kisi yetim qolibdi.

Boy uylanmoqchi bo'lib, bir boyning qizigasovchi yuboribdi. Boy ham ma'qul ko'rib, to'y-tomosha qilib, qizini boyga beribdi. O'gay ona Sunbul bilan Gulni tarbiya qilibdi. Bolalar katta bo'libdi. O'gay ona Gulning aqlli, chiroyli bo'lganidan uni yaxshi ko'rib qolgan ekan. Bir kuni u Gulni yoniga chaqirib, uni yaxshi ko'rib qolganini aytibdi. Gul:

— Oyi, men sizning o'g'lingiz bo'laman-ku, menga shunday gaplarni aytishga uyalmaysizmi? Men bunday gaplarga qulоq soladigan bola emasman, — debdi va xafa bo'lib, uydan chiqib ketibdi. Xotin eri kelganida yig'lab:

— Kecha o'g'lingiz Gul mening yonimga kirib, senga oshiq bo'lib qoldim, deb zo'rlik qilmoqchi bo'ldi, — debdi. Boy g'azablanib, qamchi olib, Gulning maktabdan kelishi ni poylabdi. Sunbul bilan Gul bir-birini ko'rmasa turolmas ekan, hamma vaqt birga yurar ekan. O'sha kuni Sunbul mak-

tabda bir o'rtog'i bilan qolibdi. Gulning yolg'iz o'zi uyg'a qaytibdi. Gul kelib uyg'a kirgan zahoti otasi uni tutib olib, hech narsa so'ramay qamchi bilan ura boshlabdi, bosh-ko'z-larini yorib, uydan haydab chiqaribdi.

Bu voqeadan biroz vaqt o'tgandan keyin Sunbul uyg'a kelsa, Gul yo'q emish. U onasidan:

- Gul qayoqda? — deb so'rabdi.
- Men bilmayman, dadang ichkarida o'tiribdi, undan so'ra! — deb javob beribdi o'gay onasi. Sunbul ichkariga kirib:
- Dada, Gul qayoqqa ketdi? — deb so'rabdi.
- Onangga birmuncha yomon gaplarni aytibdi. Men uni urib, uydan haydab yubordim, — debdi. Sunbulning uyda bo'lib o'tgan voqeadan xabari bor ekan.

— Ey, ota, bekor qilbsiz. Uni sababsiz haydabsiz. Endi Gul bo'lmaqandan keyin men ham bu yerda turmayman. Men ukamdan o'lib ayrilmasam, tirik ayrlimayman, — debdi. Hech narsaga qaramay, uydan chiqib, ukasini qidirib ketibdi. Shaharda ko'chama-ko'cha ukasini qidirib, ikki kun yuribdi. Shaharning bir chetiga borsa, Gul charchab, ochlikdan holsizlanib, uqlab qolgan ekan. Sunbul ukasini uyg'otib ko'rishibdi, ikkisi yig'lashibdi. Gul:

— O'zimizning onamiz bo'lsa, biz bunday kunlarga qolmas edik, bizni otamizga aytib uydan haydatmas edi, — debdi. Birozdan keyin Sunbul Gulga:

— Sen shu yerda dam olib tur, men biroz non topib kelay, — debdi. Ukasini yotqizib, o'zi bir qishloqqa ketibdi. Gul yana yotib uqlab qolibdi. Bir vaqt osmonda uchib yurgan

bir katta oq qush Gulning boshiga kelib qo'nibdi. Gulning nafasini o'ziga tortib olib, uchib ketibdi. Oradan birmuncha vaqt o'tgandan keyin Sunbul non topib kelibdi. Qarasa, Gul o'lib yotgan emish. Sunbul xafa bo'libdi, yig'labdi, bir qancha vaqt ukasining boshida o'tiribdi. O'ylab-o'ylab, bir qancha tosh yig'ib, ukasining atrofini o'rabdi. Uning yoniga hech qanday jonivor o'tolmaydigan qilibdi.

— Xayr, ukam, ikkimiz onadan, otadan ajralgan edik. Endi men sendan ham ajraldim, — deb yig'lab-yig'lab yo'lga ravona bo'libdi. Bir necha kun yo'l yurib bir shaharga yetibdi. Qarasa, bir katta maydonga xalq yig'ilgan emish, u yerda bir qushni uchirishga tayyorgarlik ko'rib to'y-tomosha qilayotgan emishlar. Sunbul hayron bo'libdi, keyin bilsa, qush — davlat qushi ekan. Uni podsho saylash uchun uchirayotgan ekanlar. Sunbul bir daraxtning yoniga borib, unga suyanib turibdi, davlat qushini uchirishibdi. Qush uchib-uchib, aylanib yurib Sunbulning boshiga qo'nibdi. Xalq yopirilib kelibdi, qarasa, davlat qushi Sunbulning boshiga qo'ngan ekan.

Yurtning kattalari:

— Bu bizning odamimiz emas, bu bir musofirga o'xshaydi, qushimiz yanglishdi, — debdilar va qushni qaytadan uchi-ribdilar. Qush aylanib-aylanib, uchib yurib yana Sunbulning boshiga qo'nibdi. Odamlar kelib qarasa, qush yana Sunbulning boshiga qo'ngan emish. Qushni olibdilar. Bu safar Sunbulni shahar chetidagi bir uyga olib borib qamiab qo'yishibdi. Qaytib kelib qushni yana uchirishibdi. Qush osmonda

uchib yurib Sunbulni topolmay, shaharning chetiga uchib boribdi, Sunbul yotgan uyning ustiga qo'nibdi. Odamlar qushning orqasidan yugurib borib qarasalar, qush yana Sunbulning boshiga qo'nibdi. Odamlar hayron bo'libdilar. Ular-dan biri:

— Qush uch marta uchdi, har uchishida shu bolaning boshiga qo'ndi. Qoida bo'yicha shu bola podsho bo'lishi kerak, — debdi.

Xalq bu so'zni ma'qul topibdi. Sunbulni podsho qilib ko'tarishibdi. Sunbul podsho bo'lib turaversin, endi gapni boshqa tomondan eshititing.

Sunbul podsho bo'lgan shaharda bir ovchi bor ekan. U o'zimni yangi podshoga bir tanitib qo'yay, deb ovga chiqibdi. Yurib-yurib bir shahar yoniga kelib qolibdi, qarasa, bir tosh ustida katta oq qush qo'nib turgan emish. Qushni poylab otibdi. Qush yumalab tushibdi. Ovchi borib, qushni olmoqchi bo'lganida tosh orasidan bir bola chiqibdi. Qush yiqilgan zahotiyoy uning so'nggi nafasi Gulga kirgan ekan, Gul tirilib o'rnidan turibdi. Ovchi tirilgan boladan:

— Sen kimning bolasisan, bu yerda nima qilib yotgan eding? — deb so'rabdi. Gul:

— Biz aka-uka yetim edik. Akam Sunbul meni bu joyga qo'yib, o'zi non topib kelish uchun ketgan edi. Men akamni kutib uqlab qolibman, shu vaqtgacha kelgani yo'q, endi kelib qolar, — debdi. Ovchi Gulga tikilib, o'z yurtining podshosi Sunbulga o'xshatibdi. Sunbulning ukasi bo'lsa kerak, deb o'ylabdi. Unga Sunbulning podsho bo'lganini aytmasdan:

— Men seni Sunbul akang yoniga olib borib qo'yaman, yur, — debdi. Bolani otga mindirib, qushini olib, shaharga jo'nabdi. Kechqurun shaharga yetib kelishibdi. Ovchi bolani uyiga keltirib, bet-qollarini yuvib, yaxshi ovqatlar bilan mehmon qilibdi.

Qorong'i tushgach, ovchi:

— O'g'lim, bugun shu yerda yot, kech kirib qoldi. Ertaga men seni Sunbul yoniga olib boraman, — debdi. Gul rozi bo'libdi. Ovchi mehmonxonaga joy solib Gulni yotqizibdi. O'zi boshqa xonaga kirib yotib uxlabdi. Gul, uyqusi kelmay, o'ylab yotibdi, sekin eshikni ochib, ko'chaga chiqibdi. „Ko'chani bir tomosha qilay“, deb aylanib yurganda bir mirshab Gulni ko'rib: „Bu kechasi yurgan o'g'ri bola bo'lsa kerak“, deb tutib olibdi va olib borib zindonga tashlabdi. Yarim kecha bo'lganda ovchi uyg'onib, Gul uxladimikan, deb mehmonxonaga kirib qarabdi, qarasa, Gul joyida yo'q emish. Hovliga chiqsa, darvoza ochiq emish. Ko'chaga chiqib, ancha joygacha boribdi, bir mirshabni ko'ribdi, ovchi undan:

— Siz bir yosh bolani ko'rmadingizmi? — deb so'rabdi.

— Men ko'chada kezib yurganimda bir bolani ko'rdim. Uni kechasi yurgan o'g'ri bola bo'lsa kerak, deb qamab qo'ydim, — debdi. Ovchi:

— Yomon qilbsan, u bola podshohimizning ukasi edi. Podsho sening bu ishingdan xabar topsa, ikkovimizni ham jazolamay qo'ymaydi, — debdi. Mirshab qo'rqqanidan ovchiga aytibdi:

— Bo'lmasa, endi bu bolani yo'qotish kerak. Bolani bir namatga o'rab, xumdonning go'lohiga tashlaymiz, unda ku'yib o'ladi. Biz jazodan qutulamiz, —debdi. Ovchi:

— Darhaqiqat, shunday qilaylik, bo'lmasa, har ikkimizga ham yomon bo'ladi, — debdi. Mirshab yugurib borib bolani zindondan olib chiqibdi. Ovchi bir oq namat keltiribdi. Gulni namatga o'rab xumdonning go'lohiga tashlab ketishibdi. Ertasiga tongda bir xotin xumdondan olov olmoqchi bo'lib, go'lohnini kovlasa, bir namatning cheti ko'rinishibdi. „Bu nima ekan“ deb tortib, ichini ochib qarasa, bir chiroyli bola yotgan emish. Bolaning endigina oyog'i kuygan ekan. Xotinning rahmi kelib, xumdonga tashlagan odamlarni qarg'ab, bolani uyiga olib borib, uch oy parvarish qilibdi. Gul tuzalib o'rnidan turibdi.

Xotin ip yigirar ekan, kunlarning birida yigirgan ipini sotib kelish uchun o'z o'g'li bilan Gulni bozorga yuboribdi. Bolalar bozorda yurganda ovchi Gulni ko'rib, tanib qolibdi. Hovliqib mirshabning yoniga boribdi:

— Go'lohga tashlangan bola o'lmağan ekan, bozorda ip sotib o'tiribdi, — debdi. Mirshab kelib qarasa, bola haqiqatan o'tirgan ekan. U darhol bir xotinni chaqirib, qo'liga bir-muncha pul beribdi.

— Anavi ip sotib o'tirgan bolaning yoniga borib: „Iping necha pul?“ deb so'ragan bo'ling, birdaniga „voydod“ deb baqiring. Men yugurib borib: „Nima bo'ldi?“ deyman. Siz: „Bu bola meni haqorat qildi“ deng, — debdi. Xotin pul uchun hech narsadan qaytmaydigan beburd xotin ekan. U „Xo'p“

deb borib bolaning ipini so'rab turib, birdaniga „voydod“ deb yuboribdi. Mirshab yugurib borib:

— Nima bo'ldi? — debdi. Xotin:

— Mana bu bola meni haqorat qildi, — debdi. Mirshab darhol bolani sudrab olib borib, yana zindonga solibdi. Oradan besh-olti kun o'tibdi. Shaharda bir atoqli Sobirboy degan savdogar bor ekan.

Mirshab Sobirboyning savdoga jo'namoqchi bo'lganini eshitib, uning yoniga kelibdi:

— Sizni savdoga boradi deb eshitdim, zindonda bir yomon o'g'ri, muttaham bola bor. Shu bolani sizga arzon bahoga sotaman, uni ham olib keting-da, yo'lingizdagи ajda-hoga tashlang. Ilgari ajdahoga sigir yoki of tashlab ketgan bo'sangiz, bu safar shu bolani tashlab ketasiz. Shu yomon boladan hamma qutuladi. Bu bola necha marta zindonga tushgan bo'lsa ham o'g'rilagini tashlamadi, — debdi. Sobirboy:

— Ha, juda yaxshi, — debdi. Gulni arzon bahoga sotib olibdi. Shu kuni kechasi boy Gulni tuyaga o'tqazib, bir necha savdogar karvonlari bilan jo'nabdi. Yolda Gul otlarni boqib, sug'orib, choylarni qaynatib, tinmay xizmat qilibdi. Uning ishi boyga yoqib qolibdi. Sobirboy ajdaho yotgan joyga kelganda bir tuyani so'yib go'shtiniunga tashlab o'tib ketibdi. Uzoq shaharga borib, qirq tuyadagi mollarini sotib, ko'p foya qilibdi. Bir kun Sobirboy Gulning qo'liga pul berib:

— Bugun shaharni tomosha qilib kel. Ertaga kechasi o'z yurtimizga jo'naymiz, — debdi. Gul pulni olib, suyunib

chiqib ketibdi. Shaharni aylanib yurib, bir anhor bo'yiga kelibdi. Shu anhorda cho'milmoqchi bo'libdi. Qarasa, anhoring yonida juda katta, chiroylı bir imorat ham bor emish. Anhorning suvi tiniq, muzdek ekan. Gulning cho'milgisi kelibdi. Kiyimlarini yechib, cho'milibdi. Suvdan chiqib kiyimlarini kiyib tursa, bir qizil olma suvga tushibdi. Gul suvdan olmani olib chiqsa, yana bir olma tushibdi. Uni ham olib chiqsa, yana bittasi tushibdi. Gul bu olmani ham olib hayron bo'lib, kiyimlarini kiyib baland imoratning yuqori qavatlari ga qarasa, derazadan bir chiroylı qiz qarab turgan emish. Qiz Gulni „Beri keling“, deb imlabdi. Gul qiz turgan tomonga qarab yuribdi. Katta imoratning yoniga borishi bilanoq qiz ichkaridan chiqibdi. Qiz yigitni ko'rishi bilanoq qizarib, yerga qarabdi:

— Qayerdan bo'lasiz, bu yerda nima qilib yuribsiz? — deb so'rabdi. Yigit musofir ekanini, bir boyning xizmatkori bo'lib bu yerlarga kelib qolganini aytib beribdi. Qiz Gulga:

— Siz menga yoqib qoldingiz, olmani men tashlagan edim. Qani endi ikkimiz birga o'ynab, kulib yoursak, — debdi.

— Sizdek boyning qizi mendek musofir, kambag'al yigitga tegarmidi, qani endi sizga yetishsam, — debdi.

— Siz otamgasovchi yuboring. Otam sizdan faqat yetti xum tilla so'raydi, xolos, — debdi qiz.

Gul:

— Sizga aytdim-ku, kambag'alman deb, menda yetti xum tilla u yoqda tursin, yetti dona chaqa ham yo'q, — debdi. Qiz:

— Agar siz sevib, ko'ngil bersangiz sovchi yubora bering, hammasini o'zim to'g'rileyman, — debdi.

— So'zingizda tursangiz mayli, sovchi yuboraman, — debdi Gul.

— Bo'lmasa va'damiz ya'da! Siz otamga sovchi yuboring, mana bu kalitni oling! Otam yetti xum tilla so'rasha, falon yerda bir hovli bor. Hovliga kirsangiz bir uy bor. Uyning eshigini oching. Shu uyda mening yetti xum tillam bor, shuni olib otamga yuboring, — debdi qiz. Gul kalitni olib, boyning yoniga qaytibdi.

— Shaharni yaxshi tomosha qildingmi? — deb so'rabdi boy.

— Juda yaxshi tomosha qildim. Bir qizni yaxshi ko'rib qoldim, sizga malol kelmassa, o'shangang sovchi bo'lib borsangiz, — debdi. Sobirboy:

— Iye, esingni yedingmi, hech narsang bo'lmasa, qanday qilib uylanasan? — debdi boy. Gul:

— Boy bobo, tashvish tortmang, bir ilojini qilarman, sizni uyaltirmayman, — debdi. Boy:

— Unday bolsa, borib ko'ray, — deb qizning uyiga bir kishi bilan sovchi bo'lib boribdi. Qizning otasi:

— Qizimni beraman, lekin yetti xum tilla qalin bersangiz, — debdi. Sobirboy yetti xum tillaning daragini eshitib, qo'rqib o'rnidan turibdi:

— Xo'p, o'g'lim bilan gaplashib ko'rayin, — deb xayrlashibdi. Karvonsaroya hovliqqanicha yetib kelibdi. Gul uni ko'rishi bilanoq:

— Boy aka, qizning otasi nima dedi? — deb so'rabdi. Sobirboy zarda bilan:

— Nima der edi. Yetti xum tilla keltirsangiz, qizimni beraman, bo'lmasa ovora bo'lmanq, dedi. Hayron bo'lib qoldim. Men butun mol-mulkimni sotsam ham yetti xum tillaga ega bo'la olmayman, —debdi. Gul:

— Siz xafa bo'lmanq, boy bobo! Qizning otasiga yetti xum tillä topib beramiz, — debdi-da, qizning gaplarini aytibdi. Ikkovi birgalashib qiz aytgan uyga borishibdi, yetti xum tillani olib qizning otasiga berishibdi.

Boy to'y-tomosha qilib qizni Gulga beribdi. Qiz har kuni ertalab choy qo'yib, dasturxon tayyorlar ekan. Sobirboy Gul bilan qizning xizmatidan xursand ekan. Bir kuni Gul bilan qiz uqlab qolib, vaqtida choy qaynatmabdi. Boy ularni uyg'otish uchun Gul bilan qiz yotgan uyga kiribdi. Qizning chiroylilagini ko'rib, unga oshiq bo'lib qolibdi. Fikri buzilib: „Shunday chiroqli qiz mening malayimga teng emas. Bu qiz menga munosib ekan, qänday bo'lmasin, Gulni yo'qotib, qizni o'zim olishim kerak“, deb o'ylabdi. Ularni uyg'otib, o'zi turgan uyga kelibdi. Gul o'rnidan turib, tashqariga chiqibdi, chiqib otlarni sug'oribdi, qiz choy qaynatibdi. O'tirishib choy ichishibdi. Sobirboy choyni ichib bo'lib:

— Endi sizlar hamma narsani joylanglar. Men hozir bir aylanib kelaman, ertaga ertalab yo'lga chiqamiz, — debdi.

Gul bilan qiz bor narsalarini yig'ishtirishibdi. Sobirboy bir sandiqchining do'koniga borib, unga:

— Menga bir mustahkam sandiq yasab, kechasi karvon-saroya olib boring. Men sizni kutib o'tiraman, — debdi va saroyiga jo'nabdi.

Kechasi hamma uxlagandan keyin boy sandiqchini kutib o'tiribdi. Yarim kechada sandiqchi sandiqni olib kelibdi. Boy pul berib sandiqchini jo'natibdi, sandiqni Gul ko'rmaydigan bir joyga yashiribdi. Ertasiga tongda boy, Gul va qiz yo'lga chiqishibdi. Ikki kun yo'l bosib, bir joyda dam olish uchun to'xtashibdi. Gul bilan qiz uxbab qolibdi. Sobirboy Gulning oyoq-qo'llarini bog'lab, sandiqqa solib, daryoga tashlab oqizib yuboribdi, qizni esa o'zi bilan olib ketibdi.

Gul daryoda oqib-oqib, Sunbul podsho bo'lib yashayotgan shaharga kelib qolibdi. Daryo ikkiga bo'linib, bir qismi Sunbul podshoning bog'i dan o'tar ekan. Sandiq bog'ga oqib kirib bir joyda to'xtabdi. Tongda bog'bon suv olish uchun daryo bo'yiga kelgan ekan, ko'zi sandiqqa tushibdi. Darhol sandiqni suvdan sudrab chiqaribdi. Sandiqni ochib qarasa, bir chiroyli yigit holdan ketib, hushsiz bo'lib yotgan emish. Bog'bonning yigitga rahmi kelib, uni uyiga olib kirib, dori-darmon bilan parvarish qilibdi. Bog'bonning hech farzandi yo'q ekan. Gulni xuddi o'z farzandidek juda yaxshi ko'rib qolibdi. Oradan o'n kun o'tgandan keyin u sog'ayibdi. Bir kun bog'dagi gullardan terib, bir gulasta bog'lab, bog'bonga beribdi:

— Mana shu gulni podshohingizga olib boring. Podsho „Gulni kim bog'ladi?“ deb so'rasha, o'zim, deb ayting, — debdi.

Bog'bon gulni Sunbul podshoga olib boribdi. Sunbul gulni olib, u yoq-bu yog'ini ko'rib, hidlab:

- Bu gulni kim bog'ladı? — deb so'rabdi. Bog'bon:
— O'zim bog'ladim, — debdi. Sunbul:
— Rahmat! — deb gulni olib qolibdi. Bog'bon bog'ga qaytibdi. Sunbul gulni ko'rib, ukasi Gul esiga tushib juda xafa bo'libdi. „Ukam xuddi shunday gul bog'lar edi. Bu gulni ukam bog'lamadimikin, deb o'ylabdi. Yana „Yo'q, ukamni o'zim toshlar orasiga ko'mib kelgan edim-ku“, deb o'ksinib yig'labdi.


Kunlarning birida Gul ko'chaga chiqib aylanib yursa, odamlar u yoq-bu yoqqa ot chopishib, tomosha qilib yurishgan emish. Gul uyga kirib bog'bondan so'rabdi:

- Bobo, nima uchun odamlar ot chopib, tomosha qilib yuribdilar? — debdi. Bog'bon:

— E, bolam, shahrimizda Sobirboy degan katta savdogar bor. U savdogar borib bir qizni olib kelgan ekan. Shu qizni olmoqchi. Qiz „Meni oladigan bo'lsangiz, qirq kun to'y-tomosha qilib bering. Shunda bu taklifingizga ko'naman“, degan ekan. Boy to'y-tomosha berayotir. Bugun shu to'yning boshlanganiga o'ttiz sakkiz kun bo'ldi, — debdi.

Gul xotinining Sobirboyga tegmoqchi bo'lганини eshitib juda qayg'uribdi. Kechasi o'ylab, uxlamabdi. Tong otibdi. Gul bog'dagi eng ajoyib xushbo'y gullardan bir dasta yasabdi. Nonushta vaqtida bog'bonga aytibdi:

- Ota, men sizga bir ish aysam, qilasizmi? — debdi.
— Qani ayt, bolam, bajaraman, — debdi chol.
— Siz qalandar kiyimini kiyib, eshakka mining, qo'yningizga mana bu guldastani solib, boyning uyiga boring. Qiz



yoningizga chiqsa, qo'yningizdagи gulni hech kimga ko'rsatmay qizga bering. „Gul o'zi bormi?“, deb so'rasha, „Bor“ deb ayting, — debdi.

Bog'bon qalandar kiyimini kiyib, eshakka minib, Gul yasab bergen glandastani olib, qo'yniga solib, Sobirboyning eshigiga gadoy suratida boribdi.

— Haq, Olloh, — debdi. Qiz uydan yugurib non ko'tarib chiqibdi.

Bog'bonga nonni uzatganida bog'bon qo'ynidan gulni chiqarib qizga beribdi. Qiz glandastani ko'rib tanibdi.

— Gul o'zi bormi? — deb so'rabi. Bog'bon:

— Bor, sog'-salomat yuribdi, — debdi. Qiz suyunib:

— Unday bo'lsa, bugun Gulni olib kelng, — debdi.

Bog'bon uyiga qaytib qizning so'zlarini Gulga aytibdi. Shu kunning o'zida Gul ham qalandar kiyimini kiyib bog'bon bilan birga Sobirboyning eshigiga borishibdi. Qiz suyunib, ularni uyiga olib kiribdi, Gul bilan qiz bir-biri bilan ko'rishib, yig'lashibdi.

— Men boyga qirq kun to'y qilsangiz tegaman, dedim. Qirq kun ichida sizdan xabar toparman, deb o'yladim. Endi ko'rishdik. Ertaga qirq kun to'ladi. Kechqurun nikoh o'qitadi. Endi menga maslahat bering, nima qilay, nima qilsam boydan qutulib, yana ikkimiz birga bo'lamiz? — deb so'rabi qiz. Gul o'ylab-o'ylab turib:

— Ertaga qirq kun ham to'lsin, nikoh qilish oldidan odamlarga ayting: „Boy akam qirq kun to'y qildi. Endi yana bir shartim bor: shuni bajarsa tegaman, shartim shundan

iboratki, Sunbul bilan Gul hikoyasini aytib bersin. Agar o'zi aytib bera olmasa, uni biladigan biror kishi topsin". Buni hech kim bilmaydi, o'zim aytaman, — debdi. Qiz:

— Xo'p, aytaman, — debdi. Ular xayrlashib, bog'bon bilan Gul uylariga jo'nabdi. To'y-tomoshaga qirq kun to'libdi. Nikoh qilish oldidan qiz chiqib, xalqqa qarab, Gul o'rgatgan gaplarni aytibdi. Sobirboy bu hikoyani bilmaganidan xafa bo'lib, qizning gaplarini Sunbul shohga borib aytibdi. Podsho hayron bo'lib:

— Mayli, ertaga shaharga butun xalqni yig'ib so'raylik: oradan biror kishi chiqib, aytib berar, — debdi. Qirq birinchi kuni Sunbul shoh butun xalqni yig'ib:

— „Sunbul bilan Gul“ hikoyasini kim biladi? — deb so'rabdi. Ular orasida bu hikoyani biladigan hech kim yo'q ekan. Podsho:

— Bu yerga kelmagan hech odam qoldimi? — debdi. Bir odam chiqib:

— Podshohim, sizning bog'boningiz bilan uning uyida turadigan bir tozi bola qoldi, — debdi.

Sunbul darhol odam yuborib ularni keltiribdi. Gul esa kiyim kiyib tozi qiyofasida kelgani uchun uni Sunbul tanimabdi. Gul Sunbulni tanibdi. Sunbul Guldan:

— „Sunbul bilan Gul“ hikoyasini bilasanmi? — deb so'rabdi. Gul:

— Bilaman, — debdi.

Gul o'zining boshidan o'tganlarni birma-bir hikoya qilib beribdi. Birinchi marta tosh orasidan chiqarib, bu shaharga

olib kelgan ovchini o'z yoniga chaqiribdi. Ovchi Gul yoniga kelib o'tiribdi. Gul hikoyasini davom ettirib, mirshabni chaqiribdi. Mirshab ham Gul yoniga kelib o'tiribdi. Yana hikoyasini davom ettiribdi, so'ngra Sobirboyni chaqirib, yoniga o'tqazibdi. Ovchi, mirshab, Sobirboy qo'rqqanlaridan dag'-dag' titrab o'tiribdilar.

Gul hikoyasini davom ettirib, tamom qilish oldida xum-dondan o'zini qutultirib, parvarish qilgan xotinni, suvdan, sandiqdan olib tarbiya qilgan bog'bonni yoniga chaqirib olibdi.

— Endi hikoyam tamom. Menga yaxshilik qilganlar mana shu xotin bilan bog'bon, yomonlik qilganlar ovchi, mirshab ikkovi, — deb ko'rsatibdi. — Mening xotinimni olmoqchi bo'lib, meni suvga oqizgan, qirq kun to'y-tomosha qilgan savdogar Sobirboy mana shu, — deb uni ham ko'rsatibdi. — Men tozi, qalandar bola emasman. Men mana shu Gul degan bolaning o'ziman. Men Sunbul deb atagan akam — Siz, podshohim, — deb kiyimlarini yechib, boshidagi yasma tozini olib tashlabdi. Sunbul ukasi bilan quchoqlashib ko'rishibdi. Darhol ovchi, mirshab va Sobirboyni dorga ostiribdi. Bog'bon bilan xumdondan qutqarib olgan xotinga rahmat aytib, ularga tillalar beribdi; ularni yaxshi imoratlarga o'tqazib, izzat-hurmat qilibdi. Xotin bilan bog'bon Sunbul bilan Gulga ona va ota bo'libdi. Gul Sunbulga vazir bo'libdi. Aka-uka murod-maqsadlariga yetibdilar.

BOYVACHCHA BILAN PARI

Bor ekan, yo'q ekan, och ekan, to'q ekan, bir boy bor ekan. U boyning uch o'g'li bor ekan. O'g'il lar voyaga yetgach, boy avval ikki o'g'lini uylan-tirib, uy-joyli qilibdi. Keyin kenja o'g'lini uylan-tirmoqchi bo'libdi. Kenja o'g'il Sari yoy otar ekan. Bir kuni Sari yoy olib, oy ovlab yurgan ekan, bir yerdan bir tustovuq uchib, tog'ning kamariqa qarab ketaveribdi. Kenja o'g'il tustovuqning orqasidan bir o'qni kamonga solib otibdi, o'qi tustovuqqa tegmabdi. Tustovuq bir g'orga kirib ketibdi. Kenja o'g'il Sari yoyning o'qini olayin deb g'orga kiribdi. Borib ko'rsa, g'or parilarning makoni ekan. Shu orada bir yoshgina pari qiz kelib, uning qo'lidan ushlab, yetaklab ketibdi. Yigit g'orning ichida parilarga qo'shilib qirq kun yuribdi. Qirq kundan keyin yigitning qo'lidan ushlab g'orning ichiga olib kirgan pari qiz aytibdi:

- E yigit, sen qaysi yurtdan bo'lasan?
- Men falon yurtdan bo'laman, — debdi kenja o'g'il. Pari yana so'rabdi:
- Sening ota-onang, qarindosh-urug'ing bormii?
- Ha, otam, enam, ikki akam bor, boshqa qarindoshlarim ham bor, — debdi yigit.

— Unday bo'lsa, endi sen yurtingga borib, otangga: „Ey ota, menga bir ravot solib bering!“ degin. Otang: „Ravotni nima qilasan, o'g'lim?“ desa, „O'zim kirib-chiqib yuraman“, degin, — debdi pari.

Pari bu gaplarni o'rgatib, yigitni o'z yurtiga jo'natibdi. Kenja o'g'il uyiga kelgach, otasi bilan ko'rishib, so'rashib o'tiribdi.

Yigit otasiga aytibdi:

- Ota, menga bir katta ravot solib bering!
- O'g'lim, senga ravotning nima keragi bor? Avval uylangin, joylangin, undan keyin ravot qurib beraman-da, bolam, — debdi otasi. Kenja o'g'il:
- E ota, uyim-joyim bo'lmasa ham o'zim kirib-chiqib yuraman-da, — debdi. Boy:

— Xo'p, o'g'lim, — debdi va ustalarни olib kelib, bir yaxshi ravot solib beribdi.

— Ana, o'g'lim, ravot bitdi, — debdi boy. Kenja o'g'il tag'in yoy olib ovga chiqib ketibdi. Aylanib-aylanib, yana parilar yashaydigan g'orga boribdi. Yigitni pari qiz kutib o'tirgan ekan. Uni ko'rishi bilanoq yana qo'lidan ushlab, yetaklab, ichkariga olib kiribdi. Yigit pari qiz bilan o'ynab-kulib yuraveribdi. Bir necha kun o'tgach, yigit pariga aytibdi:

- Endi men ketaman, — debdi. Pari aytibdi:
- Ketsang, otangga borib, „Ota, bu ravotning ichiga oq o'tov tikib bering“, — degin. Yigit pari bilan xo'shlashib, uyiga jo'nabdi. Boyvachcha uyiga borib otasiga aytibdi:
- Ota, ravotning ichiga bir oq o'tov tikib bering!

— Xotining bo'lmasa, o'tovni nima qilasan, o'g'lim? — debdi otasi.

— O'zim unda yotib yuraman-da, — debdi yigit.

— Ha, durust, — debdi boy va bir oq o'tov tikib beribdi.

Boy o'g'liga aytibdi:

— O'g'lim, mana, o'toving ham bitdi.

Yigit yana yoyni olib, ovga chiqib, parilar turadigan g'orga boribdi. Pari qiz yigitni kutib o'tirgan ekan, uni ko'rishi bilanoq oldiga kelib:

— O'tov tikdingizmi? — deb so'rabdi. Yigit:

— O'tov ham tayyor bo'ldi; — debdi. Pari:

— O'tov bitgan bo'lsa, yuring endi boraylik, — deb yo'lga chiqishibdi.

Pari qiz yigit bilan birga ravotga kelib, oq o'tovga kiribdi. Ular har ikkisi er-xotin bo'lib yashay beribdilar. Pari qizning odati qiziq ekan, u odamlarning ko'ziga mushuk bo'lib, kenja o'g'ilning ko'ziga pari qiz bo'lib ko'rinar ekan.

Kunlardan bir kuni yigitning otasi o'z ko'nglida: „Borib o'g'limdan bir xabar olayin, ravotda nima qilar ekan, bir bilib kelayin“, deb ravotga boribdi. O'tovga kirib qarasa, kenja o'g'li bir o'zi o'tirgan emish, yonboshida esa bir mushuk bor emish.

Boy o'g'lidan:

— Bolam, nima qilib o'tiribsan? — deb so'rabdi.

— Ota, ichkari kiraman, tashqari chiqaman, mana bu mushugim bor, shu bilan ovunib o'tiribman-da, — deb javob beribdi yigit.

Boy o'g'li bilan biroz so'zlashib o'tirib, uyiga ketibdi.

Oradan to'rt-besh kun o'tibdi, shunda pari yigitga:

— Otangizning uyiga borib, bosh yuvish uchun bir jom olib keling, — debdi.

Yigit uyiga borib jomni olibdi va katta akasining xotinidan bir piyola qatiq so'rabdi. Kelinoyisi bir piyola qatiq beribdi. Yigit ravotga qatiq olib kelibdi.

Pari aytibdi:

— Bir piyola qatiq bosh yuvish uchun yetadimi? Ko'proq olib kelsangiz bo'lardi. Hali ham bo'lsa borib, yana qatiq olib keling, — debdi. Yigit borib yana kelinoyisidan bir kosa qatiq olib kelibdi.

Pari aytibdi:

— Bosh yuvish ham o'yinchoqmi? Boring, bir korson qatiq olib keling, — debdi. Yigit borib bir korson qatiq olib kelibdi.

Pari boshini yuvmoqchi bo'lib, yigitga:

— Endi siz eshikka chiqib turing, — debdi. Yigit eshikka chiqib turibdi.

Pari sochini yozib, bir sandalning ustiga chiqib yuva beribdi. Yigit ko'nglida: bir ko'rayin, parining sochi qanday bo'lar ekan? — deb o'ylabdi. Sekin bildirmay, o'tovning bir kichik teshigidan qarabdi. Ko'rsa, parining o'zi sandalning ustida tikka turibdi, sochi esa yerga tegyapti.

„E, parining sochiga ko'p qatiq ketganicha bor ekan“, deb o'ylabdi. U pari boshini yuvib bo'lgandan so'ng o'tovga kiribdi. Yigit pari bilan o'ynab-kulib yura beribdi.

Kunlardan bir kuni yigitning otasi ravotga kelib, o'g'lim nima qilib o'tirgan ekan, deb sekin o'tovga qarabdi. O'tov ichida o'g'li bilan bir pari o'tirgan emish, uning husni atrofni yoritib turgan emish. Uning jamoli hatto qorong'i kechani ham yoritar emish. Boy ichidan quvonib ketibdi.

— Bolapaqir ravot bilan o'tovga loyiq xotin topib olib-di, — deb dimog'i chog' bo'lib, kelganini ularga bildirmay, indamasdan uyiga qaytib ketibdi.

Kundan-kun, oydan-oy, yildan-yil o'tibdi. Boyning bir qarindoshi to'y qilmoqchi bo'libdi. Boy to'yga non yoptirib yuborish uchun ikki o'g'liga bir botmondan ikki botmon un, sarpo qilib yuborish uchun bir qancha mato beribdi. Buni eshitgan pari kelin yigitga:

— Siz ham borib otangizdan un, tikish uchun mato olib keling, — debdi. Yigit:

— Siz pari bo'lsangiz, nonni qanday qilib yopasiz? Matoni qanday qilib tikasiz? Otam „Nima qilasan?“ deb so'rasha, men nima deb javob beraman? — debdi. Pari aytibdi:

— Unni bir amallab kumoch qilib berarmiz, matoni esa yo'rmasi yirik bo'lsa ham bir amallab kiyim qilib berarmiz.

Yigit uyiga borib otasiga aytibdi:

— Bizga ham un, mato bering.

Buni eshitgan kelinoyilaridan biri:

— Hoy boyvachcha, xotiningiz bo'lmasa, unni qanday qilib non qildirasiz, sarponi qanday qilib tikasiz? — debdi.

Yigit ularga xotinining so'zini aytibdi, un va matoni olib, ravotga qaytibdi. Yigit xomush bo'lib pariga aytibdi:

— Aytganlaringizni olib keldim. Endi nonni qanday yopamiz, matodan kiyimlarni qanday tikamiz?

Pari:

— Sizning bu un va sarpo tikishlar bilan ishingiz bo'lmasin! Siz o'zingiz ko'rgan g'orga borib, ichkari kirmay, „Hoy, parilar, o, parilar, orangizda yaxshi non yopuvchi novvoylar, yaxshi kiyim tikuvchilar mening yonimga kelaveringlar!“ deb chaqiring, ular ichkaridan chiqib, „Yigit, kelavering“, deydilar. Siz ichkari kirmay, orqaga qaytasiz, — debdi.

Tong otibdi. Yigit Sari yoyni olib, g'orga qarab jo'nabdi. Yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi, ertasi choshgohda g'orga yetibdi. Yigit g'orning og'ziga borib:

— Hoy, hoy parilar, o, parilar, yaxshi non yopuvchi novvoylar, yaxshi kiyim tikuvchilar mening yonimga kelaveringlar! — debdi.

Parilar chiqib yigitga:

— Ichkariga kira bering, — deyishibdi, yigit ichkari kirmay, orqasiga qaytibdi. Bir kecha-yu bir kunduz yo'l yurib ravotga qaytib kelibdi.

Pari so'rabdi:

— Aytib keldingizmi?

— Aytib keldim, — deb javob beribdi yigit. Orqasidan ikki pari kelib, bir uy unni xamir qilib non yopibdi. Yana bir uy matodan to'n va har xil kiyim-kechaklar tikibdi. Kelgan parilar ishni tugatib, yana g'orga qaytib ketishibdi. Er-xotin esa, kiyimlarni berkitib, nonni yaxshilab taxlab qo'yishibdi.

Boyning katta kelinlari maslahat qilib:

- Boyvachcha nima qilib yotgan ekan, borib bir xabar olib kelaylik, — deyishibdi. Ikki katta kelin ravotga yaqin borib qarashsa, kenja o'g'il pari bilan ikkovi o'tovda gaplashib o'tirgan emish. Ular ichkari kirib o'tirgach:
- Olib kelgan narsalaringizni nima qildingizlar? —deb so'rabdilar.

Pari esa:

- Unni ko'moch qildik, matolarni ham ulay-bulay qilib, tikib qo'ydik, — deb javob beribdi.

Katta kelinlaridan biri paridan so'rabdi:

- To'yga siz nima kiyib borasiz? Boshingizga nima yopinasiz?

Pari aytibdi:

- Men qog'ozdan qilingan ko'ylak, kamzul kiyib, qog'ozdan qilingan paranji yopinib boraman.

Katta kelinlar uyg'a qaytishibdi: „Bizlar ham shunday qilamiz?“ deb o'ylab, unni ko'moch qilib, matolardan kiyim tikishib, chokini yirik yo'rma qilishibdi.

Xayr, qissani kalta qilmoq kerak. Boyning qarindoshi to'yga aytuvchi yuboribdi.

Hamma to'yga jo'namoqchi bo'libdi.

Boyning kichkina kelini chiroyli patir nonlarni, etagi keng burmali, yoqasi ravon tikilgan kiyim-kechaklarni bir qopga solib, og'zini bo'g'ib tayyorlab qo'yibdi. O'zi esa shohi kimxob, adres kiyimlarni kiyib, uning ustidan qog'ozdan yasalgan liboslarni kiyib, tayyor bo'lib o'tiribdi.

Endi ikki og‘iz so‘zni boyning katta kelinlaridan eshititing. Boyning ikki katta kelini ham qilgan ko‘mochlarini bir qopga, tikilgan kiyimlarni ikkinchi qopga solib tayyorlab qo‘yibdilar. Ular hech qanday libos kiymay qog‘ozdan yasalgan liboslarnigina kiyib, tayyorlanib turibdilar.

Boy ot-arava qilib, uch kelinni bir aravaga, boshqa narsalarni ikkinchi bir aravaga solib, to‘yga jo‘nabdi.

Yo‘lda birdan shamol turib to‘polon bo‘lib, havoga bir qora bulut chiqibdi, yomg‘ir quya boshlabdi. Kelinlarning qog‘ozdan yasalgan liboslari ivib, ustlaridan tushib ketibdi. Parining qog‘oz libosi ostidan kiyimi yarqirab ko‘rinibdi, uning husniga husn qo‘shibdi.

Ikki katta kelin birday kiyimsiz bo‘lib qolibdilar. Ular shunday sharmandagarchilik bilan to‘yxonaga yetib borishibdi. Boyning o‘g‘illari ikki kelinni bu ahvolda ko‘rib, uyalib, kelinlarga darrov ust-bosh berib, kiyintirib qo‘yishibdi.

O‘g‘il va kelinlar to‘yxonaga kirib, uy egasini chaqirib „To‘y qutlug‘ bo‘lsin“, deyishibdi. Har qaysi kelin o‘zi yopib kelgan nonni, tikib kelgan kiyimlarini ko‘rsatmoqchi bo‘lishibdi.

Avval boshlab boyning ikki katta kelini yopib kelgan nonlarini ko‘rsatishibdi. To‘yxonadagilar qarashsa, hammasi kulga o‘xshagan ko‘moch emish, tikib kelgan kiyimlarini ko‘rsatishibdi, qarashsa, kiyimlar ham rasvo, kiyib bo‘lmaydigan emish.

Navbat boyning pari keliniga yetibdi. Bu ham yopib kelgan nonlarini, tikib kelgan kiyim-kechaklarini birma-bir ko‘rsatibdi.

Nonlari novvoyning nonidan ham chiroyli, kiyimlari us-ta tikuvchilarning kiyimlaridan ham go'zal tikelgan emish. To'yxonadagi hamma odamlar bu kiyimlarni va nonlarni ko'rib hayron bo'lib tomosha qilibdilar. To'yxonadagi bir odam boydan:

— Kichkina o'g'lingizni qayerdan uylantirgansiz, boy bobo? — deb so'rabdi.

— Narigi qishloqdag'i bir kambag'alning qizi, — debdi boy.

Kech bo'lgach, boy o'g'illari bilan bir uyda yotibdi. Kelin-lar boshqa bir uyda yotibdi. Hamma yotgandan keyin boy kichkina o'g'lini bir ovloqqa chaqirib olib sekin so'rabdi:

— Bolam, ayolingning mushuk libosini qayerga qo'y-gansan?

— So'rab nima qilasiz, ota? — debdi kenja o'g'il.

— Ey bolam, so'rayman-da, — deb javob beribdi chol. Kenja o'g'il gapni chalg'itibdi. Boy hech aytmaganiga qo'ymabdi. Oxiri kenja o'g'il aytibdi:

— Parining mushuk teri libosini bo'z otning chelgisi¹ orasiga qo'yanman.

Boy bo'z otning chelgisi orasidan parining mushuk libo-sini olib, o'tga tashlabdi. Mushuk libosining kuygan isi pa-rining dimog'iga uribdi.

Pari bir kishiga:

— Mening erimni chaqirib keling! — debdi. U topib ke-libdi.

¹ Chelik — otning yopinchig'i.

Kenja o'g'il xotinining yoniga kelib:

- Ha, nima deysan? — deb so'rabdi. Pari aytibdi:
- Ey yigit, endi qirq botmon temirdan hassa yasaysan, qirq botmon temirdan choriq tikasan, hassang juvoldizday bo'lguncha, chorig'ing g'alvirday bo'lguncha meni izlaysan. Endi sen menga yo'q, men senga yo'q, — deb bir parvoz qilib, o'tovning tuynugidan chiqib ketibdi. Kenja o'g'il chapak chalib qolaveribdi.

Tong otibdi, to'y tarqabdi, mehmonlarning har qaysisi uy-uyiga ketibdi. Boy ham o'g'illari bilan uyiga qaytibdi. Kenja o'g'il qirq botmon temirdan hassa qilib, qirq botmon temirdan choriq qilib kiyib olibdi.

Endi kenja o'g'il parini izlab yuraversin, gapni boydan eshiting.

Kundan-kun, oydan-oy, yildan-yil o'tibdi.

Bir kun boy aytibdi:

- O'g'limning yo'q bo'lganiga uch yil bo'ldi, buning bor-yo'qligini bilayin, agar yo'q bo'lsa, xatmi qur'on qilayin, — debdi. To'rt yoqqa to'rt odam yuboribdi. Har qaysisi bir oylik oziq olib chiqib ketibdi. Izlab-izlab, o'ttiz besh kun deganda to'rttovi to'rt yoqdan qaytib, boyning oldiga kelibdi. Boy ular bilan so'rashgandan keyin:

— Hech xabar topdilaringmi? — deb so'rabdi.

Ulardan biri javob beribdi:

- Ey boy bobo, o'g'lingizning ketganiga uch yildan oshib borayotir. Bor bo'lsa, qayerda bo'lsa ham kelar edi. Endi u yog'ini o'zingiz bilasiz, — debdi.

Boy katta o‘g‘illari bilan o‘ylashib, kengashib, qishlog‘ining katta-kichigini yig‘ib, o‘g‘lining xudoyisini o‘tkazibdi.

Bular xudoyi qila tursin, endi ikki og‘iz so‘zni kenja o‘g‘ildan eshitting.

Kenja o‘g‘il tog‘, sahro, dasht-biyobonlarni kezibdi. Kunlardan bir kuni yurib-yurib, yo‘li bir ravot yonidan tushib qolibdi. Ravotning yonida bir sarhovuz bor ekan. Suvtalab bo‘lgan yigit bir dam nafasimni rostlab olayin deb, haligi hovuzning labiga borib o‘tiribdi. Shu orada ravotdan bir bola chiqib, qo‘lidagi obdastani hovuzdan to‘ldirib olibdi. U ketayotganida yigit bolani chaqiribdi:

— Ey bola, suvingni olib kel, bir ichib olayin...

Bola:

— Sen qanday odamsan, oldingda suv turibdi-ku, menga suv ber deysan, — deb ketaveribdi.

— Shu obdastangdagi suv qon bo‘lib qolsin! —debdi yigit.

Bu ravotda yalmog‘iz kampir yashar ekan. Suv olib kirib ketgan bola kampirning xizmatkori ekan. Yigitning izlab yurgan parisi ham shu yerda ekan. Pari bolani suvgaga chiqargan ekan. Bola suvni olib kirganda: „Quy qo‘limga!“ debdi pari. Bola quyibdi, parining qo‘liga suv emas, qip-qizil qon quyilibdi. Pari:

— Ha, juvonmarg, men senga suv olib kel desam, qon olib kelibsanda, — debdi. Bola hayron bo‘libdi. Yana hovuzga suv olish uchun chiqibdi. Bola obdastani chayqab-chayqab tashlab, yana to‘ldirib suv olib qaytibdi.

Buni ko'rib turgan yigit:

— Hay bola, obdastangni olib kel, suvingdan bir ichib olayin, — debdi.

— Ey, sen qanday odamsan, oldingda hovuz turib, suv tilaysan, ichsang hovuzdan ichaver-da, —deb suvni olib ketaveribdi.

— Shu suving yiring bo'lib quyilsin, — debdi yigit. Bola suvni ichkariga olib kiribdi.

Pari:

— Quy qo'llimga! — debdi. Bola suvni parining qo'lliga quyibdi.

Suv yiring bo'lib quyilibdi. Pari bolani urishib:

— Juvonmarg, sen bunday emasding-ku, senga bir balo bo'ldimi, hali qon to'ldirib kelasan, hali yiring to'ldirib kelasan, hovuzning labida nima bor? Ayt! —deb bir-ikki tarsaki uribdi. Bola:

— Hovuzning labida bir yigit o'tiribdi, men har safar suv olib ketayotganimda „Hay bola, suvingni olib kel, bir ichib olayin“ deb, mendan suv so'raydi. Men unga suv bermay, olib kelaman, — debdi.

— Bor, endi u suv so'rasha, ichirib olib kel, —debdi pari.

Bola yana obdastani chayqab-chayqab, hovuzdan toza suv olib kelayotganda yigit chaqirib:

— Hoy bola, obdastangni olib kel, suvingdan bir ichib olayin, — debdi. Bola bu safar obdastadagi suvni yigitga tutibdi. Yigitning qo'lida parining bir uzugi bor ekan, shu uzukni obdasta ichiga tashlab yuboribdi.

Yigit so'rabdi.

— Ey bola, bu suvni nima qilasan?

Bola:

— Opamning qo'liga quyaman, — debdi.

Yigit bolaga o'rgatibdi:

— Opangning qo'liga quysang, avval jinday tomiz, „Quy“ desa, yana biroz tomiz. „Durustroq quy“ desa, obdastadagi hamma suvni ag'darib yubor, —debdi. Bola suvni olib kirib, parining qo'liga quya boshlabdi. Bu safargi suvda na qon bor, na yiring, top-toza tiniq suv emish.

Pari:

— Quy! — debdi. Bola sekingina ikki tomchi quyibdi.

Pari:

— Tuzukroq quysang-chi, senga bir balo bo'ldimi? Il-gari bunday emasding-ku! — debdi. Bola obdastani ag'darib yuboribdi. Yigitning obdastaga solgan uzugi parining qo'liga tushibdi. Bu uzukni pari tanibdi. O'zining uzugini bolaga bildirmay qo'liga taqib olibdi. Pari bolani bir yoqqa ishga buyuribdi. Yalmog'iz kampirning yo'qligidan foydalanib, pari ravotdan chiqib qarasa, yigit hovuz bo'yida o'tirgan emish. Uni chaqirib olibdi, ravotga olib kirib, sandiqqa solib berkitib qo'yibdi. Kech bo'libdi, yalmog'iz kampir daladan qaytibdi.

Atrofga qarab, alanglab:

— Bu nimasi? Ravotdan odam isi kelyapti. Bunda odamzod bormi? — debdi u.

Pari:

— Bu yerda odamzod nima qiladi, sizning makoningizga odamzodning kelishga haddi bormi? — deb javob beribdi. Yalmog‘iz kampir indamay qolibdi.

Kampir har kuni ertalab chiqib ketar ekan. Pari bolsa yigitni sandiqdan chiqarib olib, gaplashib o‘tirar ekan. Kunlardan bir kuni pari yigitdan so‘rabdi:

— Ey yigit, nega ranging sariq, senga bir sitam o‘tdimi?

— Ey, nozanin, — debdi yigit, — endi men shunday qilib yuraveramanmi? Umrimning yarmidan ko‘pi seni deb sarsongarchilikda o‘tib borayotibdi, bu yerdan bir iloj qilib ketishni o‘ylasang-chi!

Pari:

— Ey yigit, men ham ketmoqning payidaman, biroz sabr qilaylik, — debdi.

— Ey parizod, agar bugun-erta bir iloj qilib ketmasak, diqqatim oshib sil bo‘laman, — debdi yigit. Pari:

— Hoy yigit, yana aytaman: sabr qil, oyning o‘n beshi qorong‘i bo‘lsa, o‘n beshi yorug‘, — deb eriga dildorlik qilibdi.

Kech bo‘lib, yalmog‘iz kampir kelib, damini olib o‘tiribi-da:

— Hoy bolalarim, o‘tiribsizlarmi? — debdi. Biroz o‘tgach, yana so‘zlabdi: — Ravotdan odamzodning hidi keladi. Sen parizod nima uchundir buning sababini menga aytmaysan.

Pari aytibdi:

— Ena, bir qoshiq qonimdan kechsang, aytardim.

— Ha, ayta qol, bolam. Qancha gunohing bo'lsa, kechdim, — debdi kampir. Shunda pari:

— Enajon, meni olib kelgan vaqtingizda, o'n besh yosli sag'ir ukam qolgan edi. Katta bo'lib, meni izlab kelgan ekan. Qancha kunlardan beri sizdan qo'rqib, sandiqqa solib yashirib yuribman. Mehribonchilik qilsangiz, shu birgina ukam sizning davlatingizda yursa, — deb, iltimos qilibdi. Yalmog'iz kampir:

— Xo'p, mayli, bolam, bu odam yursa, yursin, — debdi-da, ko'nglida „Buni ham baribir o'ldiraman-da“, deb o'yabdi.

Kunlar o'ta boshlabdi. Qurg'ur yalmog'iz kampirning rusumi shunday ekan: har kuni yigitning tizzasiga boshini qo'yib, uning qonini so'rib yotar ekan. Yalmog'iz biror kim-saning qonini so'rsa, besh-o'n kunda uni o'ldirar ekan. Yigit holdan toya boshlabdi, u zorlanib holdan ketayotganini aytib: „Endi nima qilamiz, buning ilojini qilmasak bo'lmaydi“, debdi. Pari aytibdi:

— Buning ilojini men senga aytay, sen men aytganimdek qil. Yalmog'iz kampirning bir tuyasi, bir kuchugi bor, hamma vaqt kuchugiga somon berib, tuyasiga esa suyak tashlaydi. Yana bir uyi bor, u uyning ikki eshigi bor. To'rdagi eshik hamma vaqt yopiq turadi. Poygohdag'i eshik esa ochiq turadi. Uyning o'rtasida bir ustun bor. Uyning tokchasida bir oyna, bir qaychi, bir taroq turadi. Ey yigit, bugun yalmog'iz dalladan qaytib, uyga kirib o'tirganda tuyasiga somon, kuchugiga suyak tashlab qo'y. Eshikning to'rdagisini ochib, poygohidagisini yopib qo'ygin-da, o'zing ustunning tagiga borib o'tir.

Shunda yalmog‘iz kampir: „Kel, boshimni qarab qo‘y“, desa, sen: „Ey ona, o‘zim charchab turibman, o‘zingiz kela qoling“, deb ayt. Kampir kelib tizzangga boshini qo‘yib uxlaganida sen uning sochini ustunga o‘rab, mahkamlab bog‘la. Butun sochini bog‘lab bo‘lgach, sekin o‘rningdan turib, tokchadagi oynani, taroqni, qaychini olib qo‘yningga sol. To‘rdagi eshikdan chiq. Men tashqarida seni kutib turaman. Ikkimiz birgashib qochib ketamiz, — debdi.

Biroz o‘tgach, yalmog‘iz kampir uyga kirib:



— Ey bolalarim, bugun men ko‘p charchadim, tuya bilan kuchukka ýaxshi qaranglar! — deb ust-boshini yechib, yon-boshlab yotibdi. Yigit tuyaning oldiga somon, kuchukning oldiga suyak tashlab qo‘yibdi. So‘ngra to‘rdagi eshikni ochib, poygohdagi eshikni yopib, o‘zi ustunning tagiga borib o‘tiridi. Shunda yalmog‘iz yigitga qarab:

— Kel, bolam, boshimni qarab qo‘y! — debdi. Yigit:
 — Ey ona, o‘zim charchab turibman, o‘zingiz kela qoling,
 — debdi. Kampir kelib yigitning tizzasiga boshini qo‘yibdi. Kampirning ko‘zi ilinibdi.

Yigit: „Ha, palla-palla, shu palla“, deb kampirning sochini ustunga o‘rab, mahkam bog‘labdi. Kampirning boshini sekin tizzasidan olib, yerga qo‘yib, taroq, oyna va qaychini olib, qo‘yniga solib, to‘rdagi eshikdan tashqari chiqibdi.

Kampir birdan uyg‘onib:

— Yopil, eshigim, yopil, — debdi. Eshik esa:
 — Men nega yopilayin, hamisha meni yopib qo‘yar eding, — debdi.



Kampir poygohdagi eshigiga qarab:

— Ochil, eshigim, ochil, — debdi.

Eshik:

— Men nega ochilayin, meni hamisha ochib qo'yar eding, — deb javob beribdi. Yalmog'iz ichkaridan:

— Ol, tuyam, ol! — deb baqiribdi. Tuya:

— Men nega olayin, mening oldimga hamisha suyak solib qo'yar eding, — debdi. Yalmog'iz:

— Kuchugim, ol! — deb baqiribdi. Kuchuk:

— Men nega olayin, oldimga har vaqt somon solib qo'yar eding, — debdi.

Eshiklar ham, tuya ham, it ham yalmog'izning aytganini qilmabdilar. U nima qilishini bilmay qolibdi. Shu vaqtida yigit bilan pari jo'nab ketibdi.

Yalmog'iz kampirning sochi juda uzun ekan, yigit uni ustunga qirq o'rab, mahkam bog'lagan ekan. Yalmog'iz ne azoblar bilan sochini yechib, bo'shatib olibdi va yigit bilan parining ketidan quvib ketibdi. Yalmog'iz uch kecha-yu uch kunduz quvib, bir cho'lda yigit bilan parining orqasidan yetib olibdi.

Ular yalmog'iz kampirning tarog'ini tashlabdi. Taroq katta bir to'qay bo'lib, kampirning oldini to'sibdi. Kampir qich-qirib:

— Hoy, bolalarim, bu to'qaydan qanday qilib o'tdilaring? — deb so'rabdi. Har ikkisi:

— Ey ona, bir tishimizni sug'urib tesha qildik, bir tishimizni sug'urib, bolta qildik, shu bilan to'qaydan yo'l

ochib o'tdik, — deb javob berishibdi va chopib ketaverishibdi.

Kampir bir tishini sug'urib bolta, bir tishini sug'urib tesha qilibdi. To'qaydan yo'l ochib chiqib, yigit bilan parini quvaveribdi. Ular qochaveribdi. Ikki kecha-yu ikki kunduzdan keyin yalmog'iz ularga yetib olibdi. Ular qaychini tashlab qo'chibdilar. Qaychi ham boshi va oxiri ko'rinxinmaydigan katta to'qayga aylanibdi. To'qay kampirning oldini to'sib qolibdi. Yalmog'iz:

— Hoy, bolalarim, bu to'qaydan qanday qilib o'tdilaring?! — deb so'rabdi. Pari:

— Ey ena, bir tishimizni sug'urib bolta qildik, bir tishimizni sug'urib tesha qildik. Shu bilan to'qaydan yo'l ochib o'tdik, — debdi.

Yalmog'iz yana bir tishini sug'urib bolta qilibdi, bir tishi ni sug'urib tesha qilibdi. Aslida kampirning to'rtta tishi bor ekan, to'rttovi ham tamom bo'libdi. Yigit bilan parining maqsadi kampirning to'rtta tishini yo'q qilish ekan. Shunda pari bilan yigit quvonib ketaveribdilar.

Kampir esa bolta, teshani qo'liga olib daraxtlarni kesib yo'l ochib, to'qaydan chiqibdi. Yana ularni quva beribdi. Ikki kecha-yu ikki kunduzdan keyin yalmog'iz kampir yigit bilan pariga yetayozibdi. Ular endi oynani tashlab ketishibdi.

Oyna bir katta daryo bo'lib qolibdi. U daryoning tagi va poyoni yo'q emish. Kampir daryoning labiga borib hayron bo'libdi.

— Hoy, bolalarim, bu daryodan qanday qilib o'tdilaring? — debdi. Yigit:

— Ey ena, ko'ylagimizni yechib, uni toshga to'ldirib, og'-zini bo'g'ib, bo'ynimizga ilib, daryoning tagi bilan o'tdik, — debdi.

Yalmog'iz yigitning aytganidek qilibdi va o'zini daryoga tashlash oldidan yigit va pariga qarab qichqiribdi:

— Hoy, bolalarim, men o'zimni daryoga tashlaganimdan keyin oq ko'pik chiqsa, qah-qah urib kulinglar, qizil ko'pik chiqsa, zor-zor yig'langlar! — debdi-da, o'zini daryoga tashlabdi. Biroz vaqt o'tgach, daryoni oq ko'pik tutib ketibdi. Yigit bilan pari ko'pikni ko'rib uvvos tortib yig'lay berishibdi. Yana biroz vaqtdan keyin qarashsa, daryoning betini qon tutib ketibdi. Har ikkisi yalmog'iz kampirdan qutulib, quvonib uch kecha-yu uch kunduz yo'l yurib, o'z ravotlariga yetib kelibdilar. Yigit pari bilan o'ynab-kulib yuraveribdi. Yigitning ota-onasi, aka-ukasi, qavm-qarindoshlari kelib dimog'lari chog' bo'libdi. Har ikkisi murod-maqsadiga yetibdi.

FARHOD VA SHIRIN



adim zamonda bir podshohning qizi bo'lgan ekan. Qizning oy desa og'zi, kun desa ko'zi bo'lib, kulta og'zidan gullar to'kilar, yursa oyog'idan tilla sochilar ekan. Qiz gulbog'da qirq qizlari bilan sayr etib yurar ekan. Nima uchundir qiz yoshligidan beri doimo g'amgin ko'rinar ekan. Qirq qiz Shirinning har qancha ko'nglini olish uchun urinsalar ham o'ynab-kulib, ochilib yurmas ekan.

Bir kun kanizaklardan biri:

— Hech narsadan kamchililingiz bo'lmasa, nima uchun doimo xafa ko'rinasiz, — deb so'rabdi.

Shunda Shirin:

— Men o'ynab, davron surib kulib yursam, boshqalar qayg'u-g'amda bo'lsa, undan nima foyda? — degan javobni qaytaribdi.

Bir kuni Shirin daryo bo'yida sochini yuvib o'tirgan ekan. Uning qoshiga bir kampir kelib:

— Qizim, qani sening bu bo'yingga munosib yigit bo'sa, — debdi.

Shirin:

— Men ham o'sha siz aytgan yigitni istar edim, — debdi. Bu so'zni eshitgan kampir:

— Ana, sen istagan yigit daryoda oqib kelayotir, — debdi. Shirin daryoga qarayman deganda, boshidagi tilla tarog'i suvg'a tushib ketibdi.

Ikkinchi bir mamlakat podshohining o'g'li daryoda cho'milayotgan ekan. Tilla taroqni tutib olib, „Shu taroqning egasi kim bo'lsa, o'shani olaman“, deb ahd qilibdi. Elda yurib surishtira boshlabdi. Bir kampir bu taroqning egasi Shirin ekanligini aytibdi. Yigit qizni axtarib yo'lga chiqibdi.

Kunchiqarda bir podshoh bor ekan; uning birgina Farhod nomli o'g'li bo'lgan ekan. Farhod qayg'urib, g'amgin bo'lib yurar ekan. Bir kun otasi o'g'lini qirq yigitni bilan sayrga chiqaribdi. Farhodning ko'zi tosh yo'nib turgan ustaga tushibdi. Shu hunarga ishqiboz bo'lib, uni o'rgana boshlabdi. Otasi uni bu ishdan qaytarsa ham unamabdi, o'z bilganidan qolmabdi. Kunlardan bir kun Farhod otasining xazinasiga kirib qolibdi. Undagi tosh sandiqni ochib, oynayi jahonnomaga qarabdi. Oynada avval Guliqahqah parini ko'ribdi. Keyin kunbotar tomonda Shirinning arg'imchoq uchib turganini ko'ribdi. Qizga oshiq bo'lib, boshidan hushi ketib yiqilgach, qo'lida-gi oyna yerga tushib sinibdi. Farhod Shirinni qidirib yo'lga chiqibdi.

Yolda bir daraxtning soyasida bir yigitning uxbab yotganini ko'ribdi. Daraxt tepasidan bir ilon tushib, yigitga zahar solay deb turganida Farhod yugurib kelib xanjar bilan ilonni o'ldiribdi. Yigit cho'chib uyg'onibdi va Farhodga: „Hozir tushimda bir kishi: „Tur, do'sting keldi“, deb aytdi“, debdi va bu fojianing oldini olib qutqargani uchun Farhod-

ga rahmat aytibdi. U bilan umrbod do'st bo'libdi. Bular yo'l yurib, Shirinning mamlakatiga yetib kelishibdi. Farhod bir tog' tagida bir necha ming askar to'planib turganini ko'ribdi, bir cho'pondan bu askarlar kimniki ekanini bilib olibdi. Shu vaqt Shirin qirq kanizagi bilan kelibdi. Shamol Shirinning yuzidagi pardasini ko'taribdi. Farhod uni ko'rib, oshig'-u be-qaror bo'lib, hushidan ketibdi. Do'sti suyab, uni o'ziga kel-tiribdi. Biroq Shirin va qirq qiz ketib qolgan ekan. Farhod Shirinning qayerga ketganini so'rabdi. Do'sti: „Shirin shu tog'dan suv chiqargan yigitga tegaman, deb aytdi“, debdi. Shu so'zni eshitgan Farhod g'ayratga kelib, tog'-toshni qo'po-ra boshlabdi. Oxiri bu ishni tugatib, tog'dan suv chiqaribdi. Do'sti tog'ning bir tomoniga Shirinning, ikkinchi tomoniga Farhodning rasmini chizibdi.

Bir kuni Shirin tog' etagida Farhod qurgan hovuzni ko'rish uchun qirq kanizagi bilan kelibdi. Shirin mevali daraxtlar bilan bezangan obod joyni ko'ribdi. Bu cho'lni suvg'a serob qilib, bog'-u bo'stonga aylantirgan Farhodni ko'rib, Shirin ham uni sevib qolibdi. Farhodni o'z qasriga olib borib, ziyofat qilibdi.

Shunday qilib, ular murod-maqsadlariga yetibdilar.

SHUM TULKI

Bir kuni tovuqlar tulkining ustidan arz qilgani ayiqning oldiga borishibdi:

— Ayiq polvon, — debdi ular, — tulkivoy das-tidan bizga kun yo‘q. Har kuni kechasi tovuqlarni qiyratgani-qiyratgan. Hech kimdan hayiqmaydi.

— Tulki-ya?.. Obbo muttaham-ey. Men uning jazosini beraman, — debdi ayiq.

U tulkini chaqirtiribdi. Tulki kelib dumini silkibdi va:

— Ayiq hazratlari. Men siz azizning biqiningiz toshga botmasin deb, yostiq keltirdim. Bular bo‘lsa sizning g‘amin-gizda yurganimni bilishmaydi, — deb ayiqqa yumshoq yostiq beribdi. Ayiq yostiqqa suyanib rohat qilibdi va:

— Ahmoqlar, boringlar, ikkinchi bunaqa bema’ni gaplar bilan arz qilib kelmanglar, — deb tovuqlarni quvib yuboribdi.

Shu kech yana ikkita tovuqning sho‘ri quribdi. Tovuqlar endi bo‘riga arz qilibdilar:

— Dod, tulkining dastidan, — deyishibdi ular. Bo‘ri tulkini zirqiratib haydab keltiribdi.

— Bo‘ri janoblari, — debdi tulki dumini likillatib, — men biqiningiz yerga botmasin deb, yostiq keltirdim.

U bo‘rining qo‘ltig‘iga yumshoq yostiq qo‘yibdi va:

— Bu popukli ahmoqlar sizning g‘amingizda yurganimni bilishmaydi, — debdi. Bo‘ri par yostiqqa suyanib rohat qilibdi va tovuqlarga:

— Ko‘zimdan yo‘qolinglar, badbaxtlar! Tulki ishini bilib qiladi. Bundan keyin xayrli ish qilganlar ustidan arz qilib kelmanglar! — deb do‘q uribdi.

Tovuqlar jonlarini hovuchlab, uylariga qaytishibdi. Shu kechasi yána uch tovuq tulkiga yem bo‘libdi.

Ertasiga tovuqlar mo‘ynoqqa arzga borishibdi. Tulki mo‘ynoqqa ham yostiq beribdi va:

— Sizning g‘amingizni yeb yurgan edim, — debdi.


Mo‘ynoq yostiqqa qaramabdi va itlarga qárab:

— Bu ayyor tulkini yaxshilab kaltaklanglar! — deb buyuribdi. Itlar tulkini o‘rtaga olib, rosa ta’zirini berishibdi.

— Endi cho‘lga haydar yuboringlar uni! — debdi mo‘ynoq. — Bo‘lmasa, tovuqlarni yeb, pati bilan yana ko‘plarni aldaydi bu ayyor.

Shum tulkini cho‘lga quvib yuboribdilar.

KASHMIRI



tgan zamonda bir podshoning go'zal qizibor ekan. Shu mamlakatda bir kambag'al dehqon bo'lib, uning ham yolg'iz o'g'li bor ekan. U podshoning qiziga oshiq bo'lib qolibdi-da, sovchi jo'natibdi. Podsho unga „Dunyoda yo'q hunarni o'rgansa, qizimni beraman“, deb javob beribdi.

Endi dehqon o'g'lini turli hunarlarga o'rgatmoqchi bo'libdi va uni bir kashmirining uyiga olib boribdi, unga shogird qilib beribdi. Kashmiri kishi o'z hunarini birovga o'rgatmas ekan, shogirdlarini o'n kun och qo'yib o'Idirar ekan. Bu yigitni qamayotganda kashmirining qizi ko'rib qolibdi va yigitga otasidan yashirinchcha yordam berib, otasi bilgan hunarlarni unga o'rgata boshlabdi. O'n kun o'tgach, dehqon kelib o'g'lini olib ketibdi. Kashmiri yigitning o'lmanagini ko'rib hayron bo'libdi. Yigitning payiga tushibdi. Yigit qizdan shunday bir duo o'rgangan ekanki, uni o'qib, bir dumalab, xohlagan narsasining qiyofasiga kira olar ekan. Bir kuni yigit ajoyib tulpor ot bo'libdi, otasi uni bozorga olib borib sotibdi, chol uyiga kelsa, o'g'li ham otasining orqasidan yetib kelibdi. Otasi hayron bo'libdi. Kelgusi bozor kuni yigit katta bir nor tuyu bo'libdi, otasi uni yana bozorga olib boribdi, bu safar tuyani bozorda kashmiri kishi ko'rib, yigit ekanini bilibdi-da, uni darrov sotib olibdi, uyiga olib borib so'ymoqchi bo'libdi.

U qiziga:

— Pichoq olib chiq! — debdi. Qiz ham yigitni tanibdi.
Uyga kirib pichoqlarni berkitibdi-da:

— Topolmadim, — debdi. Otasi qiziga tuyani berib, o'zi pichoqqa kirib ketibdi. Qiz otasining yo'qligidan foydalanib, tuyani qo'yib yuboribdi. Tuya kaptar bo'lib uchib ketibdi. Qizning otasi bir dumalab burgut bo'libdi-da, uning orqasidan quvlabdi. Ular quylashib, bir-biriga yetay deganda, yigit baqa bo'lib, suv ostiga yashirinibdi, kashmiri laylak bo'lib, uni axtaribdi, ushlab olay degan ekan, yigit bedana bo'lib uchibdi. Chol qirg'iy bo'lib quvibdi. Nihoyat, unga yetay deganda, yigit podshoning bog'idagi ochilib turgan gullar orasiga kirib, gul-bo'lib-olibdi, chol-qaysi-gul-yigit-ekanini ajrata olmay, bulbul bo'lib sayray beribdi, shu vaqtida podshoning qizi kelib, haligi gulni uzib olibdi-da, otasiga beribdi. Kashmiri darrov musiqachi bo'lib, yaxshi kuylarni chala boshlabdi, podsho juda miriqib, bu kuyni tinglabdi. U kishi shohdan gulni so'rabdi, podsho bermabdi, yana so'rabdi, shoh yana bermabdi. Kashmiri xiralik qilib so'ray bergen ekan, podsho g'azablanib, gulni yerga uribdi, gul qo'noq bo'lib sochilib ketibdi, kashmiri jo'jali tovuq bo'lib, qo'noqni yeya beribdi va yeb tamom qilibdi. Podsho kavushining ichida bir dona qo'noq qolgan ekan, u qo'noq katta olg'ir mushuk bo'libdi-da, haligi jo'jali tovuqni bir chekkadan yeb bitiribdi va bir dumalab odam bo'lib, podshoga ta'zim qilibdi. Podsho yigitning o'rgangan hunariga qoyil qolibdi-da, qirq kecha-yu qirq kunduz to'y-tomosha qilib, haligi yigitga qizini beribdi, shunday qilib yigit murod-maqsadiga yetgan ekan.

KENJA

Bir podshoning uch o'g'li bo'lgan ekan. Kattasi yigirma bir yoshga, o'ttanchasi o'n to'qqiz yoshga, kenjası o'n yetti yoshga to'lgan ekan.

Bir kun to'ng'ich o'g'il tunda eshikka chiqib qarasa, ikki tomondan yorug' tushayotgan emish. U azongacha uqlamay o'yabdi. Azonda otasining oldiga chiqib, undan:

— Ota, kun chiqishda va kun botishda yorug' ko'rdim, bu nima? — deb so'rabdi. Otasi:

— Ey bolam, sen so'raydigan narsa emas, — debdi.

O'g'li qo'ymasdan yalinibdi. Otasi:

— Bolam, kun chiqishdagi yorug'lik o'zimizning osmondagi oyimiz. Kun botishdagi esa, kun botish podshosi qizining shu'lasi. U yuzidagi niqobini olib qo'ysa, shu'lasi osmonga tushib turadi. Senga ko'ringan oy o'sha, — debdi. To'ng'ich o'g'il:

— Men o'sha kun botishdagi malikaning oldiga boramani, — debdi. Nihoyat ota javob berishga majbur bo'libdi. To'ng'ich o'g'il ikki xurjunni tillaga to'ldirib, yaxshi otga minib, yo'lga tushibdi. U yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi. Yo'lda bir cholga duch kelibdi.

Chol:

— Yo'l bolsin, bolam? — deb so'rabdi.

— Oloy bo'lsin, ol bo'lsin, ota, podshoning qizini olgani ketyapman, — debdi shahzoda.

— Unday bo'lsa, bolam, ostingdagi oting va xurjuning-dagi tillalarni menga berib ket! — debdi chol.

— Ota, axir ostimdag'i ot va xurjundagi tillaga ishonib ketyapman-ku, — debdi bola.

— Xayr, unday bolsa, ketaver, — deb javob beribdi chol.

Bola yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, kun botish podshosining shahriga boribdi, nihoyat saroyga ham kiribdi. Podsho bolani ko'p izzat-hurmat bilan kutib olibdi. Bola bir hafta podsho o'rdasida mehmon bo'libdi. Podsho qayerdan kelding, deb tag-taxtini surishtiribdi. Bola kelgan shahrini, otasining nomini aytibdi.

Podsho:

— Kelishdan maqsading nima? — deb so'ragan ekan, bola:

— Sovchilikka, qizingizga uylanish uchun keldim, — debdi. Shu so'zni aytishi bilanoq, podsboning bir pahlavoni kelib, bechora bolani ko'tarib, chig'iriq tomon olib ketibdi. Bolani chig'iriqqa tashlab, maydalab o'ldiribdi.

Endi ikki og'iz so'zni o'rtancha og'ildan eshititing: o'rtancha og'il og'asini uch oy kutibdi, darak bo'lmagach, xabar olib kelaman, deb ruxsat olib, u ham yo'lga chiqibdi. Buning boshiga ham og'asining kuni tushibdi. Oradan bir yil o'tibdi. Kenja og'il otasinnig huzuriga kirib:

— Otajon, akalarimdan xabar olaman, — deb javob so'rabi. Otasi javob bermabdi.

— Axir, yolg‘iz sen qolding, o‘g‘lim. Endi seni ham yo‘qotsam, menga podsholikning nima keragi bor? — deb yig‘labdi u. Hech ko‘ndira olmagandan keyin podsho kenja o‘g‘liga ham javob berishga rozi bo‘libdi. Bola ikki akasi qanday tayyorlik ko‘rib jo‘nagan bo‘lsa, shunday tayyorlanib, yo‘lga chiqibdi. Bir necha kun yurgandan so‘ng unga ham bir chol uchrabdi. Ular hol-ahvol so‘rashibdilar.

Chol bolaga:

— Ostingdagi ot bilan xurjundagi tillani tashlab ket! — debdi. Bola, xo‘p, deb otdan irg‘ib tushib, bir hovuch tillani cho‘ntagiga solib, ot bilan tillani cholga beribdi. Chol bilan xayrlashib, jo‘nabdi. Kenja yo‘l yuribdi, yo‘l yursa ham mo‘l yuribdi. Bir shaharning chetiga yetib boribdi. Bu shahar kun botish podshosining shahri ekan. Kenja shaharga qanday kiraman, deb turganda qo‘y boqib yurgan cho‘ponga duch kelibdi. Bola cho‘pondan:

— Bu kimning qo‘ylari? — deb so‘rabdi.

Cho‘pon:

— Bular podshoning kundalik ovqati uchun so‘yilib turgan qo‘ylar, — debdi. Bola cho‘ponga:

— Ey cho‘pon, kel, ikkimiz kiyimlarimizni almashtiraylik. Sen mening kiyimimni kiy, men sening kiyimlaringni kiyay, — debdi.

Cho‘pon:

— O‘zing bir podshovachchaga o‘xshaysan, meni kalaka qilayotgan bo‘lماqin, — debdi. Ammo cho‘pon kenjaning

astoydil aytgan so'zlariga ishonib, kiyimlarini almashtiribdi.
Shunda shahzoda:

— Endi sen kechqurun qo'ylarni qayerga haydab borishni tushuntirib qo'y, — deb iltimos qilibdi.

Cho'pon:

— Podshoning saroyiga yetganingda, qo'ylarning o'zi qayerga borishini yaxshi biladi, — debdi. Ikkisi xayrlashib, cho'pon yo'lga tushibdi. Kenja kechgacha qo'ylarni boqib, kechqurun saroyga haydab boribdi. Kenja u yerda hech kimni tanimabdi. Qo'lga tushib qolmayin, deb bir teshikdan boshqa tomonga chiqib ketibdi. Bola tushgan joyida katta bir hovuz bor ekan. Shu hovuzning yonida yotib uxlab, tong ottiribdi. Shu joyda bir beva kampir yashar ekan. Kampir suvgaga chiqib, bolani ko'rib qolibdi. Bola kelishgan, chiroyli ekan. Kampir bolani ko'rib hayron qolibdi va uni uyg'otib:

— Ey bola, kimning o'g'lisan, qayerdan kelgansan? — deb so'rabdi.

Bola kampirga:

— Otam, onam yo'q, bir yetimchaman, — debdi.

Kampir:

— Unday bo'lsa, menga o'g'il bo'laqol, — debdi.

Bola rozi bo'libdi. Kampir bolani uyiga olib boribdi. Kampirning uyida bor-yo'g'i bir hovuch uni bor ekan, bolaga atala qilib beribdi. Bola atalani ichib bo'lgach, kampirning qo'liga bitta tilla beribdi. Kampir bozorga jo'nabdi. U alloponing oldiga kelib shunday debdi:

— Bolam, mana shu pulimga yarasha un bersang!

— Ona, besh-oltita arava olib kelng! — debdi allop. Kampir ishonmay:

— Meni kalaka qilma, o'g'lim, — debdi. Allop kampir ishonmayotganini bilib, aravalarga un ortib beribdi. Shahzoda to'rtta oshiq va bitta soqqa olib, podsho saroyi oldida boshqa bolalar bilan o'ynab yuraveribdi. Bola podsho saroyida bo'layotgan voqealarning hammasidan ogoh bo'lib, polvonning qilmishlarini, kelgan shahzoda va podshovachchalarning chig'iriqda o'ldirilayotganini ko'rib, o'z akalaring ham shu ko'yga tushganini bilib, g'azabi qaynab, payt poylab yuraveribdi. Bola podsho saroyi oldida yurib, ko'p yangiliklardan xabardor bo'libdi. U o'z akalari uchun o'ch olish va malikaga uylanishni ko'nglidan o'tkazib qo'yibdi.

136

Oradan bir necha kun o'tgandan so'ng Kenja malikaning oldiga chiqish uchun harakat qilibdi. Bir kuni yarim tundan og'gandan keyin bola qiz oldiga chiqa boshlabdi. Bu paytda eshik oldidagi qorovullar, askarlar uxbab yotishgan ekan. Yo'lga bog'lab qo'yilgan yirtqich hayvonlarning hammasi uxlayotgan ekan. Bola qiz oldiga bemalol chiqib boribdi. Qarasa, qizning qirq kanizi ham uxbab qolganmish. Malika o'ng qo'lida sharob, chap qo'lida kabob ushlagancha uxlarkan. Kenja qiz qo'lidagi sharobni ichib, kabobni yebdi. Bola qizning betidan bir bo'sa olib, tezlik bilan orqasiga qaytibdi. Shu payt yirtqich hayvonlar uyg'onib, bo'kira boshlabdi. Askarlar va qorovullar o'q uza boshlabdilar. Qizning qo'lidagi kabob va sharobi g'oyib bo'lganini eshitib, podsho nihoyatda g'azablanibdi.

— Saroyga hech qänday inson bolasi, jonzod kirgani yo‘q, — deb bo‘yinlariga olishmabdi qorovullar.

Oradan bir necha kun o‘tgandan so‘ng Kenja yana qizning oldiga chiqmoqchi bo‘libdi. Bir kuni yarim kechada yana qiz qo‘lidagi kabobni yeb, sharobini ichib eson-omon o‘z uyiga qaytibdi. Bola yana podsho saroyi oldida odatdagicha oshiq o‘ynayveribdi. Saroyda bo‘layotgan yangilik va voqealarning hammasidan xabardor bo‘lib yuraveribdi. Yana oradan bir necha kun o‘tgandan keyin Kenja uchinchi marta qizning oldiga chiqishga tayıyorlanibdi. Bu kuni qo‘liga mesh olib, saroy darvozasiga kelganda qorovullar va askarlar, yovvoyi hayvonlar yana uyquda ekan. Yigit ko‘shkka ko‘tarila boshlabdi. Bola qarasaki, hamma kanizaklar uxbab yotibdi. Kenja avval meshni puflabdi, keyin qizning qo‘lidagi kabobini yeb, sharobini ichib, yuzidan bir bo‘sа olibdi. Shu payt qiz uyg‘onib, bolaning qo‘lidan mahkam ushlab olibdi. Qorong‘ida bola qizga:

— Mana bu qo‘limni ushlang, — deb qo‘li o‘rniga meshning bir uchini ushlatib qo‘yib, o‘zi jo‘nab qolibdi. Qiz esa:

— Senmisan mening kabobimni yeb, sharobimni ichadigan, — deb bir siltab tortgan ekan, puflangan mesh ko‘tarilib ketibdi. Qiz dod solibdi. Kanizlar, yovvoyi hayvonlar, qorovullar, askarlar uyg‘onib, to‘s-to‘polon bo‘lib ketibdi. Podsho hayron bo‘lib:

— Odamlar, qorovullar, askarlar uxlaganiga ishonsa bo‘ladi, yirtqich hayvonlar-chi? Ularning uxlaganiga ishon-

mayman. Qizimning ko'shkiga chiqib, qo'lidagi kabobini yeb, sharobini ichgan qanday odam ekan! — deb g'azablanibdi.

Oradan bir necha kun o'tgandan keyin Kenja kampirdan qimmatbaho ayollar kiyimidan sotib olib kelishni so'rabdi. Keyin shu kiyimlarni kiyib, chig'iriqni aylantiradigan polvonning yoniga boribdi.

— Menga kelgan sovchilarni qayerda va nima bilan o'diriyapsiz? — deb so'rabdi.

Polvon javob beribdi:

— Malikam, mana bu chig'iriq bilan. Bu chig'iriq sizga sovchilikka kelgan bir necha minglab shahzodalarni chaynab chiqardi, — debdi.

— Qani, men ham bir oyog'imni chig'iriqqa qo'yib ko'ray-chi, qanday bo'larkan, siz aylantirib ko'ring-chi! — debdi Kenja malikadek muloyim gapirib.

Polvon:

— Sizning oyog'ingizni chig'iriqqa qo'ygandan ko'ra, men jonimni berganim yaxshi emasmi? — debdi. — Men oyog'imni qo'yay, tizzamgacha aylantiring, tizzamdan yuqoriroq o'tishi bilan to'xtang, chig'iriqning yirik tishlariga borib qoladi, — deb tushuntiribdi.

Kenja podshoning qizi bo'lib, chig'iriqni aylantira boshlabdi.

Polvonning tizzasiga yetganda:

— Dod, bo'ldi, bas, orqaga qaytaring, — desa ham bola chig'iriqni tezroq aylantiraveribdi. Polvonni qornigacha majaqlabdi, keyin tilini kesib olib, ustiga xat yozilgan qog'ozni

qo'yib ketibdi. Xatda shunday yozuvlar bitilgan ekan: „Ey shohim! Qizingizning oldiga — ko'shkka uch marta chiqib sharoblarini ichib, kaboblarini yedim. Uchinchi safar chiqqanimda qizingizning yuzidan bo'sa oldim. Pahlavoningizni chig'iriqqa tortib, tilini kesdim. Endi navbat sizga keldi. Chunki mening ikki akamni va yana qanchadan qancha begunohlarni o'ldirib yuborgansiz“.

Polvonining ahvolini ko'rib, shuningdek, xatni o'qigan podsho juda ham vahimaga tushib qolibdi. Vazirlari:

— Ey podshohim, bir qizingiz deb o'zingiz ham o'lib ketmang! Shaharga jar chaqirtiring. Kimda-kim shu ishlarni qilgan bo'lsa, o'sha odamga qizimni beraman, o'ziga hech qanday jazo bermayman, deb e'lon qiling, — deyishibdi. Podsho rozi bo'libdi. Oradan bir necha kun o'tgach, bola kampir bilan xayrlashib, podsho saroyiga boribdi. U bo'lgan voqealarni podshoga bir boshdan gapirib beribdi. Yigitni qo'lga olmoqchi bo'lgan podsho Kenjaning mardligini ko'rgach, fikridan qaytibdi va to'y boslashga farmon beribdi. To'yga yo'lda Kenja oltinlari va otini bergen chol ham kelibdi. Kenja malika ko'shkiga chiqayotganda qorovullar va hayvonlarni shu chol sehrlab qo'ygan ekan. To'y o'tgach, Kenja malika va sehrgar chol bilan kanizlar va navkarlar kuzatuvida ona shahriga yo'l olibdi.

ILONNING ISHI ZAHAR SOLMOQ

140

Bir cho'pon daladan qaytayotganda katta ariqning narigi yog'idagi to'qayga o't ketganini ko'ribdi. Bir vaqt suv bo'yiga kelib qarasa, qamish ichida bir katta ilon vishillab kuyib ketayotgan emish. Cho'ponning unga rahmi kelibdi, qo'lidagi uzun tayoqning uchiga xaltani boylab ilon tomonga uzatibdi. Ilon jon holatda o'zini xaltaga uringdi, cho'pon xaltani tortib olib, og'zini ochibdi, ilonni yerga tushiribdi. Shu payt ilon cho'ponning oyog'iga chirmashib olibdi.

Cho'pon hayron bo'lib:

— Nima qilmoqchisan? — deb so'rabdi.

Ilon:

— Men seni chaqaman, — debdi. Cho'pon:

— Men yaxshilik qilib, seni o'limdan qutqardim, senga yaxshilik qilgan odamni chaqasanmi? — debdi. Shunda ilon:

— Men bilmayman, mening vazifam chaqish, zahar solish, menda bundan boshqa hunar yo'q, — debdi. Cho'pon:

— To'xta, bo'lmasa, birorta odamdan „yaxshilikka yaxshilikmi yoki yomonlikmi?“ deb so'rayman, u nima desa, o'shanga qarab ish tutamiz, — debdi.

Cho'pon yo'lda davom etibdi. Ilon esa cho'ponning oyog'iga chirmashib ketaveribdi.

Yo'lda o'tlab yurgan bir oriq sigir duch kelibdi.

— Ey, sigir, yaxshilikka yaxshilikmi yoki yomonlikmi? — deb so'rabdi cho'pon. Sigir javob beribdi:

— Albatta, yaxshilikka yomonlik. Men yoshligimda har kuni uch mahal sut berardim. Xo'jayinim yaxshi ko'rар edi. Endi men qaridim, sut bermay qо'ydim, oriqladim. Ertaga meni qassobga sotish uchun bozorga olib boradilar, — debdi. Shunda ilon:

— Ana, mening aytganim to'g'ri chiqdimi?! Endi seni chaqaman, — debdi. Cho'pon:

— Yana bir so'raymiz, keyin chaqsang, mayli! — debdi.

Ular yo'lda bir olma daraxtiga duch kelishibdi. Olma daraxtining shoxlari singan, tagi to'la tosh, kesak ekan.

Cho'pon olma daraxtidan so'rabdi:

— Ey daraxt, yaxshilikka yaxshilikmi yoki yomonlikmi?

— Ey do'stlar, albatta, yaxshilikka yomonlik, masalan, meni oling, yoshligimda ko'p meva berar edim, o'tgan-ketgan odam tosh otib, bolalar ustimga chiqib, shoxlarimni sindirib, shu ahvolga solishdi. Endi meni kesib o'tin qilishmoqchi. Bu yaxshilikka yaxshilikmi? — debdi daraxt.

Ilon:

— Ana, eshitdingmi, endi chaqaman, — debdi.

Cho'pon:

— Yo'q, yana biror kimsadan so'raylik, — debdi.

Yo'lda ketishayotsa, bir tulki uchrabdi.

— Hoy, tulki, to'xta, bizlar sendan bir savol so'ramoq-chimiz? — debdi cho'pon. Tulki to'xtab qarasa, bir katta ilon

odamning oyog‘iga chirmashib, „chaqaman“ deb yopishib turgan emish.

Tulki:

— Nima gap? — deb goh ilonga, goh cho‘ponga qarabdi.

Cho‘pon so‘z boshlabdi:

— Ey, tulkivoy, men mana bu ilonni o‘limdan qutqarib qolgan edim. Endi esa u meni chaqmoqchi, shu ham insof-danmi? — debdi.

Tulki:

— Qanday qilib uni o‘limdan qutqarding? — deb so‘rabdi.

— To‘qayga o‘t tushgan edi. O‘t ichida ilonni ko‘rib rahmim keldi, bir yog‘ochning uchiga mana bu xaltani bog‘lab, ilon tomon uzatdim, u xaltaga kirdi, tortib oldim, — deb javob beribdi. Shunda tulki qah-qah uring kulib yuboribdi, cho‘ponga:

— Shu kichkina xaltaga katta ilonning sig‘ganiga men hayron bo‘lib, kulib yubordim, — debdi. Ilon:

— Unga men sig‘dim, — debdi. Tulki:

— Bo‘lmasa, yana xaltaga tushib ko‘r-chi, sig‘armikansan yoki yo‘qmi? — debdi. Ilon maqtanib:

— Mana, ko‘r, men sig‘aman, — deb cho‘ponning xaltasi-ga kiribdi. Tulki cho‘ponga ko‘zini qisib:

— Xaltaning og‘zini mahkam bog‘la, ko‘tarib, aylantirib yerga ur! — debdi. Cho‘pon tulkinining aytganini qilib, ilon-dan qutulibdi. Yana o‘z yo‘liga ravona bo‘libdi.

MUNDARIJA

Opa-uka	3
Cho'loq bo'ri	8
O'tinchi chol	13
Bola — podshodir	39
Podachining qizi	40
To'qqiz dangasa	49
Dunyoda yo'q hunar	58
Qirq kuyov	62
O'ynang, kuchugim, o'ynang!	73
Nurilla boyvachcha	79
Yetti ahmoq	88
Sunbul bilan Gul	89
Boyvachcha bilan pari	105
Farhod va Shirin	125
Shum tulki	128
Kashmiri	130
Kenja	132
Ilonning ishi zahar solmoq	140
	143

Adabiy-badiiy

DUNYODA YO‘Q HUNAR

O‘zbek xalq ertaklari

Muharrir	<i>Dildora Arzikulova</i>
Badiiy muharrir	<i>Shavkat Ilhomov</i>
Texnik muharrir	<i>Nodira Ahmedova</i>
Kichik muharrir	<i>Zilola Mahkamova</i>
Musahhih	<i>Miryusuf Mirsoliyev</i>
Sahifalovchi	<i>Shahboz Sirojiddinov</i>

«O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi»

Davlat ilmiy nashriyoti

Toshkent – 2018

Nashriyot litsenziyasi AI № 160, 14.08.2009 y.

Bosishga 05.09.2018 y.da ruxsat etildi.

Qog‘oz bichimi 70x90 $\frac{1}{16}$. Ofset qog‘ozi.

«Minion Pro» garniturasida ofset usulida bosildi.

Shartli bosma tabog‘i 10,53. Nashriyot-hisob tabog‘i 5,8.

Adadi 10 000. Buyurtma raqami 2040. Shartnomma № 67–18

«O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi»

Davlat ilmiy nashriyoti.

100011, Toshkent sh., Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

«Credo Print Group» MChJ

Kitob fabrikasida chop etildi

Toshkent sh., Bog‘ishamol k. 160.

www.credoprint.uz